

# **MAGISTRLIK DISSERTATSIVASI**

**«TURKISTONDA SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI  
QUROLLI QARSHILIK HARAKATI QATNASHCHILARIGA  
NISBATAN QO'LLANILGAN QATAG'ONLIK SIYOSATI»**  
**(1918-1934 yillar)**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

*Qo'lyozma huquqida*  
**UDK: 9 (575.1)**

**SA'DULLAYEV SANJAR SALOHIDDINOVICH  
«TURKİSTONDA SOVET HOKİMIYATIGA QARSHI  
QUROLLI QARSHILIK HARAKATI QATNASHCHILARIGA  
NISBATAN QO'LLANILGAN QATAG'ONLIK SIYOSATI»  
(1918-1934 yillar)**

**5A 120301-O'zbekiston tarixi mutaxasisligi "O'zbekiston tarixi" bo'yicha  
magistr darajasini olish uchun**

**MAGISTRLIK DISSERTASIYASI**

Ish ko'rib chiqildi va himoyaga Ilmiy rahbar: dots. Mamaraximov X.M.

ruxsat berildi

**"O'zbekiston tarixi" kafedrasi**

**mudiri** \_\_\_\_\_

dots. Xoliqurov R.Sh.

Prof. N.O'.Xolmatov \_\_\_\_\_

M.O'

S A M A R Q A N D – 2016

<b>KIRISH.....</b>	<b>4-9</b>
--------------------	------------

**I-BOB:TURKISTON O’LKASIDA MUXTORIYATNING AG’DARILISHI.  
BOLSHEVIKLAR HOKIMIYATINING ZO’RLIK BILAN O’RNATILISHI**

1.1. Farg’ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakatining boshlanishi .....	10-26
1.2.Buxoro amirligi va Xiva xonligida sovet hokimiyati va bolsheviklar partiyasiga qarshi qurolli harakatning o’ziga xos xususiyatlari.....	27-40
1.3. I-bob bo’yicha xulosa.....	41

**II-BOB:SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI “YOSH BUXTOROLIKLAR”  
VA “YOSH XIVALIKLAR” XALQ HARAKATLARI**

2.1.“Yosh buxtoroliklar” harakati .....	42-49
2.2.“Yosh xivaliklar” harakati .....	50-58
2.3.II-bob bo’yicha xulosa.....	58

**III-BOB:TURKISTON O’LKASIDA QUROLLI QARSHILIK HARAKATI  
QATNASHCHILARI VA ULARGA XAYRIHOH BO’LGAN KUCHLARGA  
NISBATAN OLIB BORILGAN OMMAVIY QATAG’ONLIK SIYOSATI**

3.1.Turkiston o’lkasida sovet hukumatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag’onlik siyosati.....	59-77
3.2.Sovet hokimiyatining o’lkada yuritgan mustamlakachilik, shovinistik va imperiyachilik siyosatiga qarshi kurashgan shaxslar, siyosiy partiyalar va tashkilotlar (Nazir To’raqulov, Abdulla Rahimboyev, Turar Risqulov, Fayzulla Xo’jayev, Sho’royi Islomiya, Ittihodi taraqqiy, Birlik uyushmasi, Milliy istiqlol, Turkiston milliy birligi» tashkiloti).....	78-90
3.3.III-bob bo’yicha xulosa.....	90

<b>UMUMIY XULOSA.....</b>	<b>91-93</b>
---------------------------	--------------

<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI.....</b>	<b>94-97</b>
--	--------------

## KIRISH

### **Magistrlik dissertasiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbliги.**

O’zbekiston o’z milliy mustaqilligini qo’lga kiritgunga qadar yozilgan sho’ro davri tarixi kitoblarida nafaqat bir necha ming yillik o’tmishimiz, balki XX asr tariximiz ham tubdan o’zgartirilib, mohiyatan buzilib hukmon mafkuraga moslashtirilib bayon qilindi. Natijada xalqning o’z o’tmishidan begonasirashi, avlodning o’z ajdodini tushinmasligi yoki yo’qlamasligi, boshqa millatlarni najotkor sanab, ajdodlaridan tonishi singari salbiy kayfiyat vujudga keldi. Tarix fani milliy iftixor va ibrat manbai, ulug’ murabbiy emas, mag’rur va hamjihatli millatning boshini egib qo’yish vositasiga aylantirildi.<sup>1</sup>

Holbuki mamlakatimiz, Prezidenti I.A. Karimov haqqoniy takidlaganidek “Ma’naviyatni tiklashi, tug’ilib o’sgan yurtida o’zini boshqalardan kam sezmay, boshini baland ko’tarib yurishi uchun insonga albatta, tarixiy xotira kerak”<sup>2</sup>

Mana shu xotirani mumkin qadar to’liq tiklash, xalq g’ururini ko’tarish, uning o’zligini anglashiga turtki berish uchun. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti o’zi tashabbusi bilan chiqdi va yurtimiz tarixishunos, jamiyatshunos olimlari oldiga ma’suliyatli vazifani qo’ydi. Yurtboshimiz o’zining “Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q” asarida jumladan shunday dedi: “Modomiki, o’z tarixini bilgan, undan ruhiy quvvat oladigan xalqni yengib bo’lmas ekan biz haqqoniy tariximizni tiklashimiz, xalqimizni millatimizni ana shu tarix bilan qurollantirishimiz zarur. Tarix bilan qurollantirish, yana bir bor qurollantirish zarur”<sup>3</sup>

Chorizm Turkiston o’lkasida qattiqqo’llik bilan mustamlakachilik zulmi siyosatini olib borgan bo’lsada, tub yerli aholining tarixi, tili, dini, uf-odati, madaniyati kabilariga sho’rolarday hukum va tazyiq o’tkazmagan edi. Sho’rolar qisqa muddat ichida Turkiston xalqlarining milliy davlatchiligiga barham berdi,

<sup>1</sup> Jo’rayev N. “O’zbekiston tarixi” Toshkent “Sharq” nashriyoti matbuodda konserni bosh tahririyoti 2011y 3- bet

<sup>2</sup> Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent “Sharq” nashriyot matbaa konserni bosh tahririyati. 1998y 8- bet

<sup>3</sup> Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo’q. Toshkent “Sharq” nashriyot matbaa konserni bosh tahririyati 1998 y 24-25 betlar.

tarixidan mahrum qildi, dinini taqiqlab qo'ydi. Tiliga kishan soldi, madaniyat va ma'naviyatini haqorat qildi. Bularning barchasi aniq reja asosida amalga oshirildi. Xullas sho'rolar davrida Markaziy Osiyoning eng yirik millatlaridan bo'lgan o'zbeklar millat sifatida halokat yoqasiga kelib qoldilar.<sup>4</sup>

O'zbekiston mustaqillikka erishgan kundan boshlab tariximizga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, sovet davrida nato'g'ri baho berilgan yoki yuzaki ko'rib, chiqilgan masalalarga jiddiy ilmiy yondashuv kuchaydi.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyul dadagi "O'z RFA tarix instituni faoliyatini takomillashtirish haqidagi qaroridan so'ng haqqoniy tarixni yaratish, bu jarayonda birlamchi manbalarga asosiyligini e'tibor berish, qo'yilgan muammoni soha mutahassislari tamonidan hal etilishi, mavjud muammolar yechimini kutayotgan muammolar talayginaligi" ana shunday masalalardan biri.<sup>5</sup>

E'tiboringizga havola etilayotgan disertatsiya loyhasi mana shu talab va ehtiyojdan kelib chiqib yaratildi. Unda Turkistonda sho'rolar mustamlakachiligining o'rnatilishi, o'lka xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashi, tarixiy vaziyati, sho'rolar istibdodining o'rnatilishi, ularning asl mohiyatini ochib berishga harakat qilindi. Albatta hozirga qadar o'zbek tarixnavisligi va tarixshunosligida Turkiston muxtoriyati voqiyalari ancha o'rganilgan. Bu davrning murakkab zidiyatlari, qarama-qarshiliklarga to'la voqiyalar tadqiq va taxlil etilgan.

**Tadqiqot obyekti va predmeti.** Turkistonda sho'rolar mustamlakaachilik istibdodining o'rnatilishi. O'lka xalqlarning milliy istiqlol va ozodlik uchun bo'lgan 1917-1930 yillar kurashi tadqiqot obekti sifatida tanlab olingan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Dissertasiyaning asosiy maqsadi Turkistonda sho'rolar mustamlakachilik istibdodining o'rnatilganligini o'lka xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashlari asosida, haqqoniy manbalar yordamida tadqiq qilishdan iborat.

<sup>4</sup> Jo'rayev N. "O'zbekiston tarixi" "Sharq" nashriyoti-matbaa konserni bosh tahriri yili 1998 yil 8-bet

<sup>5</sup> Eshov B. "O'zbekistonda davlat va boshqaruv tarixi" "Yangi avlod", 2012 yil 3-bet

**Ilmiy yangiligi.** Dissertasiya mavzusi hozirgi shu vaqtga qadar o’zbek tarixnavisligi va tarixshunosligida ancha o’rganilgan, bu davrning murakkab, ziddiyatli, qarama qarshiliklariga to’la voqealari tadqiq va tahlil etilgan. Dissertasiyada ishida esa amalga oshirilayotgan keng ko’lamli ilmiy izlanishlarning navbatdagi natijasidek tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertasiya natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, 1918-1930 yillarda sovet mustamakachilari tomonidan siyosiy tazyiq o’tkazish mustamlakachilik siyosiyatini kuchaytirganligi. Soxtalash tirilgan o’sha davr tarixini men yozgan dissertasiya ishi tarixiy voqealarni to’g’ri yoritishda, uni to’ldirish va anqlik kiritishda, xolisona baho berishda yordam beradi.

**Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi.** Turkistonda sho’rolar mustamlakachilik istibdodining o’rnatalishi o’lka xalqlarining milliy istoqlilol va ozodligining kurashi mavzusi mustamlakachilik davrida O’zbekiston tarixi haqqoniy yoritilmagan. Faqatgina tarixi bir tamonlama yoritib berilgan bu muammoning ayrim qirralari qisman o’rganilib chiqilgan. O’zbekiston Respublikasi Prizidenti I.Karimov “Turkiston” gazetasi muxbirining savollariga bergen javoblarida mustabid sovet tuzimi davriga munosabat bildirar ekan: “Biz shu paytgacha ko’proq eski tuzimni tanqid qilish, uni inkor etish bilan band bo’ldik. Albatta boshimizdan kechirgan mudhish va mustabid turmushning bugungi asoratlarini anglab yetish, yo’limizni to’g’ri belgilab ola bilish bu istiqolning dastlabki yillarida biz uchun albatta zarur edi. Ammo faqat o’tmishni yozg’irish, inkor etish bilan uzoqqa borib bo’lmaydi.

Shu bois bugun biz ota-bobolarimizga sun’iy ranglar bilan ajratib baho bermasligimiz balki ularning hayotini ular yashagan davrning mohiyatini to’g’ri tushinishga xarakat qilishimiz lozim”<sup>6</sup> deb ta’kidlagan edi. Madomiki shunday ekan his-hayajonga berilmasdan mustabid siyosiy tizim tarixi bilan xalqimizning tarixini ajrata bilishimiz, uni xolisona ilmiy asosda yoritish zarur.

---

<sup>6</sup>Karimov I.A. “O’z kelajagimizni o’z qo’limiz bilan qurmoqdamiz” “Turkiston” 1999 yil 2-fevral. 14-bet.

Mustaqillik yillarda O‘zbekistonda mavzu doirasida mavzu yuzasidan ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, N. Jo’rayevning 2011 yilda nashr etilgan “O‘zbekiston tarixi” darsligi, B.Eshovning “O‘zbekistonda davlat va boshqaruv tarixi” nomli qo‘llanmasi, Q. Rajabov tomonidan yaratilgan «Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari» nomli monografiya, R. Shamsutdinov va Sh. Karimovlar tomonidan tayyorlangan «O‘zbekiston tarixidan materiallar», «Vatan tarixi» nomli o‘quv qo‘llanmalari, «O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida» nomli darslik, R. Shamsutdinovning «Istiqlol yo‘lida shahid ketganlar» va boshqalar shular jumlasidandir. Ammo, shunga qaramasdan Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan qo‘llanilgan qatag’onlik siyosati bo‘yicha ma’lumotlar tizimli ravishda tadqiq qilinmagan. Shu sababdan, mavzuning dolzarbligidan kelib chiqib, tadqiqot ishini Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan qo‘llanilgan qatag’onlik siyosatini o’rganishga, tahlil qilishga bag’ishladik.

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodika tavsifi.** Dissertasiyada ilmiy bilimlarning obyektivlik, sistemalilik, analiz, umumlashtirish, qiyosiy o’rganish, tarixiylik va mantiqiylilik, tizimli yondashuv kabi metodlarga tayanildi.

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertasiya ishining amaliy ahamiyati** shundaki, tadqiqotdagi asosli materiallardan va ilmiy xulosalardan ilmiy tadqiqot institutarida, ilmiy ishlar yaratishda foydalanish mumkin. Ushbu tadqiqot oliy o‘quv yurtlari talabalari, akademik litsey, kollejlar uchun o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda foydali material sifatida xizmat qiladi. Shuningdek universitetning talabalari uchun dissertasiya mavzusi bo‘yicha maxsus kurslar tashkil qilishda va seminarlar o’tkazishda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini quyidagilar tashkil etadi ya’ni, ilmiy tadqiqotni yozishda o’rganilgan masalalarni baholashda, ilmiy xulosalarga kelishda, taklif va tavsiyalarni ilgari surishda respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov asarlari, nutq va suhbatlari metodologik asos bo’lib xizmat qiladi. Bundan tashqari

tadqiqotning nazariy-metodologik asosini tarixiylik, xolislik prinsiplari tashkil qiladi. Shuningdek O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O’zbekistonning yangi tarixini yaratish to’g’risida”gi, 1996 yil 16 dekabrda “O’zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to’g’risida”gi va 1998 yil 27 iyul Qarorlari dissertasiyaning normativ, huquqiy asosini tashkil qiladi.

**Ish tuzilmasining tavsifi.** Magistrlik dissertasiyasi kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro’yxatidan iborat. Dissertasiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbliji yoritilib, Turkistonda sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan qo’llanilgan qatag’onlik siyosati haqida qisqacha so’z yuritilgan.

Ishning birinchi bobi «Turkiston o’lkasida muxtoriyatning ag’darilishi. Bolsheviklar hokimiyatining zo’rlik bilan o’rnatilishi» deb nomlanib, unda Farg’ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakatining boshlanishi, rivojlanishi, uning o’ziga xos xususiyatlari, shu bilan birga Buxoro amirligi va Xiva xonligida ham sovet hokimiyati va bolsheviklar partiyasiga qarshi qurolli harakatning o’ziga xos xususiyatlari haqidagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Dissertasiyaning ikkinchi bobi Sovet hokimiyatiga qarshi “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” xalq harakatlariga bag’ishlangan bo’lib, unda “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” harakati, ularning harakat dasturi va kurash usullari haqidagi ma’lumotlar eng so’nggi yangi avlod adabiyotlari asosida bayon qilingan

Dissertasiyaning uchinchi bobi “Turkiston o’lkasida qurolli qarshilik harakati qatnashchilari va ularga xayrihoh bo’lgan kuchlarga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag’onlik siyosati” deb nomlanadi. Keyingi yillarda respublikamizda olimlarimiz tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar jarayonida, tariximizning hali ochilmagan qirralari yoritilmoqda. Shu o’rinda, sovet mustabid tuzumiga qarshi milliy istiqlol uchun kurashchilarning olib borgan faoliyatları va ularning fojiali taqdiri ushbu ishlarda o’z aksini topdi. Mazkur bobda Sovet hokimiyatining o’lkada

yuritgan mustamlakachilik, shovinistik va imperiyachilik siyosatiga qarshi kurashgan shaxslardan Nazir To'raqulov, Abdulla Rahimboyev, Turar Risqulov, Fayzulla Xo'jayev, siyosiy partiyalar va tashkilotlardan esa «Sho'royi Islomiya», «Ittihodi taraqqiy», «Birlik» uyushmasi, «Milliy istiqlol», «Turkiston milliy birligi» tashkilotlari haqida so‘z yuritilgan. Ushbu bobda shuningdek Samarqand viloyati hududidan istiqlolchilik harakatida qatnashgan shaxslar haqida ham ma'lumotlar berilgan. So'ngi ma'lumotlarni yig'ishda ustozim, aniqrog'i ilmiy rahbarim ko'magi hamda R. Shamsutdinovning yaqinda nashr qilingan“Samarqand viloyati hududidan qatag'on qilinganlar ro'yxati” nomli kitobining o'rni ayniqsa ahamiyatli bo'ldi.

## **I-BOB: TURKISTON O'LKASIDA MUXTORIYATNING AG'DARILISHI. BOLSHEVIKLAR HOKIMIYATINING ZO'RLIK BILAN O'RNATILISHI**

### **1.1.& Farg'ona vodiysida sovet hokimiyatiga qarshi qurolli qarshilik harakatining boshlanishi**

Bolsheviklar tomonidan Petrogradda amalga oshirilgan Oktabr davlat to'ntarishi Turkiston xalqlarining, shu jumladan, Farg'ona vodiysi aholisining ozodlik va mustaqillikka erishish to'g'risidagi umidlarini oqlamadi. Rossiyadagi bolsheviklar hukumatining rahbarlari Lenin va Stalin tomonidan xalqlarning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqi haqidagi e'lon qilingan dabdabali deklaratasiyalar amalda bir parcha qog'ozdan iborat quruq tashviqot bo'lib chiqdi. Mustamlakachilik zulmi ostida ezilib yotgan xalqlar demokratik va gumanistik prinsiplarga asoslangan milliy davlatchilikni qurish o'miga bu yerda amalda qizil diktatura tomonidan sinfiy-partiyaviy prinsip qo'llanildi. V.I.Lenin hukumati sobiq Rossiya imperiyasining milliy o'lkalarida vujudga kelgan Davlat ko'rinishlarining barcha turlarini qonunsiz deb topdi va bu davlatlar burjua-millatchi hukumati deb e'lon qilindi hamda harbiy kuch yordamida zo'ravonlik bilan bostirildi.

Turkiston o'lka musulmonlarining Qo'qon shahrida bo'lgan favqulodda IV qurultoyida 1917 yil 28 noyabrda Turkiston Muxtoriyati hukumati tashkil topdi va Turkiston Millat Majlisi tuzildi. Afsuski, oradan uch oy o'tar-o'tmas, Turkiston Muxtoriyati hukumati ham yuqorida aytilgan qismatga duchor bo'ldi. Bolsheviklar va so'1 eserlar boshqargan Turkiston Sovnarkomi va Toshkent Soveti uni qonga botirdi.

Oradan chorakam bir asrcha vaqt o'tgan bo'lsada, Qo'qonda sovet qo'shinlari tomonidan amalga oshirilgan qirg'in-barotni bugungi kunga kelib hech qanday vaj bilan oqlab bo'lmaydi. "Turkistonning eng tarixiy va buyuk savdo shahri" bo'lgan, asosan shoirlar, hunarmand va savdogarlar yurti hamda sobiq xonlik poytaxti bo'lgan "Ho'qandi latif" o'mida kuyib kul bo'lgan xarobalarning mung'ayib turishi, o'n mingga yaqin kishining o'dirilishi, boz ustiga yana o'n minglab odamlarning boshpanasiz, oziq-ovqat va kiyim-kechaksiz qolishi, tinch aholi ustiga o'sha 1918 yil fevralida yondiruvchi snaryadlarning otilishi, kommunistlar

partiyasi tomonidan sobiq Rossiya imperiyasining chekka o‘lkalarida leninchastalincha milliy siyosatning amalga oshirilishi qizil imperiyaning dastlabki xuruji edi. Buni Turkistonning o‘scha davrdagi partiya va davlat arboblari T. Risqulov, I. Xidiraliev, N. To‘raqulov, Q. Otaboev, A. Rahimboev, G. Safarov va D. I. Manjaralar ham tan olishgan edi.

Farg‘onadagi musulmon aholisining qo‘llab-quvvatlashiga tayangan istiqlolchi dastalari harbiy harakatlarini faollashtirdilar. Ular qizil askarlar joylashgan shaharlar, aholi punktlari, ob’yektlar, temir yo‘l stansiyalari, neft va ko‘mir konlariga to‘satdan hujumlar uyushtirishardi. Istiqlolchilar dushmanga qarshi kurashda o‘zini oqlaydigan barcha turlaridan foydalandilar.

Istiqlolchilik harakatining avj olishi va uning qurolli kuchlarining shakllanishi hisobiga harbiy harakatlarning faollashganidan tahlikaga tushgan Farg‘ona viloyati ishchi, soldat va krestyan (dehqon) deputatlari Sovetining 1918 yil 9 iyuldagи maxsus farmoni bilan viloyatda “talon-taroj va o‘g‘irliklarga barham berish maqsadida”<sup>7</sup> harbiy holat joriy etildi. Chunki Farg‘onadagi istiqlolchilik harakati kuchayib, vodiydagi sovet hokimiyatini tugatishdek darajaga ko‘tarilayotgan edi. Buni o‘z paytida sovet partiya tarixchisi S. Muraveyskiy ham quyidagicha tan olgandi: “Bosmachilar (*istiqlolchilar - S.S.*) bilan harbiy jihatdan kurashish juda qiyin bo‘lmoqda. Bu paytda Marg‘ilon uezdining haqiqiy xo‘jayini Madaminbekdir. Bosmachilik harakati (*istiqlolchilik harakati- S.S.*) 1918 yil oxiriga kelib sovet hokimiyatiga katta xavf solib turibdi”<sup>8</sup>.

Farg‘ona viloyati harbiy komissari Buravsevning 1918 yil 30 iyulda Turkiston MIK nomiga yuborgan ma’lumotiga ko‘ra, “Qo‘qon uyezdida taniqli qaroqchi Ergashning shaykasi (*Katta Ergash qo‘rboshining guruhi - S.S.*) harakat qilmoqda. Bu yerga tashlangan militsiya va qizil askar kuchlari ojizlik qildi. Namangandan zambaraklar bilan qo‘shimcha qizil askar qismlari yuborildi”<sup>9</sup>.

1918 yil 2 sentyabrda Namangan uezdining To‘raqo‘rg‘on volostidagi Sharq qishlog‘ida qo‘rboshi Katta Ergash o‘zining 2400 yigitdan iborat dastasi va

<sup>7</sup>Ражабов К. Фаргона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Тошкент. Янги нашр. 2015. 89-bet.

<sup>8</sup>Муравейский С. (Лопухов В.). Очерки по истории революционного движения в Средней Азии. – С-24.

<sup>9</sup>Ражабов К. Фаргона водийсидаги истиқлолчилик ҳаракати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Тошкент. Янги нашр. 2015. 90-bet.

qo‘rboshi Qobul bilan birgalikda Sergeyev boshchiligidagi qizil askarlar otryadi bilan jangga kirdi. To‘p va pulemyotlari bo‘lgan qizil askarlar bu jangda mag‘lubiyatga uchrab, orqaga chekindilar<sup>10</sup>.

Arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Katta Ergash qo‘rboshi qo‘l ostida 1918 yil kuzida har birida 20 nafardan 1 800 nafargacha yigit bo‘lgan 70 nafar qo‘rboshi dastasi harakat qildi<sup>11</sup>. Oktabr oyida Katta Ergash qo‘rboshi qo‘s Shinida kamida 15 000 kishi bo‘lgan, shu bilan birga uning qo‘sini tarkibida 2 ta zambarak va 4 ta pulemyot ham bo‘lgan. Katta Ergash qo‘rboshining yigitlari qishloqlarda o‘z nazoratlarini joriy qilishdi. Farg‘ona vodiysining yirik shaharlariga eltuvchi yo‘llar ham ular qo‘lida edi. Mana shunday vaziyatda 1918 yil kuzida Toshkentdan Turkiston Respublikasi XKS rais V.D.Figelskiy va harbiy komissar K. P. Osipov Farg‘ona viloyatiga kelishdi. Figelskiyning o‘zi guvohlik berishicha Katta Ergash qo‘rboshining istehkomlaridan biri joylashgan Xonobod qishlog‘i (Bachqirdan 3,5 chaqirim shimoli-sharqda) 5 soatlik jangdan so‘ng yer yuzidan supurib tashlandi. Istehkommagi 800 mujohiddan atigi 15 nafari tirik qoldi<sup>12</sup>.

Xolxo‘ja Eshon guruhi va O‘sh shahri aholisi boshiga bundan ham og‘ir kulfatlar solindi. Qizil askarlar otryadi jang bilan istiqlolchilarni shahardan surib chiqarishdi. Eski shahar talandi va bozorga o‘t qo‘yildi. Qizil askarlarga dashnoqlar otryadi ham qo‘silgach, “qaytadan talon-toroj, zo‘rlash boshlandi, hatto bolalarni o‘ldirib,tanasini bo‘laklarga ajratishdi. O‘sh shahrining o‘zida 5 kun davom etgan qirg‘in natijasida 2 000 kishi halok bo‘ldi”<sup>13</sup>.

Andijon shahrida joylashgan Salayev otryadi Madaminbekning Eski Marg‘ilonga kelganini eshitib, bu shaharni to‘plardan o‘qqa tutib, butunlay vayron qilib tashladi<sup>14</sup>. “Dashnoqsutyun” armanilar partiyasining a’zolari dashnoqlar tomonidan Farg‘ona vodiysida 1918 yilda qilingan xunrezliklar ichida Chust

<sup>10</sup>Ражабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 91-bet.

<sup>11</sup>Хасанов М. Фергана после Кокандских событий (февраль 1918 - март 1919 года). Т. Fan va turmush jurnali-1990. С-16.

<sup>12</sup>“Наша газета”, 22 декабрь 1918 г.

<sup>13</sup>Ражабов Қ. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 91-bet.

<sup>14</sup> O’sha asar. 91-bet.

shahridagi fojiali voqealar alohida ajralib turadi. Namangan va Qo‘qondan yetib kelgan va aksariyati dashnoqlardan iborat bo‘lgan qizil armiyachilar otryadi shahardagi 1500 kishini - tinch musulmon aholisini so‘yib tashlashdi. Dashnoqlar otryadining komandiri ko‘zlar qonga to‘lib: “Biz bugungi kunni xuddi qimmatbaho olmosdek 20 oy kutdik”, - deb ta’kidladi<sup>15</sup>. Qatag‘on bilan birga shaharda ommaviy ravishda talon-taroj o‘tkazildi. Shuning uchun ham “Ulug‘ Turkiston” ro‘znomasi armanilarga nisbatan nafratini ochiq ko‘rsatib, quyidagilarni yozgan edi: “Turkistonning boshqa yerlarida nechikdir, ammo Farg‘onada armanilarning harakatini ko‘rgan kishi alarni Farg‘onag‘a hokimi mutlaq yoxud Farg‘ona armani millatining hokimiyati qo‘linda deb o‘ylaydi. Ho‘qand ispolnitelniy komitetining raisida bir armanidir”<sup>16</sup>.

1918 yil kuzida Madaminbekning endigina shakllanayotgan armiyasi Andijon atrofidagi janglarda katta jasorat ko‘rsatdi. Ana shunday janglarning birida qizil armiya jangchilari o‘z komandiri Orlovdan ajralib va 170 o‘likni qoldirib, shaharga qochib kirishdi. Madaminbek bu jangda ikkitadan zambarak va pulemyot, ancha miqdordagi miltiqni o‘lja oldi.

Farg‘onadagi istiqlolchilik harakati tarixiga Bozorqo‘rg‘on, Qo‘qonqishloq, Oyimqishloq, So‘zoq qishlog‘i fojialari eng dahshatlilar bo‘lib yozildi. Sovet askarlari, rus krestyanlari va arman dashnoqlari o‘zaro birgalikda 1918 yilning oxiri va 1919 yilning boshida Farg‘ona viloyatidagi bu to‘rtta yirik qishloqni yer yuzidan butunlay supurib tashlashdi, barcha aholi esa qirib tashlandi. Ushbu fojialarda, xususan, Konovalov otryadi juda mash’um rol o‘ynadi<sup>17</sup>.

Istiqlolchilik harakatiga umumiyligi rahbarlik 1918 yilning oxiriga kelib Madaminbek qo‘liga o‘tgach, endi Katta Ergash va uning ta’siridagi ba’zi yirik qo‘rboshilar, xususan, Xolxo‘ja Eshon Madaminbekka bo‘ysunishdan bosh tortdilar. Ahvol shu darajaga borib yetdiki, 1919 yil 14 aprelda «Isfara yonida Madaminbek va Ergash qo‘sishlari o‘rtasida o‘zaro jang bo‘ldi. Bu jangda mag‘lubiyatga uchragan Ergash So‘x qishlog‘iga chekindi.

<sup>15</sup> O’sha asar. 92-bet.

<sup>16</sup> «Улуг‘ Туркистон», № 115. 1918 йил 16 июль.

<sup>17</sup> Ражабов К. Фарғона водийсидаги истиқолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 94-bet.

Shunday qilib, 1919 yilning boshiga kelib Farg‘ona vodiysida istiqlolchilik harakatining ikkita yirik markazi vujudga keldi. Birinchi yirik markaz Madaminbek boshchiligida bo‘lib, viloyatning Skobelev, Andijon va Namangan uyezdlarini qamrab olgandi. Madaminbekning qarorgohi Marg‘ilon shahridan uncha uzoq bo‘lmagan Toshloq yaqinidagi Garbuva qishlog‘ida joylashgan edi. «1919 yil yanvarda Madaminbek qo‘l ostida 16 000 kishidan iborat qo‘sishin bo‘lgan», - deb ta’kidlanadi Farg‘ona viloyati Soveti nomiga 1919 yil 27 yanvarda yo‘llangan o‘ta shoshilinch ma’lumotnomada. Madaminbek yigitlari 1919 yil fevral oyiga kelib, 20 000 kishidan ortib ketdi.

Istiqlolchilik harakatining ikkinchi yirik markazi qo‘rboshi Katta Ergash boshchiligida Qo‘qon uyezdida bo‘lib, Katta Ergashning qarorgohi Yangiqo‘rg‘on volostidagi Bachqir qishlog‘ida bo‘lgan. Uning asosiy o‘rinbosari qo‘rboshi Eshmat qirg‘iz edi. To‘ychi, Umar, Hamdam (Mavlonboyev) uning eng obro‘li qo‘rboshilaridan hisoblangan. O‘sh uezdida Katta Ergash qo‘rboshining ta’siri nisbatan kuchli bo‘lgan. Asosan qirg‘iz mujohidlari harakat qilgan Oloy vohasida Muhiddinbek va Jonibek Qozi boshqa qo‘rboshilarga rahbarlik qildilar.

1919 yil 24 yanvarda Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar guruhi Eski Marg‘ilon shahriga hujum qildilar. Ming kishidan ortiq madaminbekchilar shaharni ikki kun o‘z qo‘llarida saqlashdi. Madaminbek shahar markazidagi O‘rda Tagi maydonida turib, xalqning vakillari bilan uchrashdi va maslahatlashdi. Bu g‘alabadan ruhlangan Madaminbek 18 fevralda Farg‘ona viloyatining markazi Skobelev shahriga hujum qildi. Qizil askarlar bilan shahar ko‘chalarida qizg‘in janglar bo‘ldi. Bek askarlari shahardagi viloyat qamoqxonasiga hujum qilib, u yerda hibsda yotgan 200 nafar safdoshlarini ozod etib, o‘zlari bilan olib ketdilar.

Istiqlolchilar qo‘sini butun vodiyya faol jang harakatlarini olib borishdi. 1919 yil 20 fevralda 1 500 kishidan iborat mujohidlar Namangan uezdining eng katta shaharlaridan biri bo‘lgan Chustni egalladilar. Skobelevdan qo‘sishimcha qizil askar kuchlari kelgan, 28 soatlik janglardan so‘ng istiqlolchilar shaharni tark etdilar. Ochig‘ini aytganda, hech bir qo‘rboshi o‘sha paytda Madaminbekchalik o‘zini ruslarga yaqin tutmagan. Lekin Madaminbek o‘risparast emas edi. U uzoqni

ko‘ra biladigan dono siyosatchi va mohir diplomat bo‘lgan. Bek tomonidan rus zabit va askarlarini o‘z qo‘s Shiniga chorlashning jiddiy asoslari bor edi. Ular bilan yonma-yon jang qilish o‘z yigitlari uchun maktab bo‘lishini, kelgusidagi mustaqil musulmon armiyasini tashkil etishda muhim rol o‘ynashini Madaminbekchalik chuqur tushungan boshqa birorta sarkarda yo‘q edi.

Madaminbek tomonidan 1919 yil 27 fevralda Skobelev shahridagi aholiga qarata xitobnama chiqarildi. Ushbu muhim hujjatda Madaminbek, “bolsheviklar mish-mish tarqatib, go‘yoki u ruslarni o‘ldiryapdi” degan gaplarning asossiz ekanligini ko‘rsatib, vodiydagi rus aholisiga murojaat qilib, “o‘z armiyasiga qo‘shilgan har bir oddiy askarga 1 000 rubldan, zabitlarga esa 2 000 rubldan maosh to‘lajagini, ularni oziq-ovqat bilan ta’minlashini” e’lon qildi. Bu paytda sovet hokimiyati Farg‘ona vodiysida amalda faqat yirik shaharlardagina saqlanib qolgan edi. Vodiy qishloqlari asosan Madaminbek va unga qarashli qo‘rboshilar qo‘lida bo‘lgan. U tinch aholini harbiy harakatlar paytida shaharlarni tark etishga chaqirdi. Bu insonparvar sarkardaning ortiqcha qon to‘kilishga yo‘l qo‘ymaslik uchun urinishi edi.

Madaminbekning 1919 yil 11 martda Farg‘ona fronti qo‘s Shinlari qo‘mondoni M.V.Safonov nomiga yo‘llagan maktubi ko‘p jihatdan xarakterlidir. Madaminbek ushbu maktubida istiqlolchilar qanday maqsad yo‘lida kurashayotganliklarini, bu harakatning mohiyati va “bosmachi” deb kimni aytish lozimligini yaqqol ko‘rsatib beradi: “Gapning lo‘ndasini aytsam, bizning xalqimiz o‘z turmushida Karl Marks yoki bolsheviklar Dasturini qo‘llab ko‘rish darajasida hali ongi rivojlanmagan... Turkistonda bo‘lsa, yana qaytaraman, Sizlar qiladigan ish yo‘q va bu yerda zo‘ravonlik bilan dushmanlar orttirasiz, xolos... Siz federatsiya tuziladi deb e’lon qildingiz, siz xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini e’lon qildingiz, shunday ekan, nega siz ularni bizga bermaysiz?! Bizga ko‘nglimiz tusagancha yashashga imkon bering, mayli, siz e’lon qilgan shiorlarga biz amal qilamiz,

bizlarga o‘zimiz xohlagandek boshqaruv usulini tanlashga imkon bering, axir, biz -musulmonlar ko‘pchilikni tashkil qilamiz-ku. Ammo zo‘ravonlik qilmang...<sup>18</sup>.

Chuqur dard-alam bilan yozilgan ushbu nomada Madaminbek o‘zlarini proletariat himoyachisi va kapitalistlarga karshi kurashayotgan qilib ko‘rsatayotgan qizil armiya jangchilarini va komandirlari haqiqiy bosqinchilar to‘dasi va kapitalistlarga aylanganliklarini ham yozadi: “...Otryad boshliqlarining bittasidan 20 million rublik mol-mulk topilgan, sof bolshevistik-kommunistik bosmachilar to‘dasi bizning kambag‘al, yarim och musulmonlarimizdan so‘nggi ko‘rpa va kigizlarini tortib olishdi”<sup>19</sup>.

1919 yil aprel oyida Namangan va Qo‘qon atroflarida Madaminbek lashkarlari bilan qizil armiya qismlari o‘rtasida shiddatli janglar bo‘ldi. Bu janglarda Madaminbek yigitlari g‘olib chiqdilar.

“Madaminbek turli siyosiy oqimdagি kishilarni birlashtira oldi. Shuning uchun ham hech qaysi qo‘rboshi uningchalik kuch-qudratga ega bo‘lmagan edi”<sup>20</sup>, - deb o‘sha paytdayoq yozgan edi uning g‘oyaviy muxoliflaridan biri. Madaminbek Shermuhammadbek, Xolxo‘ja Eshon, Mahkam Hoji kabi yirik qo‘rboshilarni o‘z qo‘l ostiga birlashtirish bilan chegaralanmay, vodiydagи K. Monstrov boshliq krestyanlar armiyasi bilan hamkorlik qilish yo‘llarini ham izladi. Madaminbek ular bilan til topishishga intildi. Krestyanlar armiyasi o‘z navbatida Madaminbekni vodiydagи yagona qobiliyatli va zamonaviy sarkarda sifatida tan oldi. Armiya qo‘mondoni Monstrovning keyinchalik tan olishicha, «Uch oydan beri bosmachilarga (*istiqlolchilarga – S.S.*) qarshi kurashib, shu narsaga amin bo‘ldimki, Madaminbek lashkari mohiyatiga ko‘ra qaroqchi ham, talonchi ham emas. U ma’lum bir tartibot o‘rnatish tarafdori. U aholiga bergen va’dalari ustidan chiqmoqda. Rus krestyanlari ham Madaminbekka o‘z xaloskorlari sifatida xayrihohlik bildirmoqda”<sup>21</sup>.

<sup>18</sup> Ражабов К. Фаргона водийсидаги истиқолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 98-bet.

<sup>19</sup> O’sha asar. 98-bet.

<sup>20</sup> Кувшинов В. Ферганский район. С-260.

<sup>21</sup> Алексеенков П. Крестьянское восстание в Фергане. Т-1930. С-39

Sovet hokimiyati tomonidan 1919 yil 4 iyunda qabul qilingan Turkistondagi g‘allani monopolizatsiya qilish va 1919 yil 25 iyuldagи xususiy savdoni taqiqlash to‘g‘risidagi qarorlar krestyanlar armiyasini o‘z ittifoqchilari bo‘lgan bolsheviklardan yuz o‘girib, istiqlolchilar bilan birlashishga olib keldi. Ayni vaqtda Madaminbek ham ular bilan hamkorlik qilish yo‘llarini qidirayotgandi. Chunki krestyanlarning bekami-ko‘st qurollangan 10 ta polkdan iborat taxminan 4000 kishilik armiyasi vodiyyadagi urush harakatlariga ancha ta’sir ko‘rsatayotgan edi. Ikkala tomon vakillari dastlab 1919 yil 20 iyunda uchrashsalarda, o‘rtada shartnomalar imzolanmadı. Shunday bo‘lsada, “10 iyulda Jalolobod, Qurshob va O‘sh krestyanlari Madaminbekka qo‘schildilar va ular tomonidan Andijon o‘rab olindi”. Bu paytda Madaminbek va Monstrov o‘zaro bir necha marta uchrashdilar. Bir necha kunlik muzokaralardan so‘ng, 1919 yil 2 sentabrda musulmon armiyasining Qo‘mondoni Muhammad Aminbek Ahmadbek o‘g‘li bilan krestyanlar armiyasining qo‘mondoni K.Monstrov o‘rtasida o‘zaro shartnomalar imzolandi. Birlashgan armiyaning bosh qo‘mondoni qilib Madaminbek tayinlandi. Qo‘rboshilarga rahbarlik qilish uning eng yaqin yordamchisi Soli Mahdumga yuklatildi, Belkin esa shtab boshlig‘i lavozimini egalladi<sup>22</sup>.

Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati 1919 yil yozining oxiri va kuzida o‘zining eng yuqori cho‘qqisiga chiqdi. Madaminbek boshchiligidagi islom qo‘sinchilari safiga krestyanlar armiyasining qo‘shilishi vodiyya sovet hokimiyatini ag‘darish uchun real kuch edi. Sentabrning dastlabki kunlarida Madaminbek lashkarlari Jalolobod shahrini egallahdi. Qurshob posyolkasi yonidagi janglarda sovet armiyasi qismlari katta mag‘lubiyatga uchrab, O‘sh shahriga chekindi. O‘sh - Farg‘onaning hayot-mamotini belgilaydigan shahar bo‘lib, u harbiy-strategik jihatdan juda qulay o‘rinda joylashgan edi. Shahar Farg‘ona vodiysini, umuman, Turkiston Respublikasini, bir tomondan, Xitoy, Afg‘oniston, Hindiston, boshqa tomondan esa Buxoro bilan bog‘laydigan yo‘llarning ustida edi. O‘sh shahri “jahon tomi” - Pomir ro‘parasida bo‘lib, undan G‘ulcha va Ergashtomdag‘i chegara punktlariga olib boradigan yo‘l o‘tardi. 8 sentabrda bir yarim sutkalik qizg‘in

---

<sup>22</sup> Ражабов К. Фаргона водийсидаги истиқлолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 100-bet.

janglardan keyin O'sh garnizoni taslim bo'ldi, qamoqxonada yotgan mahbuslar istiqlolchilar tomonidan ozod qilindi. Madaminbek boshchiligidagi armiya tantana bilan shaharga kirib keldi. O'sh shahrida 9 sentabrda bo'lgan katta mitingda Madaminbek yorqin nutq so'zлади. Mitingda qatnashganlarning guvohlik berishicha, Madaminbek irod etgan nutqda istiqlolchilik harakatining siyosiy mohiyati, istiqlolchilarning maqsadlari olib berildi<sup>23</sup>.

Madaminbek qo'shinlari 13 sentabrda Eski Marg'ilon shahrini egalladilar. Shu bilan birga vodiyyadagi eng yirik strategik shahar Andijonni qamal qilishga kirishdilar. Bir oy davomida Farg'ona vodiysini larzaga keltirgan Madaminbek boshchiligidagi musulmonlar qo'shining hujumi pirovardida mag'lubiyat bilan tugadi.

Ilk mag'lubiyat alamini tatigan Madaminbekning irodasi sinmadi. 1919 yil 22 oktabrda Pomirning Ergashtom (Irkeshtam) ovulida bo'lgan anjumanda *Madaminbek* boshchiligidagi *Farg'ona Muvaqqat Muxtoriyat Hukumati* tuzildi. Hukumat tarkibiga 16 musulmon va 8 rus, hammasi bo'lib 24 kishi kiritildi<sup>291</sup>. Madaminbek hukumat boshlig'i bo'lishi bilan bir qatorda bosh qo'mondon qilib ham tayinlandi. 1919 yilning kech kuziga kelib «Madaminbek qo'l ostida 30 mingga yaqin yigit qizil armiyaga qarshi istiqlol janglarini olib bordilar. Bu paytda Shermuhammadbekda 20 ming yigit, Ergash qo'rleshida 8 ming yigit bo'lgan. Aynan ushbu uchta lashkarboshi vodiyyadagi jangovar harakatlarni yo'naltirib turdilar.

1919 yil oktabrning so'nggi kunlarida Farg'ona vodiysidagi barcha yirik qo'rleshilar Andijon uezdidagi Oyimqishloqda to'planishdi. Istiqlolchilik harakati tarixidagi ushbu eng yirik qurultoyda, arxiv hujjatlarining dalolat berishicha, Farg'ona vodiysida harakat qilayotgan 150 tacha qo'rushi Dastalari to'rtta yirik lashkarboshi: Madaminbek, Katta Ergash, Shermuhammadbek, Xolxo'ja Eshon qo'mondonligi ostida birlashtirildi. Qurultoyda islom qo'shinarining Oliy bosh qo'mondoni – "Amir-al-muslimin" qilib Madaminbek qayta saylandi.

---

<sup>23</sup>O'sha asar. 101-bet.

Oldindan shuni ta'kidlash kerakki, sovet hokimiyati idoralari o'zlarini bergan va'dalarga amal qilmadilar. Taslim bo'lgan qo'rbohilarning aksariyati bolsheviklar tomonidan o'ldirildi, qamoqxonalarga tashlandi yoki noaniq vaziyatlarda bedarak yo'qoldilar. Arxiv hujjalarning dalolat berishicha, musulmon polki joylashgan Oxunjon otryadi kazarmasida yashash uchun hech qanday sharoit bo'lmashtirilmagan. Yigitlarga bemaza ovqatlar pishirib berilgan, ularning kiyim-kechak va choyshablari almashtirilmagan. Sovet qo'mondonligi musulmon polki o'rtasida zimdan fahsh ishlarni qo'llab-quvvatlagan. Natijada sovet hokimiyati tomoniga o'tgan aksariyat qo'rbohilar va ularning yigitlari yana istiqlolchilar safiga qaytib kelishdi.

Qizil armiya qismlari Farg'ona vodiysidagi istiqlolchilik harakatiga qarshi 1920 yilning boshidan boshlab Frunze rahbarligida kurash olib bordilar. Turkiston fronti tarkibiga Sovet Rossiyasidan keltirilgan 1, 4, 11-armiyalar kiritildi. 1919 yil 15 avgustda Turkiston fronti ixtiyoroda 71 751 jangchi, 985 ta pulemyot, bir necha yuzta to'p bo'lgan. Bungacha Turkiston Respublikasidagi Aktyubinsk, Zakaspiy, Yettisuv, Farg'ona frontlari ixtiyoroda 38 625 jangchi, 127 ta pulemyot, 93 ta to'p bor edi. 1919 yil mart oyida faqatgina Farg'ona frontida 3000 kishidan ortiq sobiq harbiy asirlar internatsional (baynalmilal) otryadlari tuzilib, qizil armiya tomonida turib kurashdilar. 1919 yil yozida ularning soni 5000 kishiga yaqinlashdi.

Demak, Turkiston frontidagi butun qo'shinlar soni 1919 yil avgustning oxiriga kelib 115 376 jangchidan iborat bo'lib, ular qo'l ostida 1 112 ta pulemyot, bir necha yuzta to'p, o'nlab samolyotlar bo'lgan. B.Hayitning yozishicha, sovet hukumati Frunze ixtiyoriga 120 mingdan 160 mingtagacha soldat ajratdi<sup>24</sup>. Ushbu katta miqdordagi bosqinchilar armiyasining asosiy qismi Farg'ona vodiysiga tashlandi. Frunzening asosiy maqsadi Farg'onani, shu bilan birga, Turkistonni rus nayzasi yordamida ikkinchi marta zabit etish edi. Turkiston Respublikasining davlat rahbarlaridan biri Q. Otaboevning e'tiroficha, "bir paytning o'zida Farg'onaga kamida 30 mingtagacha kishidan iborat qo'shin tashlandi. Shaxsan V. I. Leninning ko'rsatmasi bilan Farg'ona vodiysiga Volga bo'yidan 14000 kishilik Qozon tatar

---

<sup>24</sup> Хайит Б. Босмачилик, Т-1992. 126-bet.

polki keltirildi. Farg‘ona frontida jang harakatlarini faollashtirish maqsadida Namangan, Andijon, Qo‘qon kabi uchta jangovar guruh tashkil qilindi”<sup>25</sup>.

1919 yil 5 noyabrga o‘tar kechasi Farg‘ona fronti qo‘mondoni Sokolov boshchiligidagi qo‘shinlar Skobelev uyezdidagi Garbuva qishlog‘iga (Marg‘ilondan 12 chaqirim shimolda) hujum qildi. Ikki ming kishidan iborat istiqlolchilar mardonavor jang qildilar. Front qo‘mondoni Bregadzening e’tirof etishicha, istiqlolchilar “yayov holda hujumga o‘tishdi, ammo bizning pulemyot va zambaraklarimiz o‘qi ostida butunlay qirilib ketishdi”. 5 noyabr kechqurungacha davom etgan janglar natijasida 300 yigit halok bo‘ldi. 8 noyabrdida Skobelev uezdida sovet aeroplani istiqlolchilar ustiga 4 ta bomba tashladi.

1919 yil 5 noyabrdida qizil armiya qismlari bilan bo‘lgan uch kunlik tinimsiz janglardan so‘ng Madaminbek boshchiligidagi istiqlolchilar qo‘shini Oyimqishloqdan (Andijondan 30 chaqirim sharqda) Bozorqo‘rg‘on qishlog‘ining shimoliga chekindilar.

Fevral oyida qizil armiyaning istiqlolchilarga qarshi hujumlari tobora kuchaydi. Turkiston fronti qo‘mondonligi «Madaminbek butunlay tor-mor qilinmaguncha ta’qib etilsin» mazmunidagi buyruqni Farg‘onadagi qismlarga jo‘natdi. Madaminbek va Shermuhammadbek boshchiligidagi istiqlolchilarga qarshi 1920 yil fevral oyida 1900 piyoda askar, 1600 otliq askar, 14 ta pulemyot va 8 ta to‘p bilan Garbuva-Shahrixon-Qoratepa atrofida hujumga o‘tdilar. Qizil askarlarning hujumini o‘nlab samolyot, bronepoyezd, bronemashinalar quvvatlab turishdi<sup>26</sup>. Natijada fevral oyining oxirlarida Shermuhammadbek Oloy vohasiga chekinishga majbur bo‘ldi. Madaminbek va Xolxo‘ja Eshon qo‘shinlari ham katta mag‘lubiyatga uchradi. Shu sababli Xolxo‘ja Eshon 24 fevralda 450 yigit bilan sovetlarga taslim bo‘ldi. Fevral oyining oxirida Garbuvani qizil armiya jangchilari ishg‘ol qildilar.

Harbiy tashabbus qo‘ldan ketganligi, har qadamda xiyonat, ta’qib qilayotganini ko‘rgan hamda mag‘lubiyatlar alamini tortayotgan Madaminbek

<sup>25</sup>Ражабов К. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 104-bet.

<sup>26</sup>O’sha asar. 108-bet.

vaqtdan yutish uchun Farg‘ona vodiysidagi qizil armiya qo‘s Shinlari qo‘mondonligiga yarash muzokaralarini boshlashni taklif qildi. Madaminbek o‘z jonini o‘ylab emas, balki Farg‘onadagi yuz minglab begunoh kishilarning qoni to‘kilmasligi uchun sulk tuzishga rozilik bildirdi. Turkiston fronti qo‘mondoni M. Frunzening fikrlari esa bo‘lakcha edi. Toshkentda turib vodiydagи jang harakatlarini boshqarayotgan Frunze uchun asosiy g‘anim yolg‘iz Madaminbek emas, balki vodiydagи o‘n minglab istiqlolchi yigitlar va yuz minglab musulmonlar edi.

Madaminbek fikricha, yarash bitimining asosiy shartlaridan biri Turkistonda sud va qonunchilik ishlarini tashkil qilishda shariat asoslarini saqlab qolish, ikkinchidan, musulmon armiyasini o‘zida qoldirish edi. Millat shon-sharafi, Turkiston ozodligi uchun kurashga qobil jangovar armiyani qanday usul bilan bo‘lsada saqlab qolish o‘sha paytdagi yagona to‘g‘ri yo‘l edi. «Farg‘onadagi ozodlik kuchlari, bir tomon dan, ocharchilikka uchragani, chetdan madad bo‘lmagani, ozodlik kuchlari qo‘lidagi qurollar zamonaviy asr tig‘iga bas kelishi qiyinligi, shuningdek, Markaziy Rusiyadan kelgan 150 ming kishilik qo‘s Shin bilan kurashish qiyinligini inobatga olib, Madaminbek fevral-mart oylarida sovet hukumati bilan muzokara olib borishga majbur bo‘ldi.

Taslim bo‘lgan qo‘rboshi guruhlari o‘rnida sovet armiyasi tarkibida 1920 yil fevralda Oxunjon Nurmuhamedov, Mahkam Hoji (Mirzarahimov), To‘ychi va Mulla Ergash boshchiligida 4 ta otliqlar polki tuzildi. Keyinchalik «Madaminbek yigitlari hisobiga» Turkiston fronti qo‘mondonining 1920 yil 30 apreldagi buyrug‘iga binoan «Marg‘ilon o‘zbek otliq polki» tashkil qilindi. Polk komandiri qilib Madaminbek, uning o‘rinbosari qilib esa qo‘rboshi Soli Mahdum va voyenkom Antonov tayinlandilar.

Turkiston komissiyasi ko‘rsatmalari asosida harakat qilayotgan Turkiston fronti qo‘mondonligi va Farg‘onadagi rahbar xodimlar sovetlarga taslim bo‘lgan qo‘rboshi va ularning yigitlari orqali istiqlolchilik harakati saflarini parchalashga, mujohidlarga qarshi kurash olib borishga harakat qildilar. Kechagina Farg‘ona

vodiysidagi istiqlolchilik harakatining tan olingan dohiysi bo‘lib turgan Madaminbek endi qiyin ahvolda qoldi. Xususan, Madaminbekning nufuzi kurashni davom ettirayotgan istiqlolchilar o‘rtasida tushib ketdi. Sovet hokimiyati rahbarlari ham uning samimiyligiga shubha bilan qarashdi. Madaminbekning Marg‘ilon yaqinidagi Toshloq shaharchasida joylashgan qarorgohi sovet chekistlariga to‘lib ketgan edi. Maxfiy xizmat xodimlari bo‘lgan ushbu josuslar Madaminbekning har bir qadamidan Farg‘ona va Toshkentdagи harbiy qo‘mondonlarni xabardor qilib turishardi. Bu paytda Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilarning eng yirik namoyandasи Shermuhammadbek edi. Sovet hokimiyati Madaminbekdan kechagi maslakdoshi, ayni paytda esa harbiy raqibi va g‘oyaviy muxolifiga aylangan Shermuhammadbek bilan muzokaralar olib borishni talab qilayotgandi. Shermuhammadbekning o‘zi ham Madaminbekka maktub yuborib, muzokaralar uchun shaxsan uni o‘z qarorgohiga taklif qiladi. Arxiv hujjatlarida qayd qilinishicha, Madaminbek 260 kishi bilan Shermuhammadbek va Xolxo‘ja joylashgan tog‘ orasiga jo‘naydi.

Madaminbek Isfarasoy qirg‘og‘idagi Uchqo‘rg‘on qishlog‘ida hozirgi Qirg‘izistonning Qizilqiya degan joyida asosiy kuchlarni qoldirib, o‘zi bilan 10-12 kishini oladi va Shermuhammadbek huzuriga boradi. Shermuhammadbek va Xolxo‘ja esa Madaminbekni asir oladilar. Azaldan Madaminbek bilan yovlashib yurgan Xolxo‘ja Eshon uni Qorovul qishlog‘ida 14 mayda o‘ldirtiradi<sup>27</sup>.

Sovet qo‘mondonligi «Madaminbekning o‘limi bilan Turkiston Muxtoriyati va milliy mafkura uchun kurash ham o‘ladi, degan xomxayol fikrga kelishgandi. Madaminbekni o‘ldirgan kimsa Xolxo‘ja Eshon qo‘l ostidagi Soki jallod bo‘lsada, aslida uning haqiqiy qotili bolshevikcha rejim rahbarlari edi. Bu haqda Alixonto‘ra Sog’uniyning “Turkiston qayg‘usi” asarini varaqlab ko‘rganimizda yaqqol ishonch hosil qilamiz. “...Bularning(istiqlolchilar nazarda tutilmoqda) ichida bir oz bo‘lsa ham zamonasiga tushungan, xalq oldida hurmati bor, ishonchligi ortgan Madaminbekni o‘rtadan ko‘tarish zarur bo‘ldi. Qandaydirki, bu masalani qurol

<sup>27</sup>Ражабов К. Фарғона водийсидаги истиқлолчилик харакати: моҳияти ва асосий ривожланиш босқичлари. Т. “Янги нашр”- 2015. 113-bet.

kuchi bilan emas, balki makr-xiyla orqalik hal qilishga kirishganlikdan tubandagi moddalarni qabul qilgan bo'lib, u bilan bitim tuzmish edilar:

1.Farg'ona muxtoriyatini tasdiqlash; 2.Sharoitga qarab o'n mingdan qirk minggacha Ma daminbek qo'l ostida milliy askar saqlash va bularning qurol-yaroxlarini markaziy xukumat tomonidan ta'minlash; 3.O'quv-o'qituv ishlari yerlik hukumat ixtiyorida bo'lib, o'z ona tillarida yurg'azish; 4.Musulmonlarning diniy va o'zaro da'vo ichki ishlari butunlay o'z qo'llarida bo'lish va shariat bo'yicha amalga oshirish.

Mana shular kabi eshitishga ancha foydalik ko'ringan ishlar bilan kelishim tuzilgan so'nggida (1920 yillar) Madaminbek Toshkentga chaqiriladi. Uning kelish surmati uchun, chet davlatdan kelayotgan hukmdorlarga qilgandek, ko'chalar bezatilgan holda tantana bilan qarshi olinib, katta marosim o'tkazilmish edi. Buni ko'rgan musulmonlarning ruxlari ko'tarilib, tarixiy an'analarini qo'zg'olganlikdan milliy ozodlik umidi bilan milliy hukumatlarini eskarmish(eslamish) edilar. Bundan foydalangan Vatan bosqinchilari o'zlarining oldindan o'ylab qo'ygan makr-hiyalilik rejalarini tezlik bilan amalga oshirish siyosatiga kirishdi. Yo'q esa har ikki tomon rizoligicha to'xtam qilingan bitim moddalarini xalqaro qonun bo'yicha amalga oshirishlari lozim edi.

Bunga qaramay bekka iltimos qilgan bo'lib, Farg'onada qolgan Ko'rshermat, Xolxo'ja kabi qo'zg'olonchilarni ham Toshkentga keltirishni unga taklif qildilar. Bu ham "Ular mening so'zimdan chiqmaydi" deb, ishonganlikdan ehtiyyot yo'lini o'ylamay to'g'ri bular oldiga kelmishdir. Xolbuki, makkorlar allaqachon o'z qullari bilan chuqurlar tayyorlab qo'ymish edilar. Shundoqki, "Mana, sizlar ishongan Madaminbeginglar kofirga sotilib, o'z foydasi uchun sizlarni tutib bermoqchi bo'ldi. Bu ishni bajarish vazifasi unga topshirilmishdir. Yaqin orada kelib qolsa, shunga qarab chora ko'rish kerak", degan yolg'on fitna so'zlarni tarqatib, u ongsiz qorabotirlarni ishontirib turgani ustiga, Madaminbek ham kelmishdir. Haqiqatan ham ko'krak kerib ot chopishdan boshqa hech ishni bilmagan, maslaksiz qora botirlar ko'zлari unga tushishi bilanoq gapirtirmasdan

“Хоъ, сен бизларни кофир болшевиклар со’лига бермоқчимисан?” — деб уни о’лдирадilar.

Bu ulug’ jinoyatni bajarishgan so’nggida ozu ko’п kutilgan umidlar uзilib, ko’з тutilган ishlar butunlay o’zgardi. Bosqinchilarga xaybat ko’rsatgan Madaminbekning qo’zg’olonchilar qo’lida o’lishi, musulmonlar uchun har holda foydalik ko’ringan yuqorigi bitimning buzilib ketishi kelajakda kutilgan yerlik xalqlar manfaatiga qattik zarba bermish edi. Bu fojialik voqeadan Vatan bosqinchilari o’zlari tilagandek ikki taraflama foydalanib xiyonat maqsadlariga erishdilar”<sup>28</sup>.

”Чunki Madaminbek oradan ko’tarilgach, ertasi kuniyoq bolsheviklar tomonidan istiqlolchilardan shafqatsiz o’ch olishga kirishildi. Qurolli harakat qatnashchilariga nisbatan ta’ziq-taqib yanada kuchaydi. Shermuhammadbek 1923 yilning boshlarida ukasi Nurmuhhammadbek bilan birga bir guruh muxojirlarni olib Afg’онistonga o’tib ketishga majbur bo’ldi. Shermuhammadbekning Afg’онistonga o’tib ketgan paytdan boshlab Sho’rolar uni yomon otliq qilish uchun siyqasi chiqib ketgan, biroq sinovdan o’tgan, iflos usullarni qo’llaydilar.

Boymirza Hayit Shermuhammadbekning Afg’онistondagi hayotini o’z asarlarida yoritib o’tgan. „Ruslar afg’он hukumatidan Shermuhammadbek va boshqa qo’rboshilarni sovet ittifoqiga qaytarib berishni talab qiladilar. Afg’он hukumati bu talabni rad etadi. Sovet ruslarining qistovi va nayrangiga ko’ra Shermuhammadbek, Nurmuhhammadbek va Afg’онistonda qo’nib topgan boshqa qo’rboshilar ushlanib, ikkinchi jahon urushi tugagunga qadar (olti yil chamasi) qamoqda saqlandilar. Urashdan so’ng ular ozod etildilar. ...”<sup>29</sup>

Shermuhammadbekning keyingi hayotini puxta o’rgangan mashhur olim Rustambek Shamsiddinov esa shunday yozadi:

„ ... Afg’онistonda Omonullaxon, so’ngra Nodirxon podshoxlik qilgan davrda Shermuhammadbekka Afg’онistont hukumati Sho’rolar bilan aloqani uzmaslik siyosatini olib borardi. Har holda, bu hukumat Shermuhammadbekka bir ming afg’oni oylik berib turdi. Yer ham berdi. Shermuhammadbek keyin bu

<sup>28</sup> Алихонтўра Соғуний. Туркистон қайғуси(биринчи китоб). Т. “Шарқ”нашриёти-2003. 73-74-bet.

<sup>29</sup> Boymirza Hayit. Yorug’ kunlar orzusida. „Jahon adabiyoti”. 1998 yil. 11-son. 34-bet

yerlarni hukumatga qaytargan. 1951 yili Afg'onistonidagi ota yurtlik turkistonlik muhojirlar qon-qardosh Turkiyadan boshpana oldilar. Shermuhammadbek va ukasi Nurmuhhammadbek bunda bosh-qosh bo'ldilar. Ular Pokistonning Peshavor shahrida turib vatanparvarlarni Turkiyaga kuzatdilar. Jami 1111 kishi Turkiyaga jo'natildi. Shermuhammadbek vaqtincha Peshavorda, Nurmuhhammadbek Karachida yashagan. Ular Sharqiy Turkistondan ham ko'plab vatandoshlarni Turkiyaga jo'natish bilan mashg'ul bo'ldilar. ..."<sup>30</sup> Shermuhammadbekning Farg'onadagi oilasi haqida dastlab yetarli ma'lumotlar uchramaydi. Faqat ba'zi manbalardagi Shermuhammadbek Shohimardonlik Muzaffarxon Mingboshiga kuyov bo'lganligi eslatiladi, ammo izlanishlar behuda ketmaydi.

Nihoyat, 1955 yili Shermuhammadbek o'z oilasi bilan Turkiyaga keladi va Adana shahrida umrining oxirigacha yashaydi. 1970 yil 10 martda Shermuhammadbek olamdan o'tadi. Uning dafn marosi juda katta hurmat, ehtirom, qayg'u bilan o'tkaziladi. Turkiya hukumatidan, dunyoning boshqa joylarida yashayotgan vatandoshlardan, jamoat va ilm arboblaridan vakillar, taziyaga keldi. Bu qahramon sharafiga atalgan marsiyalar radio to'lqinlari orqali bir necha kun berib turildi. Uning tobuti butun Adana shahri bo'ylab Turkiya va Turkiston muhtoriyati bayroqlari va mungli musiqa sadolari ostida qabristonga eltib qo'yildi. ..."<sup>31</sup>

Shunday qilib, Farg'onadagi istiqlolchilik harakatining birinchi bosqichi tugadi. 1917-yilda muxtoriyatning ag'darilishi bilan boshlanib 1924 yilgacha davom etgan bu bosqichda sovet hokimiysi Farg'ona vodiysida omonat turdi. Istiqlolchilar o'zlarining fidokorona kurashlari bilan qizil askarlarning tinkasini quritishar, vodiydagi vaziyatni boshqarib turishardi. Dastavval Katta Ergash qo'rishi, so'ngra esa Madaminbek rahbarligidagi mujohidlar armiyasi erk va mustaqillik uchun olib borgan kurashlarini aslo bo'shashtirmadilar. Farg'ona vodiysiga 1920 yilning boshida tashlangan katta miqdordagi harbiylar kuchlar nisbatini sovet armiyasi tomoniga burib yubordi. «Qizil imperiya»ning

<sup>30</sup> Shamsutdinov Rustam. Jasoratga to'la hayot sohibi. Andijon-1991 y, 64-bet

<sup>31</sup> Mansurxo'ja Xo'jayev. Shermuhammadbek Qo'rishi. T.: „Sharq”-2008 y, 266-bet

tashviqotchi mashinasи benuqson ishlab, o‘zining havoyi va dabdabali shiorlari bilan istiqlolchilar qatoriga dastlabki rahnani solishga ham muvaffaq bo‘ldi. Milliy ruhning birlashishi qiyin kechdi. Millat orasidan chiqqan yangi tuzum siyosatdonlari bilan harbiy rahbarlar hamkorligi shirin orzuligicha qolib ketdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, Farg‘ona xalqining istiqlol janglari 1920 yil bahori va yozida ham aslo tinmadi.

## **1.2.& Buxoro amirligi va Xiva xonligida sovet hokimiyyati va bolsheviklar partiyasiga qarshi qurolli harakatning o’ziga xos xususiyatlari**

Turkiston o‘lkasida bo‘lgani kabi siyosiy g‘aflat uyqusida qolgan va sho‘rolar tashviqotiga aldangan Buxoro xalqining tez orada ko‘zlari ochildi va milliy istiqlol

kurashiga otlandi. Ammo sho‘rolarga qarshi istiqlol uchun kurashga otlangan kuchlarda milliy ahillik va birlik yo‘q edi. Ular katta katta bo‘lsalarda, uyushmagan, tarqoq va hech qanday dasturiy yo‘riqqa ega emas edilar, ularning g‘oyatda ayyor, tajribali hamda pixini yorgan sho‘rolar va komfirqadek raqibga qarshi tajribasi yo‘q edi. Bundan mustamlakachi sho‘rolar ustalik bilan foydalandilar.

1920 yil 3 noyabrda Komintern Turkiston byurosining majlisi bo‘ldi. Uni V.V.Kuybishev boshqardi. Majlisda “Buxoro communistlari firqasidagi o‘zaro munosabatlar va firqaning siyosiy yo‘li to‘g‘risida”gi masala muhokama qilindi. Ushbu masala bo‘yicha qabul qilingan qarorda Turkiston byurosi e’tiborni Buxoroda “agrар inqilobni o‘tkazishga va inqilobiyl qo‘mitani shu tomonga burishga”<sup>32</sup> qaratish lozimligini ta’kidladi. Bu yo‘lni RKP (b) MQsi ma’qulladi. Jumladan, RKP(b) MQsi 1921 yil 26 yanvardagi Plenumida Buxoro komfirqasi MQsining siyosiy yo‘lini muhokama qildi. Mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorda: “Hozirgi hukumat bilan aloqani uzmay turib agrar inqilob haqiqatan amalga oshirilishi lozimligi”<sup>33</sup> ko‘rsatiladi. Ko‘rinib turibdiki, Moskva Buxoroda “agrар inqilob”ni amalga oshirish bo‘yicha to‘g‘ridan-to‘g‘ri fatvo bergen.

Ana shu ko‘rsatmaga asosan 1921 yil 23 fevralda bo‘lib o‘tgan Buxoro komfirqasining V qurultoyi “Yer-dehqonlarga” shiori ostida o‘tdi. Qurultoy butun Buxoro inqilobiyl qo‘mitasining 1921 yil 5 yanvarda qabul qilgan “Yer to‘g‘risida”gi Dekretini ma’qulladi. Mazkur dekretga asosan yer, suv, o‘rmon va tabiiy boyliklarning hammasi kimning tasarrufida bo‘lishidan qat’i nazar, umumxalq mulki deb e’lon qilindi: amir va beklarning natsionalizatsiya qilingan yerlari, shuningdek vaqf mulklari dehqonlarga bepul taqsimlab berilishi lozimligi qayd etildi.

Ana shu dekret asosida Eski Buxoro tumanida amir va beklarga qarashli 4 ming tanob (ming desyatina) yer va Buxoro viloyati uezdlaridagi 1000 tanob (250 desyatina (1 desyatina 4 tanob)ga yaqin yer musodara qilindi va 5-25 tanobdan

<sup>32</sup>Ўзбекистон тарихи. Учинчи жилд, Т. “Фан”-1971. 295-bet.

<sup>33</sup>O’sha asar. 295-297-betlar.

dehqonlarga bo‘lib berildi. (Albatta, bu ishlarning hammasi o‘z vaqtida ayyorlik bilan amalga oshirildi. Keyinchalik esa bu yerlar yana dehqonlardan tortib olindi.)

Albatta, Moskvaning ulug‘ davlatchilik va mustamlakachilik siyosatining natijasi o‘laroq yuqorida turib zo‘rlik bilan amalga oshirilgan bunday tadbirlar Buxoro respublikasi rahbarlarining g‘ashini keltirayotgan edi. Respublikaning F.Xo‘jaev, A.Fitrat, Sattorxo‘jaev, M.Saidjonov, M.Aminov, Otaxo‘jaev va boshqa rahbarlari bosiqlik bilan o‘rtacha mo‘tadil yo‘l tutib, Buxoroning mustaqil bo‘lib chiqishini yoqladilar. Jumladan, Buxoro inqilobiy qo‘mitasining raisi A.Muhiddinov 1921 yil yozida joylarga tarqatilgan ko‘rgazmada bunday deb yozgan edi: «Din, Vatan va millat uchun ishda bir bo‘laylik... Milliy mustaqillikni talab qilamiz»<sup>34</sup>.

Sho‘rolar bosqiniga qarshi Buxoro mustaqilligi va ozodligi uchun kurashgan ikkinchi asosiy kuch-amir Said Olimxon boshchiligidagi kuchlar bo‘ldi. Buxoro amiri o‘ziga sodiq kuchlar bilan poytaxtni tark etgach, Qo‘rg‘ontepa, G‘ijduvon, Boysun viloyatlariga qarashli Bandor va Darband atroflarida bosqinchi qizil qo‘sishlar bilan jang qilib, Hisor viloyatiga chekindi. Bu yerda u olti oy mobaynida dushmanga qarshi jang olib bordi. “Jang boshida, - deydi amir Olimxon, - harbiy vazir tog‘am Muhammad Saidbek Parvonachi va urush qo‘mondoni Abdulhafiz Parvonachi, Ibrohimbek askar boshliqlari edilar. Shu bilan olti oy davomida kurash va jang yuz berib, oxiri bolsheviklar jamoasi o‘zlari paydo qilgan mazkur urushga majbur bo‘lishib, Moskvadan anchagina askar va harbiy quollar yig‘ib keldilar. Shu bilan ular birdan Islom lashkari ustiga hujum boshladilar. Islom askarlarida harbiy anjom va quollar kam bo‘lganligi jihatidan o‘n oy davomida urushib jang qildilar, so‘ngra bu bandayi ojiz yordam va madad so‘rash harakatida xorijiy davlatlarga murojaat qildim”<sup>35</sup>.

Amir Olimxon qizil askarlarga qarshi kurashni davom ettirish maqsadida Xisordan Ko‘lob viloyatiga, u erdan 1921 yilda Afg‘oniston poytaxti Qobulga etib keldi. U yo‘l-yo‘lakay Sharqiy Buxoro hududida bo‘lgan chog‘ida sho‘rolarga qarshi vatan mustaqilligi va ozodligi uchun kurashga ko‘z tikkan kuchlarni qo‘llab-

<sup>34</sup> Ражабова Р.Е. ва бошкалар. Ўзбекистон тарихи (1917-1993йиллар). Т.: „O‘qituvchi”-1994.104-bet.

<sup>35</sup> Амир Сайд Олимхон. Бухоро халқининг ҳасратли тарихи. Т.: “Fan”-1991. 16-bet.

quvvatladi, ularga madad va maslahatlar berdi. Jumladan, Said Olimxon Ko‘lob viloyatida bo‘lganida sho‘rolarga qarshi kurash olib borgan ozodlik fidoyilari Mulla Muhammad Ibrohimbek devonbegi bilan uchrashganligi va dushman bilan bo‘ladigan istiqboldagi jang rejalarini ishlab chiqqanligini ta’kidlaydi. “Men,-deydi amir Olimxon, - amr-farmon chiqarib, uni (Muhammad Ibrohimbekni demoqchi - mualliflar) muayyan joylarga yubordim. Muhammad Ibrohimbek bilan Davlatmandbekka mening o‘scha ruxsatlarim bilan ish yuritishga, dushman yo‘lini istehkom qilib turishga buyurdim”<sup>36</sup>.

Afg‘oniston amiri Omonullaxon amir Olimxonni yaxshi qarshi oldi. Amir sarbozlariga Mozori Sharif va Xonoboddan joy ajratildi. Uning o‘ziga esa amirning Qobul yaqinidagi bog‘i - Qal’ayi Fatudan joy ajratdi. Dastlabki paytda bu erda Sayd Olimxon bilan birgalikda Karmana begi Yovqochbek, Sherobod begi Abulhafizbek, Mirfattohbek udaychi, amirning savdo bo‘yicha Londondagi vakili bo‘lib ishlagan Yusufboy Muqimboev Qori Muzrob, harbiy vazir Ibrohimbek, Abdullabek to‘qsabo, A’zamhoji va boshqalar bo‘lgan<sup>37</sup>.

Buxoro amirligi hududida sho‘rolar bosqiniga qarshi mustaqillik va ozodlik uchun kurashayotgan eng asosiy - uchinchi kuch ham bor edi. Bu-vatanparvar qo‘rboshilar rahbarligida jon berib jon olayotgan xalq milliy ozodlik jangchilari edilar. Ozodlik va mustaqillik uchun kurash Buxoro amirligining xususan sharqiy va g‘arbiy hududlarida kuchli tus oldi. 1922 yilda Buxoro amirligida 30 dan ortiq<sup>38</sup> qo‘rboshilar rahbarlik qilgan xalq qasoskorlari lashkarlari bor edi. Ibrohimbek Laqay, Davlatmanbek, Abdulqodirbek, Hoji Sami Afandi (Surhon vohasi va Tojikiston hududlarida harakat qildi), Bahrombek qo‘rboshi, Bo‘ri To‘qsabo qo‘rboshi (Qarshidan), Sharof o‘zbek qo‘rboshi (Beshkentdan), Xo‘jambek qo‘rboshi (Kitobdan), Qoraqulbek va Mamatqul qo‘rboshilar (Qo‘rg‘ontepadan), Bahrombek qo‘rboshi, Jabborbek qo‘rboshi, Ochilbek qo‘rboshi, Hamroqul qo‘rboshi, Ochil To‘qsabo qo‘rboshi, G‘ulom Avg‘on qo‘rboshi, A’zamxon Eshon qo‘rboshi, Sayfulla Miroxur qo‘rboshi, Sherbek qo‘rboshi (Samarqandda),

<sup>36</sup>O’sha manba. 18-bet.

<sup>37</sup>Jo‘rayev.N, Karimov.Sh. O’zbekiston tarixi(O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 2-jild. T.: “Sharq”-2011. 258-bet.

<sup>38</sup>Санаев Ислам. Зиёвуддин тарихи. - Т.: “Шарқ”-1995. 221-bet.

Xolbo‘tabek qo‘rboshi, Mustafoqulbek qo‘rboshi (O‘ratepadan), Niyozbek qo‘rboshi (Jizzaxdan), Boboyor qo‘rboshi, To‘xtamurod qo‘rboshi, sepkilik Haydar Mergan qo‘rboshi, timlik Ro‘zi qo‘rboshi, olti o‘g‘illik Qoracha Mergan qo‘rboshi (Xatirchidan) va boshqalar ana shular jumlasidandir.<sup>39</sup>

Milliy ozodlik harakatining yirik vakillaridan biri Ibrohimbek Laqaydir. «Laqay» uning taxallusi bo‘lib, o‘zbekning laqay urug‘iga mansubligini bildiradi. Ibrohimbekning to‘la ismi sharifi Mulla Muhammad Ibrohim Chaqaboy o‘g‘lidir. Tug‘ilgan yili aniq emas, 1889 yoki 1890 yil deb taxmin qilinadi. U Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahrining janubidagi asosan o‘zbekning laqay urug‘i istiqomat qiladigan Ko‘ktosh qishlog‘ida tavallud topgan. Ibrohimbek Laqay Turkistondagi milliy istiqlol kurashining yorqin siymolaridandir. Amir zamonidayoq o‘ris harbiylariga qirg‘in solishdan ish boshlagan va qisqa fursatda katta shuhrat qozongan. Ibrohimbek amir Olimxonning ko‘p martabalariga erishgan. Amir Afg‘onistonga o‘tib ketgach ham unga bir qancha hadyalar va unvonlar yuborgan. Amir Olimxon Sharqi Buxoroda yashagan muddat ichida Ibrohimbekka o‘xhash yovqur, qo‘rqmas kishilarga tayanib, sovetlarga qarshi savashgan edi<sup>40</sup>. Muhammad Ibrohimbek hatto Dushanbe shahrini bolshevoylardan tortib ham oldi. Ammo qizil askarlar, G. Frezer bergen ma’lumotlarga qaraganda, shahardan chekinish paytida 50 ming kishini qilichdan o‘tkazib ketishgan<sup>41</sup>. Ibrohimbek 1920 yil avgustdan to 1926 yilga qadar «lashkari islom», («Islom lashkari»)ni tuzib, unga bosh qo‘mondon sifatida Frunze, A.I.Kork, S.Pugachev, A.N.Todorskiylar boschchiligidagi bosqinchchi qizil askarlarga qarshi mardonavor jang qildi. 1926 yilda o‘z mujohid yigitlari bilan Afg‘onistonga o‘tib ketishga majbur bo‘ldi.

Ibrohimbek Qobul shahriga yaqin Qal’ai Fatuda birmuncha vaqt Said Olimxon bilan birga yashadi. Afg‘oniston hukumati unga har oyda ming rupiya, Buxoro amiri esa besh yuz rupiya ajratadi. Keyinchalik Afg‘oniston taxtiga Nodirxon kelgach (1929 yilda), muhojirlar bilan Afg‘oniston lashkarlari o‘rtasida

<sup>39</sup>Jo‘rayev.N, Karimov.Sh. O‘zbekiston tarixi(O‘zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 2-jild. T.: “Sharq”-2011. 266-bet.

<sup>40</sup>O’sha manba. 269-bet.

<sup>41</sup>Фрейзер Г., Босмачилар. Лондон-1987. 34-bet.

birodarkushlik urushi kelib chiqdi. Behuda qon to‘kishlardan charchagan Ibrohimbek 1931 yilda o‘z vataniga qaytib keladi va o‘z ixtyyori bilan sho‘rolarga taslim bo‘ladi.

Bolshevoyerlar Ibrohimbekni hamma vaqt eng xavfli raqiblardan biri sanab kelganlar. Chunki u qizil askarlarga qarshi janglarda bir necha bor qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan. Shu bois u amir Olimxonning ham katta hurmatini qozongan edi. 1921 yilda ana shunday jasoratlardan birini namoyon etgan edi. Amir Olimxon Sharqiy Buxoro orqali Afg‘onistonga o‘tib ketayotganda Hisor begi Ibrohimbekni amirga tanishtiradi va uni «Har qanday topshiriqni bajarishga qodir», deb ta’riflaydi. Amir Ibrohimbekning dovyurakligi va jasurligini sinab ko‘rish maqsadida Dushanbe shahrida qolib ketgan uchta musulmon tug‘ini olib kelish to‘g‘risida farmon beradi. Qizil askar qismlari shaharni har taraflama nazorat qilib turishgani bois bu farmonni bajarish nihoyatda qiyin va xavfli hisoblanar edi. Shunga qaramasdan, Ibrohimbek do‘sti Asadullobek bilan birgalikda amir farmonini to‘la va bekamu-ko‘st bajaradi.

Muhammad, Ibrohimbek ayniqsa vatan xoinlari va sotqinlarini butun qalbi vujudi bilan yomon ko‘rar edi. Sho‘rolar turli yo‘llar bilan tub yerli aholining qizil askarlarga qarshi yagona jabha bo‘lib kurash olib borishini barbod qilish uchun arzimagan sadaqalar va mansablar va ’da qilib, ularning ba’zi bir qismini sotib olar va o‘zining razil maqsadlari yo‘lida foydalanardi. O‘zbekiston Kommunistik (bolshevoyerlar) firqasi MQsining 1925 yil 30 iyundagi mahfiy ko‘rsatmasi bu fikrni tasdiqlaydi: “Bosmachilarning rahnamolarini: Ibrohimbekni, Rahmon dodhoni, Ismatni yo‘q qilish uchun bizga o‘z hohishi bilan taslim bo‘lgan ishonchli yigitlardan maxsus guruh tuzilsin”<sup>42</sup>.

Bundan tashqari, milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashning yirik markazlaridan biri G‘arbiy Buxoro edi. Ibrohimbek va Anvar poshsho harakatlaridan ruhiy oziq olgan G‘arbiy Buxoro xalqi, ayniqsa, Buxoro, G‘ijduvon, Parmez, Vobkent va Qorako‘l ahli amir Olimxonga maxsus noma bilan murojaat qilib, sho‘rolarga qarshi kurashda amir tomonidan qo‘mondon tayinlanishini so‘radilar. Bu talab hisobga olinib, buxoroliklarning katta hurmatiga sazovor

<sup>42</sup>“Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. Т-1992, 17 апрель.

bo‘lgan Mulla Abdul Qahhor u yerga «Islom lashkarlari qo‘mondoni» etib tayinlanadi. Buxoro amirining bu to‘g‘ridagi nomasini 1922 yil 12 mayda Anvar poshshoning vakili turk zobiti Usmon Afandi olib kelgan. Mulla Abdul Qahhor huzurida Zakiy Validiy To‘g‘on, Buxoro xalq sho‘rolar jumhuriyati harbiy noziri Abduholiq Orifov va boshqalar bo‘lgan. Mulla Abdul Qahhor tez orada katta kuch to‘playdi va qizil askarlarni dahshatga soladi. Uning qo‘mondonligidagi islom lashkarlari safiga Buxorodan 6000, G‘ijduvop, Vang‘oze, Vobkent, Shofirkon, Parmezdan 2000 tadan, Bahovaddindan 2000, jami 25 ming<sup>43</sup> kishi uyushadi va bir qator tarixiy g‘alabalarni qo‘lga kiritadi. Islom lashkarlari G‘ijduvondan qizil askarlarni haydab chiqarib, Nurota va Karmana tomon yurish boshladilar, G‘arbiy Buxoroda sho‘ro hokimiyatini tugatishga muvaffaq bo‘ldilar.

Bunday og‘ir vaziyatdan chiqish uchun sho‘rolar Moskva va Toshkentdan qo‘srimcha harbiy kuchlarni chaqiradi. 1922 yil dekabridan to 1924 yil kuz oylariga qadar Mulla Abdul Qahhor bosh bo‘lgan islom lashkarlari bilan qizil askarlar o‘rtasida qattiq va shiddatli janglar bordi. Har ikkala tomondan ham katta qurbanlar berildi. 1924 yil sentabrida Mulla Abdul Qahhor Qizilqumning Varajon deb atalgan qishlog‘iga yaqin Quruqsoy changalzorlarida bo‘lgan qattiq jangda yaralanadi. Islom jangchilaridan 140 kishi bu jangda nobud bo‘ldilar. Abdul Qahhorning ukasi Mitanpolvon og‘ir yaralangan lashkarboshini jang maydonidan olib chiqadi. Ular Azizobod qishlog‘ida boshpvana topadilar. Ammo qizillar ularni ta’qib qilib kelib qatl etdilar. Jasoratli va mard vatanparvar Mulla Abdul Qahhorning jasadi uning o‘zi tug‘ilib o‘sigan G‘ijduvonga yaqin Saitkent qishlog‘iga dafn etildi.

Qizil askarlar mahalliy xalqdan qattiq o‘ch oldilar. Ayniqsa G‘amxo‘r (G‘ijduvon bilan Konimex oralig‘ida), G‘ishti, Parmez, Vang‘oze, Polonze va Bog‘chag‘oze hududlarida dahshatli qirg‘inlar uyshtirildi. Faqat 1923 yil noyabridan to 1925 yil boshlarigacha milliy ozodlik harakati ishtirokchilaridan 4961 kishi qirib tashlandi va 3307 kishi asir olindi<sup>44</sup>.

<sup>43</sup>“Гулистон”, 1991 йил, 2-сон, 6-бет.

<sup>44</sup>Санаев Ислам. Зиёвуддин тарихи. Т.: “Sharq”-1995. 223-бет.

Xullas, milliy istiqlol va ozodlik uchun kurash fidoyisi bo‘lgan ulug‘ vatandoshlarimiz, millatdoshlarimiz o‘zlarining muqaddas va olajanob niyatlariga yeta olmadilar. Ular kuchli, qudratli va makkor bosqinchi bolshevoyerlar qarshisida ojizlik qildilar. 16 yildan ko‘proq davr mobaynida davom etgan xalq milliy ozodlik va istiqlolchilik urushi vatanparvarlarning mag‘lubiyati bilan yakun topdi. Ammo ularning milliy mustaqillik va ozodlik yo‘lida to‘kkan muqaddas qonlari zoye ketmadi.

1920 yil 27-30 aprelda Xiva shahrida “xalq vakillari”ning Butunxorazm I qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Unda Xorazm “xalq” Sho‘ro Respublikasi tuzilganligi e’lon qilindi va uning muvaqqat konstitutsiyasi qabul etildi. Qurultoyda respublika hukumati - Xalq Nozirlari Sho‘rosi tuzildi. Hukumat raisi etib Polvonhoji Yusupov, rais muovinligiga Bobooxun Salimov (Asfandiyorxon qoshidagi majlis raisi) va o‘n besh nozir (vazir) saylandi. Bu saylanganlarning o‘ntasi “yosh xivaliklar”ning vakillari edilar. Ular o‘z faoliyatlarida hukumatni mahalliy sharoit, shariat va mustaqillik asosida boshqarishga, milliy manfaatni himoya qilishga harakat qildilar. Bu esa rus sho‘ro hukumati va firqasining Turkiston va Xivadagi vakillariga yoqmadi. Shu boisdan «yosh xivaliklar» hukmronligi ham uzoqqa bormadi. U bor-yo‘g‘i o‘n ikki oy umr ko‘rdi. Markaz va mahalliy communistlarning tazyiqi bilan 1921 yil 21 fevralda II Butunxorazm qurultoyini chaqiruvchi markaziy saylov komissiyasi tuzildi<sup>45</sup>.

P.Yusupov boshliq hukumat esa uni tarqatib yubordi, saylovoldi targ‘ibotini ma’n etdi, hukumat qaroriga qarshi bo‘lganlarni qamoqqa oldi. Chunki sho‘rolarning so‘zi bilan amaliy ishlari to‘g‘ri kelmayotgan edi.

Gap shundaki, markaziy rus sho‘ro hukumati 1920 yil 13 sentyabrda Xorazm xalq Sho‘ro Respublikasi bilan ittifoq shartnomasini tuzdi. Unda RSFSR XXSHRning to‘la mustaqilligini rasman tan oldi. Eski chor Rossiyasi bilan tuzilgan barcha shartnomalar tengsizlik asosiga qurilgan shartnomalar sifatida bekor qilindi. Shu sabab Moskvada Bobooxun Salimov boshliq Xorazm vakillari “katta izzat-ikrom va hurmat bilan” kutib olindi. Xorazm vakillari uch oydan so‘ng

<sup>45</sup>Jo’rayev.N, Karimov.Sh. O’zbekiston tarixi(O’zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 2-jild. T.: “Sharq”-2011. 176-bet.

yurtlariga qaytib keldilar. Delegatsiya a'zolarini hatto "dohiy" Leninning o'zi qabul qilgan, bundan keyin Xorazm xalqi o'z taqdirini o'zi belgilaydi, bu "inqilobiy g'alaba"dir, "men sizlarni bunday g'alaba bilan tabriklayman", deb aytgan. Ammo sho'ro hukumati, ikkinchi tomondan, amalda "yosh xivaliklar" boshliq Xorazm sho'ro xalq hukumatiga zarracha bo'lsada mustaqil ishlashga imkon bermadi. Ustiga ustak kun sayin kommunistik tazyiq ortib bordi<sup>46</sup>.

"Yosh xivaliklar" hukumati tez orada o'zlarining aldanganliklari va bolsheviklarning dahshatli qarmog'iga tushganliklarini anglab yetdilar. Natijada ular rus kommunistik bosqiniga qarshi milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashga otlandilar. "Yosh xivaliklar" zimdan sho'ro hokimiyati va bosqinchilarning komunistlarga qarshi istiqlol uchun oyoqqa turgan kuchlarga yordam berdilar. Bu kurashni butun Xorazm xalqi qo'llab-quvvatladi. Islom dini ulamolari va xalq vakillaridan katta bir guruh hukumat nomiga ariza yozib, Xivada kompartiyani taqilashni va hamma komunistlarni mamlakatdan haydar chiqarishni talab qildi. 1920 yil 26 iyun, 8-9 iyulda Xivada xalq ommasining norozilik mitinglari bo'lib o'tdi<sup>47</sup>. Miting qatnashchilari Xorazmda communist-xudosizlar yurgizayotgan siyosatdan norozi ekanliklarini izhor etdilar. (Unga ko'rsatmani Eliava va Kuybishev imzosi bilan Turkiston Harbiy-Inqilobiy Kengashi bergen-mualliflar). Men esa butunlay boshqacha ko'rsatma bergen edim, harbiy guruhlarimiz Xiva ishlariga aralashsa, qanday murakkabliklar kelib chiqishini eslatgandim<sup>48</sup>.

Darhaqiqat, Xivada vaziyat keskinlashdi. Amudaryo bo'limi rahbarlari xatoga yo'l qo'ymasligi, RSFSRning ojiz davlatlarga bo'lgan munosabatidagi mezonlar buzilishining oldini olish uchun BMIK komissiyasi Broydani muxtor vakil etib tayinlaydi. Buni shu narsadan ham bilish mumkinki, 1920 yil 6 maydagi majlisda Broyda nutqini tinglagan V.Kuybishev unga befarq va sovuq munosabatda bo'lgan. Uning fikriga ko'ra Broyda masalani "chigallashtirib" yuborgan ekan<sup>49</sup>.

M.V.Frunze bo'lsa, 1920 yil 14 aprelda V.I.Leninga "Turkistondagi ahvol to'g'risida" yozgan xatida "Markaziy Qo'mita Broydani Turkistonga yuborib, juda

<sup>46</sup>Jo'rayev.N, Karimov.Sh. O'zbekiston tarixi(O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida). 2-jild. T.: "Sharq"-2011. 178-bet.

<sup>47</sup>Ўзбекистон тарихи. Тўрт томлик. 2-том, Т.: Фан, 1971, 209-bet.

<sup>48</sup>"Шарқ ўлдузи", 1991, №3, 178-bet.

<sup>49</sup>O'sha manba.

katta xatolikka yo‘l qo‘ygan, faoliyatning barcha sohasida men uni Turkkomissiyaning johil dohiysi, deb hisoblayman, shaxsiy hayotda esa bu oddiy qo‘poruvchidir”<sup>50</sup>, deydi.

RSFSRning muxtor vakili M.Safonovning buyrug‘i bilan 1921 yil 6 mart kuni yosh xivaliklar hukumatiga qarshi ommaviy mitinglar o‘tkazildi. Mitingda qizil armiya siyosiy boshqarmasining talabi bilan yosh xivaliklar hukumatini ag‘darish haqida qaror qabul qilindi. Qurollangan harbiy qismlar hukumat uyiga bostirib kirib, hukumat rahbarlarini hibsga oldilar. Polvonniyoz Yusupov yashirinishga ulgurdi. Qizil askarlar qo‘liga tushmay qolgan nozirlar esa Jo‘naidxonga qo‘shildilar. Qonuniy saylangan yosh xivaliklar hukumati ag‘darildi<sup>51</sup>.

Bu dahshatli qirg‘inlar va qonxo‘rlikning hammasi Xorazmda sho‘rolar tomonidan mustamlakachilik va qullik tizimini o‘rnatish maqsadlarini ko‘zlab amalga oshirildi. Ana shu razil maqsadni amalga oshirishning navbatdagi bosqichi 1921 yil 15-23 mayda chaqirilgan Butunxorazm Sho‘rolarining II qurultoyi bo‘ldi. Qurultoyda 230 vakil qatnashdi. Shundan 50 vakil turkman xalqi vakillari edi<sup>52</sup>. Mamlakatimizda amalga oshirilgan mislsiz qirg‘inlar va dahshatlarning g‘oyaviy ilhomchilari V.I.Lenin va I.Stalinni «inqilob» dohiylari sifatida qurultoyning faxriy rayosatiga sayladilar. Qurultoy ishi Moskva va Toshkentda tayyorlangan va ishlab chiqilgan dastur asosida o‘tdi. Vaqf mulklari tugatildi; sanoatni umumxalq mulkiga aylantirish; paxta ekiladigan maydonlarni kengaytirish; Xorazm Sho‘ro Xalq Respublikasining o‘zgartirilgan yangi Konstitutsiyasini qabul qilish; RSFSR bilan Xorazm Sho‘ro Respublikasi o‘rtasidagi ittifoqchilik shartnomasi va harbiy-siyosiy bitimni ratifikatsiya qilish kabi masalalar qurultoy kun tartibidagi asosiy masalalar bo‘ldi. Qurultoyda hukumatning yangi tarkibi saylandi. Xorazm Xalq sho‘ro Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo‘mitasining raisi etib Ota Mahsum Muhammad Raximov (sobiq qozikalonning o‘g‘li), harbiy nozirlikka jadid Javobbergan Qo‘chqorov (laqabi Jabbor Sori) Xalq Nozirlari Kengashining raisi lavozimiga Abdulla Xo‘ja (Fayzulla Xo‘janing ukasi, Buxoro amirining jiyani) saylandilar.

<sup>50</sup>РИССТДА, 461-фонд, 31925-иш, Автограф; Историографический архив, 1958-год.№ 3

<sup>51</sup>Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo‘rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). Т. “Sharq”-2000. 218-bet.

<sup>52</sup>“Жизнь национальности”, 1923, № I. Стр. 187.

Xullas, yangi saylangan hukumat a'zolarining deyarli hammasi boy-badavlat, o'qimishli ziylolar va jadidlarning vakillari edilar. Shu boisdan ham ular xalq va millat manfaatlariga befarq qaramadilar, hukumat va firqa tarkibidan nihoyatda ehtiyotkorlik va ziyraklik bilan rusparast unsurlarni sekin-asta surib chiqarish yo'lini tutdilar, ularning o'rniga millatparast o'z maslakdoshlarini qo'ya boshladilar. Ana shu sababga ko'ra sho'rolar davrida yaratilgan tarixiy-ilmiy va badiiy asarlarda Xorazmning ikkinchi xalq hukumati "boy-feodal" va "aksilinqilobiy" hukumat sifatida ta'riflandi<sup>53</sup>.

Shu bois Ota Mahsum Muhammad Rahimov hukumatining ham uzoq umr ko'rishi amri mahol edi. U bor-yo'g'i bir yilu sakkiz oy umr ko'rdi, xolos. 1922 yil noyabr oyida bolshevoyerlar mahalliy sotqinlar va aldanganlar yordamida Xorazmda ikkinchi marta davlat to'ntarishini amalga oshirdilar. Hukumat a'zolaridan bir guruhi qamoqqa olindi. Ota Mahsum, J.Qo'chqorov va boshqalar zo'rg'a qochishga ulgurdilar hamda Junaidxon boshchiligidagi harakat qilayotgan milliy-ozodlik kuchlariga borib qo'shildilar. Bu davrga kelib sho'rolar va komfirqadan xalq ommasining hafsalasi pir bo'lib, borgan sari ularning noroziligi kuchayib bordi. Vaziyatga to'g'ri baho bergen Junaidxon Xorazm istiqlolchilik harakatining yirik sarkori sifatida "revkom" deb nomlanmish bosqinchi tashkilotdan qamoqqa olinganlarni tezda ozod qilishni qat'iy talab qildi<sup>54</sup>.

Xorazmdagi ikkinchi davlat to'ntarishi xalq manfaatlariga zid bo'ldi. Mahalliy xalqning haq-huquqi poymol qilindi. Bu rus kommunistik zo'ravonligining aynan o'zi edi. Shunga qaramay, sho'ro tarixida u "inqilobiy ish" deb ko'rsatildi. Ushbu davlat to'ntarishi xalq ommasining sho'ro hukumati va komfirqaga nisbatan nafratini yanada oshirdi.

Junaidxonning yigitlari 1921-1922 yillarda birdan 1000 otliqqa ko'paydi. Xalq Junaidxon jasoratini qo'llab-quvvatladi va unga sodiqligini izhor etdi. "Yosh xivaliklar" hukumati va undan keyingi Ota Mahsum hukumati rahbarlari ham sho'ro hokimiyatiga qarshi umumiylar kurash jabhasiga uyushdilar. Bundan vahimaga tushib kolgan Xivadagi "Xorazm inqilobini himoya qiluvchi" harbiy

<sup>53</sup>"Xorazm tarixi". 2-jild. Urganch-1997. 34-bet.

<sup>54</sup>O'sha asar.

inqilobiy kengash rus sho‘ro hukumatidan qo‘sishimcha armiya so‘radi. Bunga javoban Turkfront qo‘mondonligi 1922-1923 yillarda Xorazmga bir qator harbiy qismlarni yubordi. Shundan so‘ng Qizil armiya Xorazmning yangi harbiy noziri Voloshin qo‘mondonligida Jo‘naidxonga qarshi jang harakatlarini boshlab yubordi.

Kuchlar teng emas edi. Shu bois rus askarlarining qo‘li baland keldi. Lekin vatanparvar kuchlarni yengish oson bo‘lmadi, u uzoq muddatga cho‘zildi. Rus “inqilobiy kuchlari” qo‘lida qo‘g‘irchoq bo‘lgan Xorazmning yangi hukumati oldingi ikki hukumatdan farqli o‘laroq o‘z maslahatchilari ta’sirida “inqilobiy va sotsialistik” o‘zgarishlar yasashga kirishdi. Shoshilinch ravishda 1923 yil oktabrida chaqirilgan IV Butun Xorazm qurultoyi Xorazm xalq sho‘ro respublikasini “Xorazm sho‘ro sotsialistik respublikasi” deb e’lon qildi. Ko‘rinib turibdiki, bu bilan communistlar mamlakatda “Yosh xivaliklar”, ya’ni jadidlar hamda ularning ta’sirida bo‘lgan kuchlarning hokimiyyati ag‘darilishi bilan sotsializm qurilishi boshlandi degan g‘oyani oddiy xalq ongiga singdirib, ularni o‘z tomonlariga og‘dirib olishni rejajashtirdilar<sup>55</sup>. 1923 yil noyabridan boshlab esa soliqlar tartibi o‘zgartirildi. Hamma yerlardan, ularning hosildorligi qanday bo‘lishidan qat’i nazar bir xil miqdorda soliq olinadigan bo‘ldi. Savdogarlardan olinadigan patent solig‘i ham hamma uchun bir xil bo‘ldi. Katta va kichik savdogarlar farqlanmadı. Bu «tenglik» tengsizlikni kuchaytirdi. Bundan tashqari, communistlar mahalliy aholining diniy hissiyotlarini toptab, machit va madrasalarni yopib qo‘ydilar, xotin-qizlarni paranji va chimmattalarini tashlashga majbur qildilar. Shariatga asoslangan qozilar mahkamasi(sudi) tarqatildi, sho‘ro sudlari joriy qilindi, aholining eri, mol-mulki va chorvasi xatlanib hisobga olindi. Madrasa va qadim an’anaviy maktablar yopib qo‘yildi<sup>56</sup>.

Bu «inqilobiy» tadbirlarning tashabbuskori va ijrochilari communistlar bo‘ldi. Bu kabi noinsoniylik, dahriylik, o‘zboshimchalik va qonunsizliklardan xalq ommasi g‘azabga keldi. 1924 yil yanvarida Xorazm xalqi Jo‘naidxon va «yosh xivaliklar» rahbarligida sho‘rolar istibdodiga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tardi. Qo‘zg‘olon Madrahimboy rahbarligida Pitnakda boshlandi. So‘ngra unga

<sup>55</sup>“Xorazm tarixi”. 2-jild. Urganch-1997. 36-bet.

<sup>56</sup>Шамсутдинов Р, Каримов Ш., Ўзбекистон тарихи / 3-китоб, Андижон- 2004, 236-bet.

Xazoraspda Sobirboy, Matchonbek va Shokirjonpir qo'shildilar. Qo'zg'olon Bog'ot, Xonqa, Yangiariq, Saduvar va boshqa joylarga yoyildi. Qo'zg'olonda qatnashganlarning soni 10-15 mingta yetdi. Qo'zg'olon uyushqoqlik bilan o'tdi. U o'z oldiga faqat kommunistlarning o'zboshimchaligini yo'q qilish vazifasinigina emas, balki butunlay sho'ro hokimiyatini ag'darib tashlash va Xorazm mustaqilligini tiklash maqsadini ham qo'ygan edi. Ana shu maqsad bilan qo'zg'olonchi vatanparvarlar ikki guruhi bo'lindilar. Qo'zg'olonchilarning birinchi guruhi Jo'naidxon huzuriga va ikkinchi guruhi esa Xivaga Sho'ro hukumati sari yo'l oldi.

Birinchi guruh vakillari 15 kishidan iborat bo'lib, unga Madrayimboy rahbarlik qildi. Ular Junaidxon huzuriga borib, Xivadan sho'ro hukumati va kommunistlarni haydab chiqarishda birlashib harakat qilishga undash uchun vakil etilgan edilar. Ikkinci guruh esa 200 kishilik katta kuch edi. Ular Xivaga borib, hukumatdan "adolatli soliq"ni bekor qilishni, qozilar mahkamasini, madrasa va maktablarni tiklashni, Xivadan bolsheviklarning chiqib ketishini qat'iy talab etdilar<sup>57</sup>. Bu paytda hukumat rahbarlari SSSR sho'rolarining II qurultoyida qatnashish uchun Moskvaga jo'nab ketgan edilar. Tinch muzokaradan natija chiqmadi. Shundan so'ng xalq lashkarlari 10 yanvar kuni Xiva shahrini qamal qildilar. Junaidxon ham 8 mingga yaqin o'z yigitlari bilan Xiva tomon yurdi. Toshhovuz, Mang'it, Gurlan, Shovot, G'ozibod va boshqa bir qator tumanliklar qo'zg'olonchilar va Jo'naidxonning qo'liga o'tdi. Mamlakat poytaxti Xiva tashqi dunyodan butunlay ajralib qoldi. Radiostansiya buzib tashlandi, Xiva, To'rtko'l, Chorjo'y telegraf simlari ham uzib qo'yildi.

Bolshevoyer hukumati Xorazmda sho'rolar hokimiyatini saqlab qolish uchun shoshilinch choralarini amalga oshirdi. Xalq komissarlari Kengashi o'rniga Revkom (inqilobiy qo'mita) va Favqulodda komissiya tuzildi. Bu «inqilobiy» tashkilotlar xalq qo'zg'olonini katta harbiy kuch bilan ayovsiz bostirishga kirishdi. Mamlakatda ta'qib, talon-tarojlar sudsiz-so'roqsiz otib tashlashlar boshlandi.

Duch kelgan joyda har bir oddiy fuqaro, xalq qo'zg'oloni qatnashchilari va boshqalar "inqilob dushmani" "isyonchi" va "bosmachi" sifatida otib

---

<sup>57</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: "Sharq"-2010. 160-bet.

tashlanaverdi. Bosqinchilar bu bilan cheklanmadilar. Xorazm sho‘ro hukumati Rossiya sho‘ro hukumatidan shoshilinch sur’atda harbiy yordam berishni so‘raydi. RKP(b) Markaziy qo‘mitasining O‘rta Osiyo byurosi qo‘zg‘olon boshlanishi bilanoq 1924 yil 6 yanvarda maxsus qaror qabul qilib, Turkfront Inqilobiy kengashiga Xivaga armiya yuborish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi. 22 yanvarda Farg‘ona va Buxorodagi milliy istiqlol kuchlariga qarshi kurashishda katta tajriba orttirgan N.A.SHaydakov qo‘mondonligidagi 82-otliq polk Chorjo‘yga etib keldi va 23 yanvarda Xonqaga hujum boshladi. Xiva shahrining 12 darvozasi 10 ta pulemyot bilan qurollangan qizil armiyachilar tomonidan qo‘riqlandi. 82-polk 29 yanvarda Xazorasp tumanida Og‘ajon Eshon boshchiligidagi xalq lashkariga duch keldi. Istiqlol himoyachilari 18 soat uzlusiz davom etgan jangdan so‘ng, kuchlar teng bo‘limgach, qumlar orasiga chekinishga majbur bo‘ldilar<sup>58</sup>.

82-polk 4 fevralda Xiva shahriga etib keldi va Xiva qamali tugatildi. Jo‘naidxon chekinishga majbur bo‘ldi. U sho‘rolarga qarshi kurashni 1929 yilgacha davom ettirdi. Ammo muvaffaqiyatga erisha olmadi. Shundan so‘ng Junaidxon dastlab Eronga, so‘ngra Afg‘onistonga o‘tib ketdi.

Sho‘rolar xalq ommasining talabi bilan qishloq xo‘jalik solig‘ini to‘rt baravar kamaytirishga majbur bo‘ldilar, sho‘ro ma‘muriyati rahbariyatidan katta bir guruhi ishdan olindi. Ikki kun davomida hukumat komissiyasiga aholidan sho‘ro ma‘muriyati ustidan norozilik bildirilgan 500 ta ariza tushdi.

Hukumat komissiyasi xalq talabiga ko‘ra qo‘zg‘olon vaqtida va undan oldin qamoqqa olingan vatanparvarlardan 214 kishini ozod qildi.

Xullas, xalq ozodlik qo‘zg‘oloni katta talofatlar evaziga bo‘lsada sho‘ro hukumati va komfirqani omma irodasi bilan hisoblashishga majbur qildi. Sho‘rolar xalq ozodlik qo‘zg‘olonini bostirgan bo‘lsalarda, Rossiya mustamlakachiligiga qarshi omma kurashi to‘xtab qolmadi. U yana uzoq yillar, o‘ttizinchi yillarning o‘rtalarigacha davom etdi. Sho‘rolar hukumati va komfirqa yagona turk xalqlari milliy-ozodlik kurashiga barham berish uchun “bo‘lib tashla, hokimlik qil” shioriga amal qildi va milliy davlat chegaralanishini o‘tkazishga kirishdi. Ana shu

---

<sup>58</sup> Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 161-bet.

tariqa sho‘rolar hukumati Xorazm xalqining asrlar osha davom etib kelgan davlatchilik an’anasiga barham berdi.

### **1.3.& I-bob bo'yicha xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiston o‘lkasida muxtoriyatning ag‘darilishi, bolsheviklar hokimiyatining o‘lkada zo‘rlik bilan o‘rnatalishi va bu boradagi xalqimizga nisbatan mustamlakachilik siyosati nohaqliklar, xo‘rliklar xalqimiz tarixining ayanchli sahifalaridan biriga aylandi. Natijada, bu holat o‘lkamiz xalqlarining milliy vatanparvarlik tuyg‘ularining yanada kengroq jonlanishiga va milliy mustaqillik uchun kuchli va o‘ta makkor qushmanga qarshi ayovsiz va beshafqat kurashga otlanishiga turtki bo‘ldi. Bu kurashda Farg’ona vodiysi eng oldingi saflardan birida bo‘ldi. Bu yerda sovet hokimiyatiga qarshi kurash Buxoro va Xiva xonligidagi kurashdan o‘zining tub mohiyatiga ko‘ra keskin farq qilmasada, ayrim jihatlari bilan undan ajralib turgan edi. Jumladan, Turkiston o‘lkasida tub joy aholi avval Rossiya imperiyasining mustamlaka zulmiga qarshi, sovet hokimiyati o‘rnatilgach esa bolsheviklarning bu boradagi

mustabid tuzumiga qarshi keskin kurash olib borgan edilar. Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva Xonligida esa bu kurash Turkiston o‘lkasidagidan ko‘ra birmuncha boshqacharoq kechdi. Ammo bu kurash qanday shaklda bo‘lmisin yagona g‘oya, vatan mustaqilligi g‘oyasi ostida olib borildi.

## **II-BOB: SOVET HOKIMIYATIGA QARSHI “YOSH BUXOROLIKLAR” VA “YOSH XIVALIKLAR” XALQ HARAKATLARI**

### **2.1.& “Yosh buxoroliklar” harakati**

1916-1917 yillar oralig‘ida yashirin “Yosh buxoroliklar” firqasi va uning 12 kishilik markaziy qo‘mitasi tashkil topdi. Bu siyosiy partiyaning tashkil topishida “Yosh turklar”ning “ittihodi va taraqqiy” firqasi, Rossiya va Turkistondagi sotsial-demokratik firqalarning ta’siri katta bo‘ldi. “Yosh buxoroliklar” firqasining markaziy qo‘mitasi raisi Abduvohid Burxonov, kotibi Usmon Xo‘ja (Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev), xazinador Muso Saidjonov edi.

Bulardan tashqari firqaning tashkil topib mustahkamlanishida Abdurauf Fitrat (1886-1938), Ota Xo‘jas (1894-1938), Mirkomil Burhonov, Fayzulla Xo‘jaev

(1896-1938), Sadriddin Ayniy (1870-1954), Fazliddin Mahsum, Abdurahim Yusuf Zoda (1880-1937) va boshqalarning hissasi katta bo‘ldi.

“Yosh buxoroliklar” firqasining dastlabki faoliyatiga oid tarixiy hujjatlardan biri Buxoroda o‘tkazilishi zarur bo‘lgan islohot loyihasidir. Uni 1917 yilda firqa markaziy qo‘mitasi nomidan Abdurauf Fitrat yozgan. U, “yosh buxoroliklar” partiyasi, “Yosh buxoroliklar qo‘mitasining Buxoroda islohot o‘tkazish loyihasi” deb nomlanadi<sup>59</sup>.

Loyiha o‘z vaqtida mahalliy matbuotda bosilganligi haqida aniq ma’lumot yo‘q. Biroq uning ruscha nusxasi 1930 yilda S.Dimanshteynning “Революция и национальный вопрос” (“Inqilob va milliy masala”) kitobida ilk bor Moskvada chop etilgan. Shundan so‘ng tariximizning bu nodir hujjati ushbu kitobdan ko‘chirilib, qisqacha inglizcha kirish so‘zi bilan 1985 yilda Oksford shahrida O‘rta Osiyon o‘rganuvchi jamiyat tomonidan rus tilida nashr etilgan “Musulmon siyosiy partiyanining dasturiy hujjatlari 1917-1920 yillar” nomli kitobda qayta bosildi. Loyihada yer-suv masalasiga katta e’tibor berilgan. Bundan tashqari harbiy masala, moliya ishlari, ichki ishlar va davlat boshqaruv organlari kabi masalalarga keng o‘rin ajratilgan. Loyihada butun haydaladigan yerlar uch qismga bo’lingan:

1) Vaqf yerlari (masjid va madrasalarga tegishli yerlar), 2) Soliqdan ozod qilingan yerlar (mulki hur); 3) Soliq olinadigan (mulki xiroj) yerlar.

Hammani ekin ekishga majbur qilish maqsadida barcha ekilgan va ekish mumkin bo‘lib, ekilmay qolgan yerlarga ham soliq solish nazarda tutilgan. Shuningdek, “mulki hiroj” yerlariga soliqni kamaytirish hamda “kafson” (amin, oqsoqol va boshqalar uchun) “agafti”(sadaqa), “uchquna puli” (turli daraxtlar uchun), “cho‘p puli” (yaylov uchun) va boshqa ortiqcha xarajat chiqimlarni tugatish nazarda tutilgan.

Loyihada yana davlat yerlari, bog‘ va binolarga ishlov berish uchun hashar chaqirish, umuman mehnatkashlar mehnatidan tekin foydalanish ham man etildi. Hashar yo‘li bilan faqat suv inshootlari qurish, kanallar qazish, umuman irrigatsiya ishlarini amalga oshirish mumkin bo‘ldi. Bunday paytda hasharga kelmaganlarga, hatto soliq solish nazarda tutiladi.

---

<sup>59</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 162-bet.

“Yosh buxoroliklar” partiyasi milliy armiyaga ham katta e’tibor berdi. Loyihada armiya askarlari sonini rus hukumati va Buxoro amiri tuzgan shartnomada belgilangani singari 12 ming kishiga yetkazish ko‘rsatilgan. Harbiy xizmat 22 yoshga yetgan hamma erkaklar uchun majburiy bo‘lishi, xizmat muddati esa ikki yil qilib belgilanadi. Shuningdek, harbiy maktablar ochish, askarlarga, ozroq bo‘lsada oylik maosh to‘lab turish nazarda tutildi. Moliya sohasida ham jiddiy islohot o‘tkazishga e’tibor berildi.

Maorif sohasida davlat mablag‘i hisobiga maktab, oliy o‘quv yurtlari ochish, ularni zamonaviy dastur, o‘quv qo‘llanmalar, o‘qituvchilar bilan ta’minlash, davlat va vaqf maktablaridan tashqari xususiy maktablar ochilishi dasturda o‘z aksini topgan edi. Shu bilan birga o‘quv yurtlarini bitirganlarga maorif nozirligi tomonidan diplom berish ham aniq ko‘rsatildi. Islohotda davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’rifiy hayot masalalari qamrab olindi. Buni unda ko‘rsatilgan quyidagi 10 ta nozirlik isbotlab turibdi: yer ishlari, vaqflar, harbiy ishlar, ichki ishlar, moliya, adliya, militsiya, yo‘llar qazib chiqaruvchi va qayta sanoat ishlari, maorif, tashqi ishlar nozirliklari.

Mana shular asosida Nozirlar Kengashi tashkil etilishi kerak edi. Bu nozirlar faoliyatini kuzatuvchi 20 kishilik maxsus Nazorat komissiyasi tashkil etilishi ham nazarda tutildi<sup>60</sup>.

Yuqorida ko‘rsatilgan masalalar o‘sha paytda hal qilinishi amri mahol bo‘lsada, ular ma’lum dastur holatiga keltirilib, amirga tavsiya etilishining o‘zi katta tarixiy ahamiyatga molikdir. Islohotdan kutilgan maqsad yakka amir hukmronligi (monarxiysi)ni ovro‘pocha konstitutsion monarxiya bilan almashtirish, maorif va madaniyatni, ishlab chiqarish va sanoatni rivojlantirish, ilm-fan va texnikani taraqqiy ettirishdan iborat bo‘ladi. Buning uchun “Yosh buxoroliklar” partiyasi dastlab Amir Olimxonga har xil yo‘llar bilan tinch demokratik ta’sir ko‘rsatishga va hatto kuch bilan tazyiq o‘tkazishga harakat qildilar. Bularning hammasi Rossiya va Turkistondagi inqilobiy harakat bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi.

---

<sup>60</sup> O’sha asar. 163-bet.

Rossiyada fevral burjua demokratik inqilobining g‘alabasidan so‘ng Buxoroda ham ijtimoiy-siyosiy vaziyat tez o‘zgara boshladi. Ruslar yashaydigan joylarda hokimiyat Rossiya Muvaqqat hukumatining Ijroiya qo‘mitalari qo‘liga o‘tdi. 1917 yil 12 martda Yangi Buxoro (Kogon)da Ijroiya qo‘mita saylandi. May oyining birinchi kunlarida esa Buxoro amirligida ruslar yashaydigan joylardagi ijroiya qo‘mitalar delegatlarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi.

Buxoroda juda ajoyib va murakkab ijtimoiy-siyosiy muhit paydo bo‘ldi. Bu esa jadidlarda umidvorlikni uyg‘otdi. Ma’lumki, Buxoro Rossiyaning yarim mustamlakasi edi. Shuning uchun ham jadidlar, ya’ni “yosh buxoroliklar” firqasi rahbarlari o‘z maqsadlarini Rossiya Muvaqqat hukumi orqali amalga oshirish uchun unga telegramma orqali murojaat yuborib, amirni isloh o‘tkazishga ko‘ndirishni iltimos qildilar. Fayzulla Xo‘jaevning ko‘rsatishicha, unga “yosh buxoroliklar” ning faollari imzo chekkan edilar. Rossiya markazidan tezda javob kelmaydi. Sabrsizlik bilan ikkinchi telegramma yuborildi. Uning matni F.Xo‘jaev tomonidan yozilgan, Fitrat va Saidjonov imzo chekkan edi.

Bunga ham chidamay, «yosh buxoroliklar» firqasining yangi tuzilgan markaziy qo‘mitasi Fitrat va Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaevdan iborat maxsus delegatsiyani Petrogradga yuboradilar. Ular Orenburgga kelganlarida jadidlar bilan amir o‘rtasidagi kelishmovchiliklarni hal qilish uchun Rossiya poytaxtidan maxsus komissiya yo‘lga chiqqanligi haqidagi xabarni oladilar va orqaga qaytadilar.

Ana shundan so‘ng Olimxon Rossiya muvaqqat hukumi va uning Buxorodagi vakili Miller hamda mahalliy taraqqiyparvar jadidlar ta’sirida 1917 yil 7 aprelda islohot o‘tkazish to‘g‘risidagi “Manifest”ni e’lon qildi. “Manifest” oldin saroyga to‘plangan 200 ga yaqin faollar, diniy ulamo va muftilar oldida tantanali ravishda o‘qib eshittirildi. Unda saroy amaldorlari va savdogarlardan 15 kishi, Buxorodagi rus shaharlari ishchi va askarlari deputatlari sho‘rosi hamda Samarqand sho‘ro okimiysi vakillari qatnashdi. Ularning orasida Mahmudxo‘ja Behbudiy (Samarqand), F.Xo‘jaev, Rossiya muvaqqat hukumatining vakili Miller, amir, qozi kalon, amir tomonidan yangidan ma’muriy ishga tayinlangan taraqqiyparvar Sharifjon Mahsum bor edilar.

Manifestda amir tomonidan sud (qozixona), soliq ishlarini tartibga solish, sanoat va savdoni rivojlantirish, hamma amaldorlarni nazorat ostiga olish, poytaxt Buxoroni obodonlashtirish, fuqarolarning sog‘lig‘i va rohat-farog‘ati haqida g‘amxo‘rlik qiluvchi maxsus komissiya tuzish va’da qilingan edi.

Shuningdek, manifestda moliya ishlarini tartibga solish, kirim, chiqimlari aniq hisoblangan amirlik byudjetini tashkil etish, umuman xalqqa yengilliklar berish, maorif va fan-texnikani rivojlantirish, bosmaxona tashkil etib, bosma matbuotga asos solish, qamoqxonadagi erkin fikrlilarni ozod qilish ko‘rsatildi.

Bu manifest Buxoroda siyosiy vaziyatning taranglashuviga sabab bo‘ldi. Uni din peshvolari va dindorlar orasidagi o‘ta mutaassiblar shariat qonunlarini buzish, deb qabul qildilar. Taraqqiy parvarlar, ayniqsa, “Yosh buxoroliklar” manifestda o‘zlarining talablari ma’lum darajada hisobga olinganligidan o‘ta quvondilar. Shuning uchun ham ularning ma’lum bir “qizillashgan” qismi amirning insofga kelgani uchun unga minnatdorchilik bildirish maqsadida 8 aprel kuni katta ko‘cha namoyishi uyushtirdilar. Namoyishchilar “Yashasin Amir Olimxon! Yashasin islohot!” deb yozilgan qizil alvonlarni ko‘tarib ko‘chalarga chiqdilar.

“Yosh buxoroliklar” orasida qat’iy birlik yo‘q edi. Ayniqsa, bu, F.Xo‘jaevning ko‘rsatishicha, quyidagi ikki masalada keskinlashadi: 1) kutilayotgan manifestga munosabat; 2) manifest munosabati bilan bo‘ladigan namoyish va targ‘ibot.

Ana shu masalalar sabab “Yosh buxoroliklar” markaziy qo‘mitasining 12 a’zosi orasida ajralish yuz berdi. Abduvohid Burhonov o‘ta “qizillashgan” F. Xo‘jaev guruhi nuqtai nazarini ma’qullaydi. Shundan so‘ng yangi markaziy qo‘mita quyidagi tartibda 9 kishidan iborat qilib saylandi: Abduvohid Burxonov (rais), Fitrat (kotib), Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev (xazinachi) va a’zolari: Muhitdin Rafoat, Musa Saidjonov, Ota Xo‘jaev, Ahmadjon Abdulsaidov, Fayzulla Xo‘jaev va Hamidxo‘ja<sup>61</sup>.

F.Xo‘jaev va uning bilan hamfikr bo‘lganlar shuningdek, yangi markaziy qo‘mita a’zolari tabiatan “rus inqilobchilari” ta’siriga berilgan, asosiy maqsadga

---

<sup>61</sup>Ходжаев Ф. Избранные труды. 1. -Т.: “Фан”-1970, стр-97.

esa faqat Rossiya yordamidagina erishishga ko‘r-ko‘rona ishongan edilar. Ularning mustaqil, mahalliy imkoniyatlarni hisobga olgan, qat’iy yo‘li - dasturi yo‘q edi.

Asosiy xato ham xuddi mana shundan iborat bo‘ldi. Ya’ni Turkiston jadidlari bilan Buxoro jadidlari (aniqrog‘i F.Xo‘jaev tarafdorlari)ning o‘ziga xos farqi ham aynan ushbu masalada ko‘zga tashlandi.

Turkiston jadidlari, yuqorida ta’kidlanganidek, bolshevoylarning va’dalariga ishondi, ammo ayni paytda istiqlol bobida mustaqil o‘z yo‘lini ham tanlab oldi. Bu yo‘lning mohiyati Rossiya oldida to‘g‘ridan-to‘g‘ri taslimchilikdan holi bo‘lgan milliy muxtoriyatchilik asosida hokimiyatni to‘la qo‘lga olish, millat manfaatini dastlab tinch demokratik va keyinroq esa qurol bilan himoya qilishdan iborat edi. Turkiston jadidlari sho‘rolar bosqiniga qarshi so‘nggi imkoniyat qolgunga qadar dadil kurashdilar. Rossiya harbiy kuch-qudratidan cho‘chimadilar va o‘z jonlarini istiqlol uchun garovga qo‘ydilar.

Bolshevoylarning jozibali tashviqot-targ‘ibotlari, quruq havoyi va’dalari va balandparvoz shiorlariga ko‘r-ko‘rona ishongan va aldangan Fayzulla Xo‘jaev boshliq taslimchilarning kurash taktikasidan esa mustamlakachi rus bolsheviklari Buxoro amirligini butunlay tugatib, qizil sultanat tarkibiga qo‘sib olishda ustalik bilan foydalandilar. Rus armiyasi muvaqqat hukumatga tayanib, 8 aprel kuni o‘tkazgan “inqilobiy namoyish», xalqimiz maqolida aytilganidek, “qosh qo‘yaman deb ko‘z chiqarish”dan boshqa narsa bo‘lmadi. Tabiiyki, islom dinining markazlaridan biri bo‘lgan Buxoro ko‘chalarida qizil alvon va bayroqlar ko‘targan “inqilobchi”lar amir, qozi kalon va mutaassib dindorlarni cho‘chitib yubordi. Hatto ularning g‘azabini oshirdi.

Fayzulla Xo‘jaevning iqror bo‘lishicha, jadidlarning keksa, ko‘zga ko‘ringan yetakchilaridan Abduvohid Burxonov va Fazlitdin Mahsum namoyishchilarni qizil alvonlarsiz ko‘chaga chiqishini talab etdilar. Biroq bu haqli talabga hech kim e’tibor bermadi. Buning ustiga-ustak kavkaz va ovrupolik boshqa musulmon hamda nomusulmon yoshlar ham qizil bayroq ko‘tarib namoyishga chiqdilar.

O‘tmishda ham bunday hatti-harakat qanday noxush oqibatlar olib kelganligi tarixdan ma’lum. Jumladan, 1745 yilda Nodirshoh armiyasi bilan Buxoroga kelgan lezginlar, usmonli turklar, eronliklar va afg‘onlar alohida mahallalarda

yashardilar. Ayniqsa, nomusulmon “kelgindi”larning ibodatlari va bayramlari ma’lum belgilangan joy (cherkov)lar va o‘z mahallalari doirasida o‘tkazilishi shart edi. Ular musulmonlarning his tuyg‘ularini haqoratlovchi ommaviy harakat qilishlari, musulmon jamoatchiligi orasida ichimlik (vino) ichishlari, baland ovozda Bibliya o‘qishlari va boshqalar mumkin emas edi. Masalan, 1910 yilda buxorolik sunniylar bilan eronlik shialar o‘rtasida bo‘lgan xunrezlikka shialarning Buxoroda markaziy ko‘cha bo‘ylab, ashur bayramiga bag‘ishlab o‘tkazgan namoyishi sabab bo‘lgan edi. Bunday voqealar o‘tmishda bir emas, bir necha bor yuz bergani ma’lum..

Jadidlar tashabbusi bilan boshlangan namoyish kuni ham “begona kelgindi” va nomusulmonlar o‘tmish sabog‘ini unutib ko‘chaga chiqdilar. Namoyishchilarning soni tez orada 5-7 ming kishiga etdi<sup>62</sup>. Ular o‘zbek va rus tilida “Yashasin ozodlik, konstitutsiya, matbuot erkinligi va maktab mustaqilligi！”, “Yashasin xaloskorimiz - amir！” deb yozilgan alvon transparantlar ko‘tarib olgan edilar. Namoyishchilar Registon tomon yo‘l oldilar. U yerda esa 7-8 ming kishi asosan mulla va mullavachchalar jadidlar namoyishiga qarshi norozi bo‘lib to‘plangan edilar. Registon maydonida amirning 200 ta piyoda, 300 ta otliq askarlari ham shay qilib qo‘yilgan edi.

Bundan xabar topgan jadidlar namoyishchilarni to‘xtatib, tarqatib yubordilar. Shu yerda Ota Xo‘jaev, Hoji Mirbobo Mirmuhsinov, Yusufzoda Abdurahimdan iborat<sup>63</sup> maxsus komissiya qushbegi (amirning ma’muriy boshqarmasi boshlig‘i, birinchi vazir) oldiga borib, namoyish tinch maqsadda o‘tkazilganligini tushuntirmoqchi bo‘lganida qo‘lga olindi. Shundan so‘ng Buxoro ko‘chasida to‘s-to‘polon va tartibsizlik boshlandi.

Namoyishdan asosan dindorlarning katta kismi norozi bo‘lgan edi. Ular mutaassiblik bilan din va shariatni himoya qilib ko‘chaga chiqdilar. Buni o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan S.Ayniy bunday deb yozadi: “Shanba kuni ertalabdan, soat sakkizu o‘ttizda reaksiya. . .(dindorlar demoqchi-mualliflar) yo‘lboshchilar bo‘yinlariga

<sup>62</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 167-bet.

<sup>63</sup>Абдурахим Юсуфзоданимг ҳаёти ва фаолияти қақида қаранг: Шамсутдинов Рустамбек. Истиқлол йўлида шахид кетганлар. Тошкент., “Шарқ”- 2001, 47-78-betlar..

belbog‘larini osib olib qichqirar edi: “Ey musulmon bandalar! Din yo‘qolmoqda, shariat o‘lmoqda, endi ayollarning yuzi ochiladi, qizlaringizni nomusi toptaladi, bolalar kofirlarning maktablarida o‘qiydi. Din himoyachilari, iymon, din, shariat himoyasiga otlaning, g‘azovotga tayyor bo‘ling!”<sup>64</sup>.

Shu kuni kechqurun, yana S.Ayniyning guvohlik berishicha, Buxoro muftilarining muhrlari bosilgan hujjat tayyorlandi. Unda shunday deyilgan edi: “Bayroq ko‘tarib, islohot talab qilgan kishilar hazrati oliylari amirga qarshi chiqdilar. Shuning uchun ham ular gunohkor va isyonchi hisoblanadi. Ularning qonini to‘kish xudoga xush keladigan ish, mol-mulk esa hammanikidir”<sup>65</sup>.

Namoyish qatnashchilari va jadidlardan o‘sha kuniyoq 30 kishi qamoqqa olindi va kaltaklandi. Mirbobo va Ayniyya -75, Mirza Nasrullo - 150 darra urildi. Keyingi kuni darra zarbidan Mirza Nasrullo vafot etdi.

Namoyish fojia bilan tugadi. Hamma oyoqqa turdi. Jadidlarni ta’qib qilish va jazolash kuchaydi. Bu esa namoyishga rahbarlik qilgan markaziy qo‘mita a’zolari orasida yana ajralishni kuchaytirdi. Qo‘mita qayta saylandi. Endi unga Muhitdin Mansurov (rais), Abduqodir Muhitdinov, Muhitdin Rafoat, Abduvohid Burxonov; Usmonxo‘ja Po‘latxo‘jaev, Orif Karimov, Mirza Islom Muhitdinov, Fayzulla Xo‘jaev, Musa Saidjonov va boshqalar kirdilar.

Markaziy qo‘mita yangi Buxoroda turib, rus armiyasi va hukumati yordamida amirga tazyiq o‘tkazishga, uni jadidlarga nisbatan amnistiya e’lon qilishga, ta’qibni to‘xtatishga majbur qilishga harakat qildi. 14 aprel kuni jadidlar rahbarlaridan tuzilgan maxsus komissiya, ertalab yangi Buxorodan kelib, Miller (rus rezidenti) orqali amir bilan uchrashdi. Shu kuni Miller rus aholisini himoya qilish uchun chaqirgan pulemyotchilar rotasi ham Samarqanddan Buxoroga keldi.

Bundan xabar topgan shahar ahli amir saroyini qurshab oldi va jadidlarni dindan qaytgan kishilar sifatida qatl qilinishini talab etdi. Amir bilan suhbat juda qisqa bo‘ldi. U vakillardan jadidlarning o‘z yo‘lidan qaytishi to‘g‘risida yozma ravishda tushuntirish xati berishini so‘radi. Shu bilan birga Nasrullo qushbegi saroyni o‘rab olgan 10 000 kishi jadidlar vakillarini 12 soat ichida qatl qilishni

<sup>64</sup>Медведов В. Нечаянная революция. Дружба народов. 1992, 2-сон, 143-бет.

<sup>65</sup>O’sha manba.

talab qilayotganligi yoki ularni shahardan chiqarib yuborishni so‘rayotganligini, amir esa bunga rozi emasligini aytadi<sup>66</sup>.

Shu 14 aprel kuni Amir Olimxon manifestni bekor qildi. Jadiqlarning vakillari esa aholi tarqab ketgach, soat 12 da saroydan chiqib o‘z homiylari bo‘lgan bolshevoy “inqilobchilar” huzuriga - Buxoroga keldilar. “Yosh buxoroliklar” endi bu yerdagi kommunistlar (Preobrajenskiy, Utkin va Poltoratskiylar) yordamida “qayta tarbiyalanib”, “inqilobiy savod” chiqardilar. Fayzulla Xo‘jaev guruhi bolsheviklar yo‘lini o‘z yo‘li deb tanladi. Agar ular, “Aprel voqealari”ga qadar amirni saqlab qolgan holda, uning hukmronligini cheklash, islohotlar o‘tkazish yo‘lidan borgan bo‘lsalar, endi esa amirni “inqilob”, ya’ni qurol kuchi bilan ag‘darish yo‘lini tanladilar. Bu bolshevikcha “inqilobiy yo‘l” - Buxoro inqilobchilarining bu yangi taktikasi keksa jadidlar tomonidan jiddiy tanqidga uchrab, taraqqiyparvar jamoatchilikning keng doirasi aqlini ko‘p band qildi<sup>1</sup>, deb yozgan edi Fayzulla Xo‘jaev. Ko‘rinib turibdiki, “Yosh buxoroliklar”, ya’ni jadiqlarning hammasi ham “inqilobiy” taktik yo‘lning tarafdoi bo‘lmaganlar.

## 2.2.& “Yosh xivaliklar” harakati

“Yosh xivaliklar” tashkiloti 1917 yilda Xiva jadidlarining so‘l qanotidan ajralib chiqdi. Uning tashkilotchi va asoschilari Husaynbek Matmurodov, Bobooxun Salimov, Polvonniyoz Hoji Yusupov, Mulla Jumaniyoz Sultonmurodov va boshqalar edilar.Ular rus podshosi istibdodi bilan uyg‘unlashgan mustabid xon zulmidan, mutaassiblik, xurofot hamda xilma-xil soliqlarning ko‘pligidan azoblanayotgan xalqni erkin va farovon turmushga olib chiqish, Vatanni iqtisodiy va madaniy taraqqiy ettirish yo‘lida bosh qotirdilar va demokratik islohotlar o‘tkazish, mamlakatda hayotni yo‘lga qo‘yishda xon hokimiyatiga muxolifatda bo‘ldilar. Bu muxolifat orasida xonlikdagi yirik ulamo va amaldorlar vakillari ham bor edi. Jumladan, Bobooxun Salimov islom homysi-shayxul islom, ya’ni qozikalon mansabida edi. U o‘z lavozimidan foydalanib, Xiva xoni Asfandiyorxonni adolatparvar, xalqqa mehr-shafqatli bo‘lishga chaqirdi.

---

<sup>66</sup> Ходжаев Ф. Избранные труды. 1. -Т.: “Фан”-1970, стр-117.

“Turon” gazetasining yozishicha, 1917 yilning 4 aprelida Xiva shahridagi rus askarlari, deputatlari sho‘rosi va Bobooxun Salimov rahbarligidagi “Yosh xivaliklar” namoyish o‘tkazdilar<sup>67</sup>.

Bundan cho‘chigan Asfandiyorxon 5 aprelda “Yosh xivaliklar” qo‘mitasi tomonidan yozilib, unga taqdim etilgan manifestga imzo chekishga majbur bo‘ldi. Bu hujjat asosida Xiva xoni boshchiligidagi konstitutsiyaviy monarxiya tuzumi qaror topadi, deb e’lon qilindi. Saylov yo‘li bilan Deputatlar majlisi va Nozirlar kengashi tashkil topdi.

8 aprelda bo‘lgan Majlisning birinchi yig‘ilishida Deputatlar majlisining raisligiga Bobooxun Salimov, Nozirlar (vazirlar) kengashining raisligiga esa Husaynbek Matmurodov saylandi. Ana shundan so‘ng majlis va hukumat butunlay “Yosh xivaliklar” qo‘liga o‘tadi.

Majlis nomidan e’lon qilingan manifestga ko‘ra, xonlikda vaqf, mulk (xususiy) va podsholik yerlari daxlsizligi saqlanib qoldi, xazinaning kirim va chiqimlari ustidan nazorat o‘rnatildi, shariat sudlari davlat ta’mnotiniga o‘tkazildi, yangi usuldagagi jadid maktablari ochilishi belgilandi.

Majlis deputatlari orasida dastlab turkman millatining vakillari yo‘q edi. Keyinroq ularning talablari ham qondirildi, turkman millati vakillaridan 7 kishi majlis deputatlari tarkibiga kiritildi. Qoraqalpoqlarning vakillari ham Majlisda o‘z o‘rniga ega bo‘ldilar. Bular, albatta, jadidlar rahbarligida boshlangan ozodlik va erk uchun kurashning dastlabki yutuqlari edi.

Ammo bu g‘alaba uzoqqa bormadi. U bor-yo‘g‘i 7 oy umr ko‘rdi, xolos. Asfandiyorxon Rossiya muvaqqat hukumatining Xivadagi vakili general Mir Badalovga suyangan holda 1917 yil iyun oyining boshlarida jadidlar boshliq Majlisga qarshi fitna uyushtirdi. Bu paytda Bobooxun Salimov va “Yosh xivaliklar”ning boshqa yirik namoyondalari Toshkentga Sho‘ro hukumatidan yordam so‘rash uchun kelgan edilar. Xon nozirlar kengashining raisi Jumaniyoz Matmurodov boshliq jadidlarning 17 vakilini qamoqqa oladi. Keyinchalik ularning juda oz qismi qamoqxonadan qochishga muvaffaq bo‘ldi. Qolganlari esa otib

---

<sup>67</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 141-bet.

tashlandi. Jadidlar “Shariatga xiyonat qilganlikda” ayblanib, ta’qib ostiga olindilar va quvg‘in qilindilar.

Xiva xoni Majlisga yangidan “saylov” o‘tkazdi. Uning raisi etib Ortiq Oxun saylandi. Nozirlar kengashining raisi lavozimi esa Bosh vazir deb qayta nomlandi va unga Isoqxo‘ja tayinlandi.

Bu amalda o‘ziga xos davlat to‘ntarishi edi. Bu ishni amalga oshirishdagi xizmatlari uchun xon Mir Badalovga 40000 so‘m pora berdi<sup>68</sup>.

B.Salimovning boshi uchun katta miqdorda pul va’da qilindi. Uning singlisi Ullijonbiy tutib olinib, qiyab o‘ldirildi. Shundan so‘ng B.Salimov va boshqa jadidlar yashirin faoliyat yuritishga majbur bo‘ldilar. Ularning ko‘pchiligi Petro-Aleksandrovskdan - Amudaryoning sho‘ro hokimiyati o‘rnatilgan o‘ng sohilidan boshpvana topdilar.

Asfandiyorxon mamlakatda xalq noroziliklarini bostirish va jadidlarni “tartib”ga chaqirishda rus askarlaridan foydalandi. 1917 yil iyulda Rossiya muvaqqat hukumati Xiva xonligida maxsus harbiy ma’muriyat tashkil etdi. Harbiy komissar Zaysev xonga yordam uchun jazo otryadlarini tashkil etib, shahar va tumanlarga taqsimladi. Xalq ommasining haq-huquqlari rus askarlari tomonidan toptaldi va oyoq osti qilindi. Bu ham yetmagandek, 1917 yilda xonlik hududida ocharchilik avj oldi. May oyida Xiva shahrida “ochlik isyonii” ko‘tarildi. Bu to‘g‘rida 1917 yil 27 avgustda Toshkentda chop etiladigan “Ulug‘ Turkiston” gazetasi quyidagilarni yozgan edi: “Hozirgi paytda Xivada dahshatli ochlik kuchaydi, mamlakat shaharlarida och qolganlarning qo‘rquinchi isyonii avj oldi”<sup>69</sup>.

Ana shunday og‘ir bir sharoitda 1917 yil sentyabrida Junaidxon o‘z qurolli to‘dalari bilan Xivaga qaytib keladi. U 1916 yildagi qo‘zg’olon davrida Afg‘onistonga o‘tib ketgan edi. Junaidxon xonlikda katta o‘zgarishlar yasashga muvaffaq bo‘ldi.

Junaidxon - murakkab shaxs. Uning tarixda tutgan o‘rni haqida turli manbalarda turlicha fikrlar mavjud. Sho‘rolar tarixida u “o‘g‘ri”, “qaroqchi” va

---

<sup>68</sup>Непесов Р. Из истории Хорезмской революции, 1920-1924 гг. Т-1962, стр 81.

<sup>69</sup>O’sha joyda.

“siyosiy tovlamachi”, aksilsho‘roviy adabiyotda esa “turkmanlarning qahramoni”, deb ko‘rsatilgan.

Sho‘ro tarixchilar voqea va hodisalarni soxtalashtirishda ustasi farang bo‘lsalar, albatta, aksilsho‘roviy muxoliflar ham ulardan qolishmaydilar. Junaidxon va boshqa yirik tarixiy shaxslar, ularning faoliyati haqida tarixiy haqiqatni xolisona yoritish uchun mustaqillik imkoniyat yaratdi.

Junaidxon turkmanlarning yovmid urug‘idan, junaid naslidan chiqqan. Uning asl ismi G‘urban Mamed (yani Qurbonmamat) bo‘lgan. U dastlab o‘z ovulida qozi bo‘lgan, miroblik qilgan. Qoraqum sahrosida u o‘z yigitlari bilan bir necha savdo karvonlarini talab, “sardor” nomini ham olgan, bir necha kichik “sardor”larni o‘ziga tobe qilgan va shu tariqa nom chiqargan. So‘ng u o‘zini Xiva taxtiga da’vogar deb e’lon qiladi. Shu bois uni yovmidlarning junaid nasli xoni-“Junaidxon” deb ataganlar<sup>70</sup>.

Junaidxon o‘z yigitlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri Xiva xonligiga xavf solib turgan kommunistik bosqinga, ya’ni sho‘ro hokimiyatiga qarshi bosh ko‘tardi. Uning bu maqsadi nafaqat Asfandiyorxon uchun, balki chor Rossiyasining Xivadagi barcha aksilsho‘roviy harbiylari uchun va umuman milliy mustaqillik uchun kurashayotgan kuchlarga ayni muddao edi.

Asfandiyorxon 1918 yil yanvarida Junaidxon bilan aloqa o‘rnatdi va xonlikni birgalikda idora qilish hamda bolsheviklarga qarshi kurashish maqsadida Xivaga taklif qildi.

Junaidxon va uning tarafдорлари xонning олий амалдорлари oldida eski qabila va urug‘chilik asoslаридаги adovatlarini unutib, sidqidildan xizmat qilishga qasam ichdilar. Shundan so‘ng Asfandiyorxon Junaidxonni «sardori karim» (qo‘sishnlar qo‘mondoni) etib tayinladi.

Junaidxon bu bilan cheklanmay, oradan sal vaqt o‘tgach, 1918 yil 30 sentyabrda xon saroyiga katta o‘g‘li Eshixon rahbarligidagi harbiy qo‘shinni yuboradi. Qabul marosimi vaqtida Asfandiyorxon o‘ldiriladi, uning o‘rniga xонning tog‘asi, irodasiz Sayid Abdulla To‘raxon xon deb e’lon qilinadi.

---

<sup>70</sup> Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 143-bet.

Abdullaxon nomigagina xon edi, butun hokimiyat to‘laligicha Junaidxon qo‘liga o‘tdi.

Bu paytda Turkistonda sho‘ro hukumati inqilob bayrog‘i ostida Moskvaning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmasi bilan Xivaga qarshi “harbiy-inqilobiy” tajovuzkorlikni kuchaytirib yuborgan edi. Sho‘ro tarixida bu “inqilobiy tayyorgarlik”, deb nomlandi. Aslida esa bu tayyorgarlik Xiva xonligini batamom bosib olishni va Sho‘rolar mustamlakasiga aylantirishni bosh strategiyaviy maqsad qilib qo‘ygan edi.

Sho‘rolarning Xiva xonligi mustaqilligiga tahdidi kuchayadi. Shu bois Junaidxon va qo‘g‘irchoq Sayid Abdullaxonning sho‘ro bosqiniga qarshi harbiy tayyorgarlikni kuchaytirishini tarixiy ob’ektiv zaruriyat, deb qaramoq kerak. Ammo urushga tayyorgarlikning hamma og‘irligi zahmatkash xalq yelkasiga tushdi. Quroli yoki oti bo‘lgan har bir kishi navkarlikka (askarlikka) chaqirildi, oti yoki quroli bo‘lmagan har uch xonodon esa bitta otliq navkarni quollantirib, uning barcha xarajatlarini qoplab turishga majbur qilindi. Uch yoki undan ko‘p navkar bergen xonadonlarning yerlarini batraklar tekinga ishlab berishi joriy etildi. Oldingi soliqlar saqlab qolningani holda dehqonlar qo‘shimcha 1-2 tillo pul va 10-12 pud don solig‘i to‘lashi shart qilib qo‘yildi.

Junaidxon vaqtdan yutish uchun 1919 yilning aprelida sho‘ro hukumatiga sulh tuzish to‘g‘risida taklif kiritdi. 9 aprelda Taxtaqal’ada RSFSR bilan Xiva xonligi o‘rtasida sulh shartnomasi imzolandi. Unda har ikkala tomon ham har qanday harbiy harakatni to‘xtatishi, Rossiya sho‘ro hukumati Xiva xalqining o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini tan olishi; har ikki tomon bir-biriga erkin va xavfsiz suv va quruqlik orqali bordi-keldini yo‘lga qo‘yishi, savdo va iqtisodiy aloqalarini yaxshilashga harakat qilishi qayd etildi. Bolsheviklarning eng jozibador «millatlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqi to‘g‘risidagi shiori tashviqot-targ‘ibotchilik maqsadini ko‘zlar edi. Shartnomaga asosan Rossiya ana shu shior asosida Xiva xonligi xalqlarining o‘z taqdirini o‘zi belgilashini rasman tan oldi. Xiva xonligi Rossiya vassalligidan chiqdi. 1873 yilgi Gandimiyon shartnomasi o‘z kuchini yo‘qotdi.

Lekin sho‘ro hukumati nafaqat Xiva xalqiga, balki umuman Rossiyaga tobe bo‘lgan barcha mamlakatlar xalqlariga ham o‘z taqdirini o‘zi belgilash huquqini amalda bermadi. Aksincha, bu davlatlarning ichki ishlari aralashdi, qurolli harbiy yurishlar qildi va ularni bosib oldi. Xuddi ana shu yo‘l Xiva xonligida ham qo‘llanildi:

Birinchidan, bosqinchilik va mustamlakachilikdan iborat bosh maqsad “inqilob” pardasi bilan niqoblandi, targ‘ibot va tashviqot ishlari kuchaytirildi. Bolsheviklarning asl maqsadlari Xivada davlat to‘ntarishi yasashdan iborat bo‘lsada, uni “xalq inqilobi” nomi bilan niqobladilar.

Ikkinchidan, bolsheviklar millatlar, urug‘lar va tabaqalararo kelishmovchilik va nizolardan ustalik bilan foydalandilar. Ular o‘rtasida qurolli to‘qnashuvlarni keltirib chiqardilar, bunday to‘qnashuv va qarama-qarshiliklarga sinfiy kurash va inqilobiy harakat tusini berdilar. Aslida esa, butun Turkistonda bo‘lganidek, xususan Xiva xonligida sinflar ham, sinfiy kurash ham bo‘lmas. Xiva xonligi tipik agrar mamlakat edi. U tashqariga (asosan Rossiyaga) paxta chiqarar edi, xolos. Ana shu ob‘yektiv ijtimoiy-iqtisodiy sharoit va siyosiy tarixiy borliqqa qarama-qarshi o‘laroq rus bolsheviklari Xiva xonligida “qo‘lbola proletar inqilobi”ni tayyorlash uchun barcha jirkanch, noqonuniy, nodemokratik va noxalqchil hatti-harakatlarni ishga soldilar. Ular turli nayranglar bilan taraqqiyparvar jadidlar va oddiy mehnatkash xalqdan “inqilobchilar” yasadilar<sup>71</sup>.

Ana shu nuqtai nazardan qaraganda, “Taxtaqal‘a sulhi” Xiva xonligi uchun o‘ziga xos tuzoq rolini o‘ynadi. Chunki bu sulh Xiva xalqiga o‘z taqdirini o‘zi belgilashini rasman e’lon qilishi bilan uni chalg‘itdi va sho‘ro hukumatining go‘yo tinchlik tarafdori bo‘lganligini ko‘rsatib, xalq ongini zaharladi. Bu sulh kuch to‘plab olish va nafasni rostlash uchun sho‘ro niqobidagi bosqinchilarga juda zarur edi.

1917 yil dekabri va 1918 yil yanvarida sho‘rolar Amudaryoning quyi oqimi va o‘ng qirg‘og‘idagi To‘rtko‘l (Petro-Aleksaidrovsk), Nukus, Chimboy, Qizil Arvot, Bayram Ali, Tejen, Krasnovodsk, Kazanjikda o‘z hokimiyatlarini

---

<sup>71</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh., Vatan tarixi. 3-kitob. T.: “Sharq”-2010. 145-bet.

o‘rnatdilar. 3 dekabrda Ashxobodda Kaspiyorti viloyati xalq komissarlari kengashi tashkil topdi. Chunki, bu hududlarda ruslar boshqa joylardagiga nisbatan ko‘pchilikni tashkil etar edi.

Kommunistlar o‘zlarining razil maqsadlarini amalga oshirish uchun To‘rtko‘l shahrini “inqilob markazi”ga aylantirdilar. To‘rtko‘l siyosiy va strategik jihatdan juda qulay joy edi. Shu boisdan ham RSFSR va uning O‘rta Osiyodagi asosiy tayanchi - Turkiston Xalq komissarlari Kengashi bu shaharga katta e’tibor berdi. Bu yerga zudlik bilan Kaspiyorti frontidan bir necha harbiy bo‘limlar tashlandi. Ular mahfiy ravishda xonlikning ichkarisi - Xiva va boshqa shahar hamda tumanlarga doimiy ravishda o‘z “inqilobchi”larini -josuslarini yuborar edilar. Kommunistik ig‘vo tashviqotga aldanib, Qalandar Odinaev, Bozorboy Suyarqulov, Shallazatdin Faxretdinov va boshqalar bolshevoylar firkasi safiga kirdilar va targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib bordilar.

Sho‘ro hukumati va komfirqaning Turkistonda cheklanmagan ma’muriy va firqaviy vakolatga ega bo‘lgan “Turkkomissiya”, “Turkbyuro” kabi tashkilotlari xonga qarshi undan jabrlangan alamzadalardan firqa tashkil etish, turli xil qo‘poruvchilarni tayyorlash, harbiy texnika bilan qurollangan qizil askarlar sonini ko‘paytirish uchun kuch va mablag‘larni ayamadi. Rus sotsial-demokratik firqalari, ayniqsa bolsheviklar o‘zlarining asosiy diqqat-e’tiborlarini Xivaga qaratdilar. Jadidlarning yirik namoyondalaridan Jumaniyoz Sultonmurodov 10-15 kishidan iborat “Yosh xivaliklar”ning To‘rtko‘l qo‘mitasi (komiteti)ni tashkil etdi. 1919 yiling boshida bu tashkilot (firqa) a’zolarining soni 600 ga yetdi, 200 kishilik o‘z harbiy qismiga ham ega bo‘ldi”<sup>72</sup>.

Asli jadidlardan bo‘lgan bu «yosh xivaliklar»ning dasturiy talablari ham 180 gradus farq bilan ulug‘ rus millatchiligi va mustamlakachiligi foydasiga o‘zgardi. Agar ilgari ular Xivada xonning mutlaq monarxiyasini konstitutsiyaviy monarxiya bilan almashtirish, Xivaning mustaqilligi va xususiy mulkchilikni saqlab qolish uchun kurashgan bo‘lsalar, ularning yangi dasturida bu talablarning aksi qayd

---

<sup>72</sup>Садиков А.С. Россия и Хива в конце XIX - начале XX века. Ташкент., Фан-1972, стр-199.

etiladi. Jumladan, unda xon xokimiyatini ag‘darib tashlab, Xivani Rossiya Sho‘ro federativ respublikasiga butunlay birlashtirish g‘oyasi bosh maqsad qilib qo‘yildi.

Xullas, «Yosh xivaliklarning bolsheviklar ta’sirida inqilobiyashuv jarayoni kuchayadi. Bu ularning quyidagi amaliy dasturida o‘z aksini topdi:

1. Mustabid xon xokimiyatini tugatish.
2. Xiva mulkclarini (yerlarini - mualliflar) Turkiston bilan birlashtirib, ularni Rossiya Sho‘ro Respublikasi tarkibiga kiritish;
3. Xiva xoni shahzodalari, beklari va vazirlariga tegishli mulklarni qanday bo‘lishidan qat’i nazar musodara qilish.
4. Yirik pomeshchik (dehqon)larning yerlarini kambag‘allarga tortib olib berish.
5. Vaqf mulklardan keladigan daromadlarning hammasini machitlarga sarflash;
6. Xivaning hamma joyida bolalarmi tekin o‘qitadigan maktablar ochish.
7. Xivaning shahar va aholi yashaydigan joylarida tekin tibbiy yordam beradigan kasalxona va davolash xonalarini tashkil etish.
8. Xiva xoni tomonidan tortib olingan yer va boyliklarni kambag‘al aholiga qaytarish.
- 9.Yo‘llarni yaxshilash va ko‘priklar qurilishiga kirishish.
- 10.Majburiy mehnat turlarining hammasini bekor qilish.

Xon hukmronligini tugatib, yuqorida ko‘rsatilgan tadbirlarni hayotga tatbiq eta oladigan xalq hokimiyatini tashkil etish, sho‘ro hokimiyatining dushmanlari bilan shafqatsiz kurash olib borish<sup>73</sup> kabilar.

“Yosh xivaliklar” ning “inqilobiy dasturi” amalga oshishidan Rossiya sho‘ro hukumati va kommunistik firqa manfaatdor edi. Sho‘rolar o‘z maqsadlarini amalgalashirishda har doim «baynalmilal burch» deb atalmish g‘oya pardasiga yashirindilar. Buning uchun ular o‘zlarini mahalliy xalqni xon, beklar, boy va zamindor zulmidan ozod bo‘lishda “yordam” beruvchilar qilib ko‘rsatib, amalda “harbiy inqilobiy” harakatni kuchaytirdilar.

---

<sup>73</sup>Садиков А.С. Россия и Хива в конце XIX - начале XX века. Ташкент., Фан-1972. Стр-119-120.

Bu borada ular “Yosh xivaliklar” ning islohotchi tashkilotini komfirqaga aylantirish va mahalliy “inqilobchi”larni ko‘paytirish zarur deb, hisobladilar. Shuning uchun To‘rtko‘ldagi g‘ayrimusulmon kommunistik firqa qoshida “yosh xivaliklar bo‘limi” tashkil etildi. 1919 yilning o‘rtalarida bu guruh Turkiston va Rossiya komfirqalari Markaziy qo‘mitalariga murojaat qilib, Rossiya kommunistik firqasi tarkibiga kirish uchun ruxsat so‘radi. Shu yil 15 iyulda komfirqaning To‘rtko‘l qo‘mitasi va “Yosh xivaliklar” inqilobiy qo‘mitasining birlashgan yig‘ilishi bo‘ldi. Unda qabul qilingan maxsus qarorda qo‘mita a’zosi bo‘lish uchun faqat Rossiya komfirqasi safida bo‘lish shart qilib qo‘yildi. Shundan ham ma’lumki, hamma ish, ya’ni xon hokimiyatini ag‘darish markaz chizgan chiziq asosida amalga oshirilishi kerak edi. Boshqa yo‘ldan borish mumkin emas edi.

Sho‘rolar davrida yozilgan manbalarda 1919 yilning kuzi va oxirlariga kelib Xivada “inqilobiy harakat” yangi bosqichga ko‘tarildi, “inqilobiy vaziyat yetildi”, “Xivada inqilob boshlandi”, deb rus kommunistik bosqini teskari talqin qilindi. Bu sho‘ro tarixchiligiga xos soxtakorlik edi, albatta. Xivada bundan oldin va keyin ham inqilob u yoqda tursin, hatto uning sharpasi ham bo‘lgan emas. To‘g‘ri, bu davrda xalq ommasining xon zulmidan noroziligi kuchaygan edi, sho‘ro hokimiyati va komfirqaning bosqinchilik harakati hamda mustamlakachilik siyosatiga qarshi ozodlik kurashi boshlangan edi. Bu harakatlar sho‘ro tarixchiligida “xalq inqilobi” deb ko‘rsatildi. Har ikki tomon ham shu paytgacha oshkora va yashirin ravishda bir-biriga qarshi qurollandi, harbiy kuch to‘pladi, targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib bordi. Nihoyat, bu harakatlar sho‘ro hukumati bilan xonlik o‘rtasida o‘zaro harbiy to‘qnashuv boshlanishiga olib keldi. Bu urush rus sho‘ro hukumati tomonidan bosqinchilik urushi, Xiva hukmdori Junaidxon tomonidan esa mustaqillik uchun, istiqlol uchun urush bo‘ldi.

### **2.3.& II-bob bo‘yicha xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, “Yosh buxoroliklar” va “Yosh xivaliklar” tashkilotlari o‘z mamlakatlarini Rossiya imperiyasining yarim mustamlaka zulmidan ozod qilish, zamonaviy demokratik davlat qurish uchun

kurashdilar. F.Xo'jaev va uning bilan hamfikr bo'lganlar shuningdek, yangi markaziy qo'mita a'zolari tabiatan «rus inqilobchilari» ta'siriga berilgan, asosiy maqsadga esa faqat Rossiya yordamidagina erishishga ko'r-ko'rona ishongan edilar. Ularning mustaqil, mahalliy imkoniyatlarni hisobga olgan, qat'iy yo'li - dasturi yo'q edi.

Asosiy xato ham xuddi mana shundan iborat bo'ldi. Ya'ni Turkiston jadidlari bilan Buxoro jadidlari (aniqrog'i F.Xo'jaev tarafdarlari) ning o'ziga xos farqi ham aynan ushbu masalada ko'zga tashlandi.

Turkiston jadidlari, yuqorida ta'kidlanganidek, bolshevoylarning va'dalariga ishondi, ammo ayni paytda istiqlol bobida mustaqil o'z yo'lini ham tanlab oldi. Bu yo'lning mohiyati Rossiya oldida to'g'ridan-to'g'ri taslimchilikdan holi bo'lgan milliy muxtoriyatchilik asosida hokimiyatni to'la qo'lga olish, millat manfaatini dastlab tinch demokratik va keyinroq esa qurol bilan himoya qilishdan iborat edi. Turkiston jadidlari sho'rolar bosqiniga qarshi so'nggi imkoniyat qolgunga qadar dadil kurashdilar. Rossiya harbiy kuch-qudratidan cho'chimadilar va o'z jonlarini istiqlol uchun garovga qo'ydilar.

### **III-BOB: TURKISTON O'LKASIDA QUROLLI QARSHILIK HARAKATI QATNASHCHILARI VA ULARGA HAYRIHOH BO'LGAN KUCHLARGA NISBATAN OLIB BORILGAN OMMAVIY QATAG'ONLIK SIYOSATI**

#### **3.1.& Turkiston o'lkasida sovet hukumatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag'onlik siyosati**

Turkistondagi qurolli harakatni bostirish ayniqsa 1920 yil may oyining o'rtalarida o'lkaga M.V.Frunzening kelishi munosabati bilan yanada dahshatli tus oldi. Kurashning siyosiy va murosasozlik yo'lidan voz kechildi. "Bosmachilarga qarshi hal qiluvchi so'nggi kurash" shiori bu davrning asosiy yo'naliishi edi. Kurashning asosiy va bosh usuli zo'rlik va kuch ishlatishga qaratildi. Farg'ona

vodiysi ikkinchi marta harbiy holatda deb e'lon qilindi. Ommaviy qatag‘onlar boshlandi. Vodiydagи butun fuqorolik boshqaruv ishlari avgust oyida tuzilgan Harbiy Kengash ixtiyoriga topshirildi. Aslini olganda Farg‘ona vodiysida zo‘rlikka tayanuvchi harbiy diktatura o‘rnatildi. Turkfront RHK a’zosi P.I.Baranov Farg‘ona vodiysining diktatorligi lavozimiga tayinlandi. M.V.Frunze qo‘mondonligidagi Turkiston fronti Inqilobiy Harbiy Kengashi qurolli qarshilik harakatini qonundan tashqari deb e'lon qildi, uning rahbarlari bilan olib boriladigan har qanday muzokaralarni ta’qiqladi, ozodlik va milliy mustaqillik uchun kurashayotgan barcha kuchlarni qirib tashlash lozimligi to‘g‘risida dasturiy ko‘rgazma berdi. Bu dastur “Qizil armiyaning bosmachilarni tugatishdagi roli” deb atalgan dasturiy to‘plamga mos va xos edi. Unda quyidagi daxshatli ko‘rsatma berilgan edi: “Biz bosmachilardan faqat yerli aholini qirib tashlash orqaligina qutulamiz”<sup>74</sup>. Shundan so‘ng qurolli harakat qatnashchilari va ularga yordam berayotgan tinch aholi vakillari va ularning oilalariga nisbatan shafqatsiz qatag‘on usullari qo‘llanildi. Masalan: Turkiston Favqulodda komissiyasi (CHK) Maxsus bo‘limi qarori bilan 1920 yil may oyining boshida Farg‘ona vodiysidagi qurolli qarshilik harakati qatnashchilari ayg‘oqchisi deb M.Rahimov, qurol yarog‘ etkazib beruvchilar deb A. Otajonov, U. Umrzaqov, qurolni sotib olib beruvchilar S.Ollanazarov, Jumaboev, Magamedov, shuningdek Qizil armiya qo‘shinlarining joylashuvi, ularning soni haqida ma’lumot berib turgani uchun Mullabobo Toshmuhammedovlar otildi.

Qurolli harakatni bostirish choralari kuchaytirishda markazlashgan boshqaruvni tashkil etish maqsadida 1920 yil 1 iyunda Turkfront qo‘mondonligi 2-Turkiston o‘qchi dviziyasi harbiy kengashi tuzib unga butun Farg‘ona frontidagi qo‘shinlarni bo‘ysinishi haqida buyruq chiqardi. 17 iyunda 2-Turkiston dviziyasi harbiy kengashi “Bosmachilikni tezroq tugatish va Farg‘onada tinchlikni o‘rnatish” maqsadida boshqaruvni harbiy xokimiyatga topshirish haqida qaror qabul qildi.

---

<sup>74</sup> “Мулокот”, Т-1994 йил, 5-6-сонлар. 36-бет.

Sovet xukumati vodiyda askarlar soni va texnika, quroq yarog‘ni ko‘paytirish orqali tezroq qurolli harakat qatnashchilarini qirib bitkazishni xoxlardi. Shu maqsadda sovet xukumati Farg‘ona vodiysiga Qizil armiyaning yangidan-yangi qismlarini jo‘nata boshladi<sup>75</sup>.

Buxoroni qizil armiya qismlari zabt etishi yakinlanishi natijasida Turkiston fronti qo‘mondonligi 1920 yil oktabriga kelib Farg‘ona frontida G.V.Zinovyev qo‘mondonligida 42 ta batalyon, 137 ta rota, 34 ta yuz kishilik piyoda qo‘shin 14 ta to‘pchi va minamyotchilardan iborat minomyotchilar bo‘linmasi, 11262 piyoda, 4241 otliq-jami 27687 kishilik qo‘shinga ega bo‘ldi. Ular ixtiyorida 66 og‘ir to‘plar, 376 ta pulemyot, 19658 ta miltiq, 6 ta samalyot, 3ta aerostat, 4 ta bronepoezd, 6ta bronevik mashinalar va boshqa quollar bor edi<sup>76</sup>.

Shu qadar katta qo‘shin bolsheviklar hukumati tomonidan ozodlik, erk uchun kurashayotgan qurolli harakat qatnashchilariga qarshi tashlangan edi, vaholanki ularning soni ko‘rsatilgan davrda bor-yo‘g‘i 6450 kishi bo‘lib, ularning ko‘pi quroq yarog‘isiz edi<sup>77</sup>.

Farg‘ona vodiysida kuchlar teng emas edi. Qizil armiya o‘z ustunligidan foydalanib qurolli harakat qatnashchilariga qarshi butun front bo‘ylab hujumga o‘tdi.

Farg‘ona frontining 5-6-o‘qchi brigadalari, otliq maxsus bo‘linmalari, ixtiyoriy Marg‘ilon militsiya bo‘linmalari bilan birgalikda Garbobo, Yozyovon, Qoratepa va Shaxrixonda joylashgan Shermuhammadbekning 3 ming kishilik qo‘shiniga zarba berdi. Katta yo‘qotishlardan so‘ng SHermuhammadbek Eskinavqotga chekinishga majbur bo‘ldi. Maxsus otliq bo‘linma 800 kishilik Aliyorbek qo‘shinlariga Vodilda zarba berib, ko‘pini qirib tashladi. 7-8-va 9-otliq qo‘shin xuddi shu vaqtda Xolxo‘ja, Muxiddinbek, Parpi qo‘rboshilar boshliq bir necha minglik Aravon, Eskinavqot, Qo‘qonqishloq, Bozorqo‘rg‘on orqali O‘sh, O‘zgan, Guljaga yo‘nalgan ozodlik kuchlariga zarba berib ularga katta talofat etkazdi<sup>78</sup>.

<sup>75</sup> Боевой путь войск Туркестанского военного округи. М-1959. С-122.

<sup>76</sup> О‘sha joyda. 148-иш.в.17-30.

<sup>77</sup> О‘sha joyda. в.25-27.

<sup>78</sup> Боевой путь войск Туркестанского военного округи. М-1959. С-120-124.

Shunday og‘ir sharoitda ham qurolli harakat qatnashchilar ozodlik erk uchun kurashi bir daqqa ham susaytirmadilar. Shu bois bolsheviklar hukumati 1920 yil dekabr o‘rtalarida ham qurolli harakat qatnashchilariga qarshi 11352 kishilik piyoda qo‘shin, 3378 kishilik otliq qo‘shin, jami-30770 kishilik qo‘shin, 61 ta og‘ir artileriya to‘plari, 324 pulemyot, 23556 miltiq, 6 samolyot va boshqa qurollarni ushlab turdi.

Sovet xukumati harakat qatnashchilarini bostirish uchun hech qanday qabixliklardan qaytmadi. Aholini qaytib sovet xukumatiga qarshi bosh ko‘tarmasligi uchun qurolli harakat qatnashchilarini aholi orasida hech qanday sud va so‘roqsiz otib tashlardilar. Urush davrida asir tushganlarni esa joyida otib tashlashga maxsus ko‘rsatma berilgan edi. Aniqrog‘i ommaviy qatag’onliklarni amalga oshirardilar.

Qurolli qarshilik xarakati qatnashchilariga qarshi kurashda sovet xokimiyati kurashning turli uslublaridan foydalandi. Ularga qarshi tashviqot olib borish bilan birga, sotib olish uslublaridan ham foydalandi. Jumladan qo‘rboshilarning boshi uchun mukofotlar e’lon qilindi. Farg‘ona qo‘shinlari bo‘linmasi harbiy inqilobiy sovetining 1920 yil 13 noyabrdagi №55 sonli buyrug‘ida quyidagi qo‘rboshilarning boshi uchun pul mukofotlari va’da qilingan.

Qo‘rboshi Ko‘rshermatni (SHermuhammadbekni-S.X.) o‘ldirganga-15000 so‘m, Zahalilxojiga-10000 so‘m, Parpiga-7000 so‘m, Nurmatga-5000 so‘m, Oliyorga-5000 so‘m, Muxiddinbek boshiga-5000 so‘m, Yo‘lchi qo‘rboshiga-5000 so‘m, Raxmonqulga-5000 so‘m, Vasiliy Donets uchun-5000 so‘m, Ro‘zimatga-3000 so‘m, Dehqon Boyvachchaga-1500 so‘m, Islomqulni o‘ldirganga-1000 so‘m va’da qilingan.

1921 yil dekabr oyining oxirlarida Yormat Maxsum, Nurmat-Mingboshi va Azamat qo‘rboshi boshchiligida 800 ga yaqin istiqlolchilar SHoximardon machitida qizil armiyaning 8-Otliq askarlar dviziyasi tomonidan qo‘rshovga olinib qirib tashlandi, Musulmonlar ibodat qiluvchi machitni ham yoqib yuborishdi.

1922 yil davomida Farg‘ona vodiysida harakat qilgan istiqlolchilik harakati qatnashchilar bo‘lgan Qoraboy, Parpi, Toshmat, Nurmat Mingboshi, Qozoqboy,

Xamdamqo‘rboshi, Islomqul va boshqa o‘nlab qo‘rboshilar otryadlarini qizil armiyaning 8-otliq askarlar dviziyasi qirib tashladi.

G.Frezerning qayd etishicha 1922 yil iyunida qurolli xarakatni bostirish uchun Rossiyadan uchta polk jo‘natilgan, general Budyoniy avgust oyida Rossiyadan Andijonga kelib, o‘z qo‘sishinlarini uch qismga bo‘lib, Qo‘qon, Marg‘ilon va Andijonga joylashtirgan. Andijon va O‘zgan o‘rtasida “bosmachilar” joylashgan Gurungmozorda Budyoniy 50 kishini qamoqqa olgan<sup>79</sup>.

Qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga qarshi kurashda militsiya xodimlari ham keng jalg qilinadi. Turkiston militsiyasi qizil armiya holatiga o‘tkaziladi, so‘ngra militsiya bo‘limlari sovet hukumati tomonidan qurolli qarshilik harakatiga qarshi o‘tkazilayotgan kurashlarga jalg etildi. Turkiston ASSR Militsiya boshqarmasi boshlig‘i 1920 yil 13 yanvarda yozgan o‘z xisobotida quyidagilarni ma’lum qilgan edi: “Toshkent uezdining Xonobod va Pskent uchastkalarida “bosmachilar”ga qarshi uyushtirilayotgan janglarda militsiya xodimlari bilang harbiy qismlar birgalikda kurashmoqdalar... Bundan tashqari, Farg‘ona viloyatidagi dovonlarga militsiya postlari o‘rnatalgan”<sup>80</sup>.

1923 yil 5 fevralda Qo‘rg‘ontepa qishlog‘ida 15-otliq militsiya bo‘linmasi Tursunov qo‘rboshini 4 ta yigit bilan qurshab oladi. Jangda qo‘rboshi o‘ladi, 2ta yigitini asir olishib, o‘sha erda sudsiz-so‘roqsiz otib tashlashadi.

14 fevralda Marg‘ilonning Bo‘tan qishlog‘ida Yusufjon Maxsum qo‘rboshining 80 kishilik yigitlari bilan militsiya va qizil armiyani birlashgan qo‘sini o‘rtasidagi jangda 50 yafqin qo‘rboshi yigitlari o‘ldiriladi, 2 kishi asir olinadi<sup>81</sup>.

1923 yil 9 iyunda Farg‘ona viloyati ishchi-dehqon militsiyasining konferensiyasida militsianing Farg‘ona viloyatida qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga qarshi kurash choralari alohida masala sifatida ko‘rilib, harakat

<sup>79</sup> Гленда Фрэзер. Босмачилар. Лондон-1987. 83-бет.

<sup>80</sup> Ерметов А. Туркистанда назорат органлари фаолияти (Ишчи-деўқон милицияси ва Ишчи-дехқон инспекцияси 1917-1924 йилларда) Т-2007. 74-75-бет.

<sup>81</sup> O’sha joyda. в.29.

qatnashchilari va ularga xayrixox bo‘lganlarga nisbatan beayov kurashishga qaror qilinadi<sup>82</sup>.

1922 yil kuzida sovet hukumati Muhriddinbekni va uning bir qator yaqin qo‘rboshilari bilan Oloy tog‘ida qo‘lga oldilar va O‘shda otib tashladilar. Qizil askarlar sovet xukumatining 1922 yil mart oyidagi qurolli qarshilik harakati qatnashchilari bilan muzokaralar olib bormaslik va ularni majburan zo‘rlik asosida taslim qilish to‘g‘risidagi buyrug‘iga asosan iyundan boshlab yana dahshatli xujumni kuchaytirdilar. 1922 yilning fevral-oktabr oylarida Farg‘onada qizil armiyaning dahshatli xujumlari oqibatida 200 ga yaqin qurolli xarakat guruhlaridan (“band”) 119 tasi (4ming kishi) tugatildi.

Hatto o‘z xoxishi bilan taslim bo‘lgan qo‘rboshilarni ham otuvga hukm etildi. Turkiston fronti harbiy tribunalining Qo‘qondagi ko‘chma sessiyasida Islomqul Sultoqulov (Islom Paxlovon), Yunus Ali Muxammad Musaev, Boyastan Shopulatov va Sulton SHopulatovlarning ishini ko‘rib chiqib ularni otuvga hukm etdi. Vaxolanki Turkiston MIKning SSSR inqilobiy harbiy soveti a’zosi I. Hidiraliev raisligida 1923 yil 2 dekabrdagi yig‘ilishida ushbu qaror ijrosini to‘xtatib turish haqida qaror chiqarishgan edi, biroq 8 dekabrdagi keyingi yig‘ilishida O‘rta Osiyo byurosi raisi YA. Rudzutak talabiga muofiq yuqoridagi qaror bekor qilindi.<sup>83</sup> Qo‘rboshilar qatl etildi. Sovet hukumatining qatag‘on siyosatidan qamoqdan ozod etilgan, yoki qamoqdagi xarakatning hatto oddiy qatnashchisi ham, tinch axolining harakat qatnashchilariga yordam bergenlikda gumon qilingan kishilar ham qochib qutila olmadilar. Xalqni qo‘rqtish va terror orqali qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurash olib borildi.

Ma’lumotlarni solishtirish, taqqoslash orqali shunday xulosaga kelishi mumkinki 1923 yildagi Farg‘ona vodiysidagi qator to‘qnashuvlar oqibatida qarshilik ko‘rsatish harakati qatnashchilaridan (o‘lgan yoki qurolni topshirgan) 348 qo‘rboshi va 4 mingdan ortiq kishi yo‘q qilindi.<sup>83</sup>

<sup>82</sup> О’ша joyda. 616-иш, в.79.

<sup>83</sup> Ўз Р МДА, 17-фонд, 1-рўйхат., 45-й.ж., 332-варак

<sup>83</sup>Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Т.: Шарқ-2000. Ст-377.

1923 yilda amalga oshirilgan barcha qirg‘inlar, qatag‘on tepasida SSSR harbiy kuchlarining bosh qo‘mondoni shaxsan S.S.Kamenovning o‘zi turdi. U Moskva “Harbiy inqilobiy kengashi”ning a’zosi Zafesov va Turkiston fronti qo‘mondoni M.V.Frunze bilan birgalikda qurolli xarakatni tugatish rejasini ishlab chiqdi va uni amalga oshirdi. Bu ishlab chiqilgan reja “Bosmachilik (banditlik) bilan kurash tizimi” deb nomlangan. 123 moddadan iborat bo‘lgan bu xujjatda jumladan quyidagilar rejalashtirilgan edi: 1) Qizil armiya bo‘linmalarini aholi yashaydigan barcha joy (punkt)larga safarbar qilish; 2) Havo hujumini tashkil etish; 3) Har bir okrugda harbiy kengash tashkil qilish; 4) Butun Qizil armiyachi bo‘linmalarning hujumi uchun yagona kunni belgilash; 5) Qurolli harakat qatnashchilarini bostirish uchun zaharlovchi gazdan foydalanish,<sup>84</sup> kabilar rejalashtirdiki bu ommaviy qatag‘onga sabab bo‘ldi.

Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, 1921 yilning boshlarida o‘lka tashqarisiga 2000dan ortiq odam sovet organlari tomonidan chiqarib yuborilgan bo‘lsa, 1921 yil mart-may oylarida bu ko‘rsatkich 300 tani tashkil etgan. Bu xol achinarli bo‘lib, buning oqibatida ko‘plab yurtdoshlarimiz o‘z ishlaridan ayrılib, ayrimlari esa onavatandan ham judo bo‘lishgan. Aslini olganda o‘sha yillarda Turkistonni minglab kishilar tark etib, ular xorijiy davlatlarga muxojir bo‘lib jo‘nab ketishgan.<sup>85</sup>

Turkiston MIK 1920 yil yanvar oyida qurolini topshirib taslim bo‘lgan qurolli harakat qatnashchilariga (hujjatda bosmachilar-S.X.) afv e’lon qildi. 31 yanvarda Maxkamxoji, Akbarali va Parpi otryadlari (5mingdan ortiq kishi) taslim bo‘ldi.<sup>86</sup> Bu afv etish aslida sovet xokimiyatining qurolli harakatni bostirish chog‘ida qo‘llagan siyosiy o‘yini edi. Real voqelikda esa buning aksi bo‘lib chiqdi.

Aksincha Sovet xukumati o‘z ixtiyori bilan qurollarini tashlab taslim bo‘lgan qurolli harakat qatnashchilarini ayab o‘tirmadi. 1921 yil boxorida Boytuman

<sup>84</sup>Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Иккинчи китоб. Андижон-1998. 193-194-bet.

<sup>85</sup>Туркистондаги муҳожирлик масаласи хақида батафсил қаранг: Ҳайитов Ш., Салмонов А., Йўлдошев С. Ўзбек муҳожирлиги тарихидан лавҳалар-Фарғона:Фарғона.1998; Ҳайитов Ш., Бадриддинов С. Ватан дея ватансиз қолганлар қисмати. Бухоро-2005 ва б.

<sup>86</sup> Советская деревня глазами ВЧК-ОГПУ-НКВД. 1918-1939. Документы и материалы. Том 1, 1918-1922. М. РОССПЭН-1998., С-767.

qo‘rboshi o‘z ixtiyori bilan sovet hukumatiga taslim bo‘ldi. Ammo qizil askarlarning Farg‘ona guruhi qo‘mondoni Zinov’evning buyrug‘iga asosan Boytuman qo‘rboshi va uning 40 kishidan iborat yigitlari qirib tashlandi.<sup>87</sup>

Sovet xukumati 1921 yilda bir qator dekretlar e’lon qilib istiqlolchi kuchlarga ma’naviy jihatdan ta’sir qilishini ham kuchaytirdi. 23 dekabrdagi dekret bilan shariat qonunlari tiklandi: Qozilik erkinligi berildi, diniy maktablarni ochishga ruxsat berildi. Xatto xususiy savdoga ham yo‘l qo‘yildi. Bu vaqtincha sovet xokimiyatining chekinishi, o‘zini erli xalqqa yon bosayotgan qilib ko‘rsatish edi. Keyinroq bu berilgan imkoniyatlar yo‘q qilindi. Shuningdek, qurolli harakat yetakchilari bo‘lmish qo‘rboshilarni ovlashi, ularni qarmoqqa olish harakati davom ettirildi. Bunday holat 1922 yilning boshlarida ayniqsa kuchaydi. Shu yili Farg‘ona vodiysida nomdor qo‘rboshilardan bo‘lgan Islomqul o‘zining 60 yigit bilan qizil armiyaga taslim bo‘ldi. Adolatpesha sovet xukumati Islomqul qo‘rboshini 1932 yili sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan “bosmachilik” harakati yetakchisi deb GPU “uchlik”ning xukmiga ko‘ra 5 yilga ozodlikdan maxrum etdi.

OGPUning Muxtor vakilligi xuzurida tuzilgan “bosmachilik”ka qarshi kuarshuvchi Favqulodda “troyka”si Samarcandda Sergaziev raisligida 1922 yil 31 avgustda 200 ta qurolli qarshilik xarakati qatnashchilari va ularga yordam bergen maxalliy aholi vakillari ustidan o‘zini xukmini chiqargan, ulardan aksariyati “inqilobiy” tribunal hukmiga qo‘shilib oliv jazo otishga xukm etilgan.

1922 yil 6 sentabrda Baxrom O‘g’riboshi o‘z ixtiyori bilan qo‘l ostidagi yigitlari bilan taslim bo‘ladi. Biroq Samarcand uezdi “inqilobiy” tribunal o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan Baxrom Qo‘rboshi va uning yigitlarini 1 yildan 10 yilgacha muddatga qamoq jazosiga xukm etdi.<sup>88</sup>

1922 yil 19 sentyabrda Turkiston Fronti qo‘mondonligining Kuchmin imzosi bilan joylardagi armiya va miliitsiya bo‘linmalariga taslim bo‘lgan oddiy qurolli qarshilik harakati qatnashchilari va kichik qo‘rboshilarni Turkiston Fronti Inqilobiy Xarbiy Sovetining 13 sentyabrdagi №4295 sonli qaroriga muofiq ularni har qanday avf so‘rashlariga qaramay qamoqqa olish haqida ko‘rsatmasi tarqatildi,

<sup>87</sup>Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Иккинчи китоб. Мерос. Андижон-1998. 187-бет.

<sup>88</sup> О‘sha joyda.

unda qayd etilishicha qurolli harakat qatnashchilarining oddiy yigitidan kichik qo‘rboshisigacha hech qanday raxm shafqat ko‘rsatmaslik, ular taslim bo‘lgan chog‘da xam zudlik bilan og‘ir sharoitli qamoq joylarda ushlash haqida uqtiriladi.

1922 yil 21 sentabr kuni Farg‘ona qo‘rboshilaridan Muhriddinbek Usmonaliev, yordamchisi Yangiboy Bobotboev, qo‘rboshilaridan Mulla Tog‘ay Aliev, Saidqori To‘raqulov yigitlaridan Temirboy va boshqalar ustidan O‘sh uezdida sud ishlari boshlandi. 6 soat davom etgan so‘roq ishida Muxriddinbek qo‘yilgan 12 aybnomaning faqat 2 tasini tan oldi. Ushbu ish yuzasidan jami 100 ta guvoh so‘roq qilinadi. Ularning barchasi ham Muhriddinbek va uning sheriklarini aybdor deb ko‘rsatadi.<sup>89</sup> O‘sh uezdida 1922 yil 22 sentyabrъ ertalab soat 10 da Oliy “inqilobiy” tribunal xukmi bilan Muhriddinbek Usmonaliev qirg‘iz, 42 yosh, Marg‘ilon shahridan, Yangiboy Bobotboev-qirg‘iz, 38 yosh, O‘sh uezididan, Saidqori To‘raqulov, Mulla Tog‘ay Aliev, Nishonboy, Temirboy, Umirzoq Sherxo‘jaev, Muhammad Niyozov ja’mi 8 qo‘rboshilar o‘lim jazosiga hukm qilinadi.

Namanganda sovet xukumatiga qarshi qurolli harakatni olib borib harakat etakchilaridan biriga aylangan Omon polvon 1923 yil 24 may kuni qizil askarlar tomonidan asirga olinadi. Farg‘ona viloyat “inqilobiy” tribunalining 1923 yil 13 iyundagi hukmi bilan otib o‘ldiriladi.<sup>90</sup>

1924 yil 31 martda Turkiston ASSR MIK o‘z ixtiyori bilan taslim bo‘lgan qurolli qarshilik harakati qatnashchilarini avf etish haqidagi qarori e’lon qilindi. Bu ham sovet hokimiyatining qurolli qarshilik xarakatini bostirish borasidagi bir tadbiri edi xolos. Amalda esa harakat qatnashchilariga va’da qilingan avflar 3-4 oydan so‘ng o‘z ahamiyatini yo‘qotgan.

1925 yil 19 yanvarda O‘rtta Osiyo byurosini qoshidagi “bosmachilikka” qarshi kurash komissiyasi yig‘ilishining №3 sonli bayonnomasining “bosmachilar” va ularning sheriklarini jazolash siyosatiga oid yig‘ilishi bayonnomasidan shu ayon bo‘ladiki qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga va’da qilinayotgan avf etish bu uni bostirishda qo‘llanilayotgan bir usul ekanligi oydinlashadi. Bayonnamada

<sup>89</sup>Муҳридинбек шўролар хукми олдида // Туркистон. 1922. 1 октябрь.

<sup>90</sup>Омон полвон отилди. // Туркистон. 1923 йил 20 июн.

yozilishicha 1924 yil e'lon qilingan avfdan so‘ng Farg‘ona vodiysida qurolli qarshilik harakati deyarli bostirilgan. Shundan so‘ng 200 ta qo‘rboshi hibsga olinib qatl etilgan. Vaholanki ularga ozodlik va’da etilgan edi. Bundan ko‘rinib turibdiki avf etish siyosatiga sovet hokimiyati organlari avf e’lon qilingandan so‘ng 3-4 oy amal qilishgan. Bu davr ichida qurolli qarshilik harakati qatnashchilar qo‘rboshilar taslim bo‘lgan. Sovet hokimiyati jazo organlari esa bu davrda, ularning faoliyati to‘g‘risida to‘liq ma’lumot to‘plab, so‘ngra yana qamoqqa olish, otish bilan shug‘ullangan.

Sovet hokimiyati qurolli harakat qatnashchilariga g‘oyaviy ko‘mak bergen, ularga yordam berishga uringan kuchlarni ham o‘z vaqtida yo‘q qilish choralarini ko‘rgan. Bunda qatag‘on siyosatining dastlabki ijrochi organlari CHK va “inqilobiy” tribunallar asosiy rol o‘ynagan.

1921 yil 13 dekabrda Toshkent shahrida Turkiston MIK qoshidagi Oliy “inqilobiy” tribunali Turkiston Favqulodda komissiyasi (CHK) taqdim etgan 2513 sonli ishni ko‘rib chiqadi. Unda “aksilinqilobiy” harakat qatnashchilar deb topilgan Sharifxo‘jaev Sadriddin, Karimov G‘olib, Qurbonov YUsufbek, Umarov Muxammadyor va Niyozbekov Rustambeklar ustidan xukm chiqariladi. Xukmda 21 sentyabrda Turkiston CHK tomonidan yuqorida nomlari qayd etilgan shaxslarga nisbatan qo‘yilgan ayblovni to‘g‘ri deb topib ularni Oliy “Inqilobiy” tribunal sudiga topshirish ungacha Toshkent shahridagi umumiyl qamoqxonada qa’tiy nazoratda ushlab turish uqtiriladi.

Oliy “inqilobiy” tribunal sudi 1921 yil 14 dekabrda Sadriddinxo‘ja Sharifxo‘jaev, Garif Alminovich Karimov, Muxammadyor Muhammad Umarov, Rustambek Niyozbekov va Abdullajon Ziyomuxammedovlarni aksilinqilobiy harakat qatnashchilar, “Milliy birlik qo‘mitasi” a’zolari sifatida sovet hukumatiga qarshi tashviqot olib borib Angliya va Yaponiya hukumatlarining Xitoyning Gulja shahridagi murojaat qilib Farg‘ona vodiysidagi qurolli xarakat (bosmachilar) qatnashchilariga pul, qurol-yarog‘ va kerakli asbob-anjomlar bilan yordam berishlarini so‘ragani, shuningdek Sadriddinxo‘ja Sharifxo‘jaev va Abdullajon Ziyomuxammedovlar Farg‘ona vodiysidagi qurolli xarakat

qatnashchilarining g‘oyaviy rahbari sifatida jinoiy javobgarlikka tortdilar va ularga oliy jazo otuv hukmini chiqardi.

Sovet xukumati qurolli harakat qatnashchilariga qarshi kurashni bir zum ham susaytirmadi. Aholi orasida ham qurolli harakat qatnashchilariga yordam bergen, yoki harakatda ishtirok etgan kishilarni izlab topish ularni jismonan yo‘q qilish, qatag‘on siyosatini olib bordilar. Qurolli xarakat qatnashchilari va ularga yordam bergen, xayrixox bo‘lganlar doimiy ravishda ta’qib qilinib, qo‘lga olinganlarini esa sud xukmiga ko‘ra yo oliy jazoga, yoki turli muddatlarga qamoq jazosiga xukm qilib borilgan.

1922 yil 1 fevralda Farg‘ona viloyati “inqilobiy” tribunalining Qo‘qon shahrida bo‘lib o‘tgan sud yig‘ilishida o‘tmishda qurolli xarakat qatnashchisi bo‘lgan Davron qo‘rboshi, Parpi qo‘rboshilar bilan aloqada bo‘lgan Dovron qo‘rboshi tomonidan yuzboshi qilib tayinlangan deb gumon qilingan 27 yoshli dehqon Abduraxmon Otaboyxo‘jaev ishi ko‘rib chiqiladi. Uni qurolli harakat etakchilaridan biri, sovet xukumatiga qarshi kurashgan deb sud oliy jazo “otuvga” xukm etadi. Biroq 1921 yil 2 noyabrdagi Oktabr “inqilobi”ning 5 yilligi munosabati bilan Turkiston MIK 1921 yil 29 oktyabrdagi avf etish to‘g‘risidagi 132-sonli qaroriga muofiq otuv jazosi qa’tiy rejimdagi 5-yillik qamoq jazosiga almashtiriladi.<sup>91</sup> Vaxolanki yuqoridagi qo‘rboshilar 1920 yil yanvar oyidagi Turkiston MIQning taslim bo‘lgan qurolli harakat qatnashchilarini avf etish qaroridan so‘ng 31 yanvarda taslim bo‘lgan edi.

Shuncha ta’qib va qatag‘onlarga qaramasdan sovet hukumati Turkistondagi qurolli harakatni 1930 yillar o‘rtalariga qadar butunlay tag-tugi bilan yo‘qotib, bostira olmadi. 1924 yil boshlarida Farg‘ona vodiysida 50 ga yaqin mayda quroli harakat otryadlari mavjud edi. Jumladan: Yormat Maxsum, Qoraboy lashkarboshi, Umar Ali lashkarboshi, Turdiboy, Yusufjon Maxsum, Mama ro‘zi, Mulla Sobir, Toshmat Pansat, Turg‘unboy, Ashurali Ponsat, Mulla Bo‘ta yuzboshi, Shamsi Usmon Ponsat, Sotvoldi Ponsat, Abduraxmon va boshqalar sovet xokimiyatiga

<sup>91</sup> Ўз Р МДА, 344-фонд, 2-рўйхат., 11-й-ж, 10-варак

qarshi qurolli qarshilik harakatini davom ettirdilar.<sup>92</sup> Qurolli harakat qatnashchilariga umumiy qo‘mondon YOrmat Maxsum edi.

OGPUning Muxtor vakilligi bergen ma’lumotiga ko‘ra Farg‘ona vodiysida 1925 yil yanvar xolatiga qurolli qarshilik xarakatining 306 raxbari borligi ma’lum bo‘lgan.

O‘z navbatida sovet hokimiyati qurolli xarakat qatnashchilariga qarshi ham qurolli, ham siyosiy kurashni bir zum ham to‘xtatmadilar. RKP MQ O‘rtta Osiyo byurosini 1924 yil 6 yanvarda bo‘lib o‘tgan yig‘ilishida aholi orasida tashviqot va targ‘ivot ishlarini kuchaytirish masalasi ko‘rildi. Unda asosan qurolli harakat qatnashchilariga “bosmachi”, “xalq dushmani” sifatida xalqning nafratini oshtirishi va ularga qarshi g‘oyaviy-siyosiy kurashni kuchaytirishga qaror qilindi.

RKP MQ O‘rtta Osiyo byurosi ham qurolli harakat qatnashchilariga qarshi kurashga bosh bo‘ldi, uning barcha ko‘rsatmalarida qurolli harakat qatnashchilariga qarshi kurashni susaytirmaslik uqtirilardi. Bu Turkfront rahbariyatining “bosmachilik” ka qarshi kurash kengashi to‘g‘risida nizomida ham aks etgan edi. Turkistonning Buxoro va Xorazmning viloyat markazlarida tashkillangan bunday yig‘ilishlari bevosita “bosmachilar”ga qarshi kurash fronti kengashiga rahbarligida bo‘lib o‘tar edi. Kengash tarkibiga RKP MK O‘rtta Osiyo byurosi raisi (kengash yig‘ilishi raisi sifatida), Turk MIK raisi (yig‘ilish raisi o‘ribbosari sifatida), Turkiston Respublikasi XKS raisi, Turkfront qo‘mondoni, Turkfront xarbiy inqilobiy kengashi a’zolari, Turkiston Kommunistik partiyasi bosh sekretari, Turkiston respublikais ichki ishlar xalq komissari, Buxoro va Xorazm MIK vakillari, OGPUning muxtor vakili kiritilgan edi. Ushbu yangi tashkilot butun O‘rtta Osiyo bo‘ylab barcha fuqorolik va harbiy kuchlarni birlashtirgan xolda qurolli xarakat qatnashchilariga qarshi kurashni boshqarib bordi.

Shafqatsizlik bilan jamiyat hayotining barcha bo‘g‘inlarini o‘z nozaratiga olib olgach sovet hukumati o‘lkaning katta-kichik shaharlarini va viloyatlarining markazlariga Turkiston fronti qo‘sishlarining yirik bo‘linmalarini joylashtirib tinch axoliga nisbatan qo‘rqitish va terror siyosatini qo‘llash orqali 1924 yilga kelib

<sup>92</sup>Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Т.: “Шарк”-2000. С-378.

qurolli qarshilik xarakatini batamom bo‘lmasa-da bostirishga erishdi. Biroq harakat turli xududlarda XX asrning 30 yillar o‘rtalariga qadar davom etdi.

OGPUning Muxtor vakilligi tarqatgan ma’lumotga ko‘ra 1931 yil aprel-may oylariga kelib xalqning sovet hokimiyati olib borayotgan siyosatidan noroziligining oshishi, dehqonlar noroziligining kuchayishi natijasida qurolli qarshilik harakati qatnashchilarining soni bu davrga kelib yanada ortadi. Bu davrga kelib yana 17 ta yangi guruhga kelib, ularda 340 yigit jamlanadi.

SSSR MIK 1927 yil 9 iyundagi qaroriga muvofiq OGPUning O‘rtta Osiyodagi muxtor vakilligi xuzurida tashkil qilingan “uchlik”ning 1930 yil 17 dekabrdagi yig‘ilishining №103 bayonnomasiga muvofiq sovet tuzumiga qarshi tashviqot olib borgan, kommunistik partianing yer-suv islohati yo‘liga qarshi chiqqan, o‘tmishda boy bo‘lgan, sovet tuzumiga qarshi qurolli xarakatda qatnashgan degan ayblovlar bilan jami 143 kishi ustidan hukm chiqarilgan. 1930 yil 17 dekabrdagi “uchlik” yig‘ilishining № 114 bayonnomasiga muvofiq ja’mi 92 ta shaxs ustidan sovet tuzumiga qarshi tashviqot olib borgan, qurolli xarakat qainashchilariga yordam bergen, sovet tuzumini ag‘darish uchun zimdan kurash olib borgan, maxalliy burjuaziyaga yon bosganlikda ayblanib xukm chiqarilgan. “Uchlik” xukmiga muvofiq 92 kishidan 1 tasi 10 yilga, 1ta shaxs 8 yilga, 25 nafar shaxs 5 yilga, 23 nafar shaxs 3 yilga, 17 nafar shaxs 2 yilga, 3 nafar shaxs 1 yilga ozodlikdan maxrum qilinib, og‘ir jazoni o‘tovchi kanslagerlarga surgun qilingan. 6 nafar shaxsni esa uch yilga O‘rtta Osiyoda yashash xuquqidan, 1 nafar shaxsni esa uch yilga O‘zbekistonda yashash xuquqidan, 1 nafar shaxsni uch yilga Buxoro rayonida yashash huquqidan mahrum etgan xolda yana 1 nafar shaxsni OGPU muxtor vakilligi orqali uch yilga Shimoliy Uralga surgan qilishga hukm chiqarilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki sovet hokimiyati o‘zi avf etib, o‘z tomoniga ag‘darib olgan kishilarni qaytadan qatag‘on etmoqda edi. Bu har ikkala bayonnomadan jazolovchi idoralarning sovet hokimiyati jinoiy protsessual kodekslariga mutlaqo amal qilmagani ayon bo‘ladi. Qatag‘on qilinganlar NKVD idorasida to‘qib chiqarilgan yolg‘on ayblovlar bilan qamoqqa olingan. Tergovda ayblanuvchi o‘z aybini bo‘yniga olsa kifoya bo‘lgan, uni tergov va surishtiruv materiallari asosida tasdiqlab keyin xukm o‘qilmagan. Natijada aybsiz aybdorlar

soni yildan-yilga oshib qatag‘on mexanizmining qurbanlar soni ham ko‘payib borgan. Ushbu yillarda bir amallab sovet hokimiyati qatag‘on tig‘idan omon qolgan qurolli qarshilik harakati qatnashchilari 1937-1938 yillardagi “Katta terror” davridagi qatag‘onda to‘liq jismonan yo‘q qilindilar. Bunday “Katta terror” davrida to‘liq jismonan yo‘q qilingan qurolli qarshilik harakati qatnashchilari ro‘yxati Samarqand viloyati hududida ham shak-shubhasizki uchraydi, albatta. Buni so’ngi yillardagi R.Shamsutdinovning tadqiqot natijasi isbotlab berdi.

Samarqand hududidagi ozodlik harakatining yo‘lboshchilari shubhasizki Bahrombek va Ochilbek qo‘rboshilardir. Ularning guruhlari “Turkiston milliy birligi” tashkilotining buyrug‘i bilan tashkil qilingan. Ochilbekning yonida Turkiston Milliy Birligining vakili sifatida samarqandlik ziyoli qori Komil, Bahrombekning yonida esa ziyyolilardan Hamroqulbek, qori Muhammadlar ish olib borganlar. Ushbu tashkilot haqida quyida yanada aniqroq to’xtalib o’tamiz.

Samarqand viloyatidagi quroli harakatga Ochilbek, Bahrombekdan tashqari Hamroqulbek, Qahhorbek, Sariqulboy kabi qo‘rboshi guruhlari yetakchilik qilishgan va ular xalq tomonidan qo‘llab-quvvatlangan. Samarqand viloyatidagi qurolli harakatning ham birinchi bosqichi 1924-yilda tugatilgan.<sup>94</sup>

Yuqorida keltirilgan qo‘rboshilardan tashqari yana bir qancha samarqandliklar istiqlolchilik harakatlarida faol qatnashganlar va shu “ayblari” uchun 1937-1938-yillardagi “Katta terror” davrida to‘liq qatag‘on qilindilar..

Ma’lumki, Samarqandda ham “Ittihodi va taraqqiy”, “Milliy Ittihod”, “Shuroi islomiya”, “Shuroi ulamo” “Milliy istiqlol” kabi ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar faoliyat yuritgan. Qatag‘on kampaniyasida ko‘plab ziyyolilar ana shu tashkilotlarga a’zo bo’lganlikda, bu tashkilotlarning aksilinqilobiy faoliyatida ishtirok etganlikda ayblanib, qatag‘on qilinganlar.

Yer yuzi sayqali bo’lmish Samarqand uzoq-uzoq, davrlardan buyon islom madaniyati o’choqlaridan biri bo’lgan. Bu zaminda ko‘plab muslimon maktab va madrasalari faoliyat ko’rsatgan. Ularda ham diniy, ham dunyoviy ilmga ega bo’lgan ziyyolilar talabalarga dars bergan. Madrasalarni bitirganlardan mashhur qorilar, qozilar, mudarrislar, taraqqiyparvarlar, jadidlar, davlat va jamoat arboblari

<sup>94</sup>Ziyayeva.D.Turkiston milliy ozodlik harakati. T.: “G’afur G’ulom” - 2000.

yetishib chiqqan. 1937-1938 yillarda, undan oldin 1929-1930 yillar boshlarida ham qatag' on qilish amaliyotida ko'plab ziyolilar ana shu buyuk siymolar izdoshlari, maslakdoshlariga nisbatan sovetlar dushman sifatida qaraganlar. Qatag' on yillarida ko'plab samarqandlik ziyolilarni tergov qilish, ular ustidan ayblow xulosalari tayyorlashda o'tmishda qori bo'lgan, imom bo'lgan, diniy, millatchilik, buzg'unchilik, mag'lubiyatchilik ruhida targ'ibot va tashviqot olib borgan degan ayblar qo'yilib, qatag' on qilinganlar.<sup>95</sup>

Samarqand viloyatida ham sovet rejimiga, qizil armiyaga, kuch ishlatalish organlariga qarshi mahalliy aholining qurolli qarshilik ko'rsatish harakati keng ko'lamda olib borilgan. Bu harakatdagilarni bolsheviklar "bosmachilar" deb haqoratli nom bilan ataganlar. Qatag' on qilinganlarning ma'lum qismi "sobiq; bosmachi", "bosmachilikni qo'llagan"likda ayblanganlar...".<sup>96</sup>

Biz bugun Samarkand zaminida tugilib, voyaga yetib, yurtimiz buguni va kelajagi uchun ozmi-ko'pmi hissa qo'shgan, lekin sovet rejimi, adolatsizlik qurboni bo'lgan minglab vatandoshlar xotirasini muqqaddas bilib, o'sha qatag' on qurbonlarining hozirgi avlodlari, qavmu-qarindoshlari, yaqinlari oldida bosh egib ta'zim bajo keltiramiz.

Samarqand viloyatidan "sobiq bosmachi", "bosmachilikni qo'llagan"lik bilan ayblanganlar ro'yxati: "**Raimov Hazratqul** - 1910 yili tug'ilgan, Urgut rayoni Qo'zichi qishlog'idan, hibsga olingan vaqtida aniq mashg'uloti bo'limgan. 1930-yildan boshlab o'g'irlik bilan shug'ullanganlikda, Berdiyev banditlar guruxi ishtirokchilari bilan birgalikda to'rt marta qurolli bosqinchilikda ishtirok etganlikda, ov quroli bilan quollanganlikda, hibsga olingan vaqtida pichoq tortib olinganlikda ayblangan. **Azimov Gaydar** - 1901 yili tug'ilgan, Urgut rayoni Qo'zichi qishlog'idan, 1930 yili chorva moli o'g'irlagan va qotillikda ayblanib, xalq sudi tomonidan 7 yilga qamalgan, jazoni o'tamay, 1932 yili lagerdan qochgan, 2 marta vaqtincha qamoqqa olingan, ijtimoiy xavfli unsur. Lagerdan qochganidan so'ng chorva moli o'irlash bilan shug'ullanishni davom ettirganlikda, Berdiyevning bosmachilar guruxiga kirganlikda, kolxozchilarni qurolli talashlarda

<sup>95</sup>Р.Шамсутдинов. "Коллективлаштириш ва «катта террор» даврида қатағон қилинган ватандошларимизнинг хотира китоби" Самарқанд вилояти (1929-1939 йиллар). Т. "Янги аср авлоди"-2015. 17-бет.

<sup>96</sup>O'sha joyda. 18-bet.

ishtirok etganlikda, ayblanuvchi Raimov bilan birgalikda 4 marta kolxozchilarning chorva moli va pullarini o'rlaganlikda ayblangan. **Norboyev Muxammad** - 1897 yili tug'ilgan, Urgut rayoni Qo'zichi qishlog'idan, ijtimoiy xavfli unsur. 1932 yildan boshlab jinoyatchilar bilan aloqa o'rnatganlikda, bosqinchilik va chorva moli o'g'irlash bilan shug'ullanganlikda, Berdiyevning banditlar guruhi bilan birgalikda kolxozchilarni qurolli talashlarda ishtirok etganlikda ayblangan. **Umarov Ergash** - 1908 yili tug'ilgan, Urgut rayoni Qorabuloq, qishlog'idan, hibsga olingunga qadar kolxozi a'zosi. Bosmachilar guruxi bilan aloqada bo'lganlikda, bosmachilarni uyida yashirganlikda, kolxozi brigadiri uyini talashda ayblangan.

6780-sonli ish bo'yicha: **Qodirov Ismoil** - 1915 yili tug'ilgan, Kattaqo'rg'on rayoni Shurax qishlog'idan, 1936 yili ishga chikmaganligi uchun kolxozdan haydalgan, hibsga olingan vaqtida aniq mashg'uloti bo'limgan. Banditlar guruhibiga kirganlikda, pichoq bilan quollanganlikda, banda guruxi bilan birgalikda qurolli bosqinlarda ishtirok etganlikda, hibsga olingan vaqtida o'g'irlangan buyumlar topilganlikda ayblangan.

6692-sonli ish bo'yicha. **Turanov O'roz** (1908 yili tug'ilgan, Bulung'ur rayoni Maydabuloq qishlog'idan, qurolli bosqinchilik va ot o'g'irlagani uchun 3 marta qamalgan, 5 marta vaqtincha qamoqqa olingan, sobiq bosmachi) 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan, jazo muddati 1937 yil 2 avgustdan hisoblangan. Banda guruhining boshliqlari bilan aloqada bo'lib, qurolli bilan ta'minlaganlikda, yillar davomida banditlik va chorva moli og'irlash bilan shug'ullanganlikda ayblangan. **Jurayev Bozor** - 53 yoshda, Nurota rayoni Nurota qishlogidan, o'zbek, sobiq imom va qulqoq, repressiyadan yashirinib yurgan. Kolxozchilarning qoloq, qismi orasida diniy urf-odatlar o'tkazganlikda, doimiy ravishda sovetlarga qarshi targ'ibot bilan shug'ullanganlikda, xalqlar doxiysi sha'niga aksilinqilobiy terrorchilik kayfiyatini bildirganlikda ayblanib, 10 yil mexnat-tuzatuv lageri qamog'iga hukm etilgan, jazo muddati 1937 yil 8 avgustdan hisoblangan.

1289-sonli ish bo'yicha. **Azizov Abdurahmon** (1894 yili tug'ilgan, Paxtakor rayoni Jo'yamaxmud qishlog'idan, sobiq savdogar, bosmachilik ishti-rokchisi,

hibsga olingan vaqtda aniq mashg'uloti bo'lman) 10 yil mehnat-yuzatuv lageriga xukm qilingan, jazo muddati 1937 yil 7 sentabrdan hisoblangan. Doimiy ravishda kolxozchilar orasida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda, xalq dushmanlarini maqtaganlikda ayblangan.

5770-sonli ish bo'yicha. **Sulaymonov Salohiddin** (1888 yili tug'ilgan, Samarqand shahridan, sobiq savdogar, aksilinqilobiy millatchi «Milliy Ittihod» tashkiloti a'zosi, bosmachilik ishtirokchisi, 1923 yili Afg'onistonga qochib ketgan, 1933 yilda qaytib kelgan, aksilinqilobiy faoliyati uchun javobgarlikka tortilgan, hibsga olingan vaqtda kolxozi a'zosi) 10 yil mehat-tuzatuv lageriga hukm qilingan, jazo muddati 1937 yil 12 sentabrdan hisoblangan. Aholi orasida ocharchilik to'g'risida aksilinqilobiy ig'vogarlik mish-mishlar tarqatganlikda, monarxik tuzumni maqtaganlikda ayblangan.

11272-sonli ish bo'yicha: **Yusupov Ruziqul** - 1896 yili Samarqand shahrida tug'ilgan, o'zbek, 2 marta sudlangan, partiyasiz, 1918 yildan 1924 yilgacha VKP(b) a'zosi bo'lган. Diniy faoliyati va maishiy buzuqligi uchun partiyadan o'chirilgan. Unga hukmronlikni oshirib yuborgan, partiya rahbar xodimlarini badnom qilgan, yomonlagan degan ayblar qo'yilgan. 1921-yildan "Milliy istiqlol" aksilinqilobiy millatchilik tashkiloti a'zosi bo'lganlikda, Samarqand filialida markaz rahbari bo'lganlikda, doimiy ravishda mag'lubiyatchilik xarakterida aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda ayblangan. U O'zSSR Jinoyat kodeksining 66-moddasi, 2-qismi bilan ayblanib, 10 yil muddat bilan mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddat 1937 yil 16 avgustdan hisoblangan.<sup>96</sup> **Zokiriy Majid** - 1897 yili tug'ilgan, Samarqand shahridan, «Milliy ittihod» aksilinqilobiy tashkilot a'zosi, "o'n sakkizlar guruhi" ishtirokchisi, buning uchun 1934 yili VKP(b) safidan chiqarilgan. Hibsga olingan paytda Urgut rayon milisiyasi boshlig'i bo'lgan. Aksilinqilobiy "Milliy Ittihod" tashkiloti Samarqand filiali rahbarlaridan biri sifatida, kolxozchilar orasida muntazam aksilinqilobiy targ'ibot olib borganlikda aksilinqilobiy Troskiyni otib yuborilishida hamdardlik bildirganlikda ayblanib 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Muddat 1937 yil 14 iyuldan hisoblangan. **Nazarov Qaysar**(1903-yil Pastdarg'om rayoni

---

<sup>96</sup> O'sha joyda

Gulyakanduz qishlog’ida tug’ilgan.). Bosmachilar to’dasining faol ishtirokchisi. Kasbi agronom. Yaponiya bilan urushda sovet hokimiyati halok bo’ladi degan aksilinqilobiy mish-mish tarqatganlikda va mag’lubiyatchilik targ’iboti olib borganlikda ayblanib otuvga hukm qilingan.

8339-sonli ayblov xulosasi bo'yicha. **Toshboyev Chakan** - 1902 yili tug'ilgan. Pastdarg'om rayoni Beshbarmoq qishlog’idan. 1924 yildan 1928 yilgacha Islom qo'rishi bosqinchilar to'dasida faol ishtirok etgan. 1935 yilgacha bosmachilar to'dasida bo'lgan. Hibsga olingan vaqtida Ittifoq kolxozi raisi o'rinosari bo'lib ishlagan. 10 yil mehnat-tuzatuv koloniyasiga hukm etilgan. Jazoni o'tash muddati 27 noyabr 1937 yildan belgilangan...”.<sup>97</sup>

Samarqand shahridan shu kishilarga o'xshab vatan ozodligi uchun harakat qilganlar bir qanchadir. Jumladan, Hamidboyev Qori Zikr, Q.H.Abduhayumov, M.Karimov, A.Hotamov, I.Rahmatullayev, Rahmatullin(asl ismi Mulla Lutfi Rahmatboyev), Mulla Elchi O'rozov, Mirza Puli N izomiddinov va hokazo.

Mustabid tuzum boshqacha fikrlashga mutlaqo toqat qilolmasdi va unga qarshi qat'iy kurash olib bordi. 20-yillarning ikkinchi yarmi — 30-yillar mavjud tuzumga muxolifatda turganlarga qarshi keng qatag‘onlar o’tkazish davri bo‘ldi. Respublikaning vatanparvarlik kayfiyatidagi rahbar xodimlarni birlashtirgan «g‘ayripartiyaviy» guruhlar («18 lar guruhi», «Inog‘omovchilik», «Qosimovchilik») birin-ketin «fosh etildi» va badnom qilindi.

20-yillar oxiri — 30-yillar boshlarida mustabid tuzumning jazolovchi qilichi mustabid tuzum kirdikorlariga qarshi fikr bildirgan milliy ijodkor ziyolilarning ko‘pgina vakillariga zarba berdi. Munavvar Qori Abdurashidxonov, Saidnosir Mirjalilov, Mahmud Hodiev (Botu), Ubaydulla Asadullaxo‘jaev, Ashurali Zohiriy, Elbek, Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, Otajon Hoshimov, Usmon Nosir va boshqalar qatag‘onga uchradi.<sup>98</sup> Faqat 1929 yil yanvardan 1933 yilgacha mustabid tuzum respublika milliy ziyolilarning 217 vakilini — yozuvchilar, jurnalistlar, o‘qituvchilar va hokazolarni qatag‘on qildi, ulardan ko‘plari otildi.<sup>99</sup>

---

<sup>97</sup>O’sha joyda.

<sup>98</sup>Турсунов И.Й. Узбекистан маорифчиларининг истиқолол йулидаги кураши тарихидан (1917—1930 йиллар): Тарих фанлари доктори... автореферата. Т-1995, 27-bet.

<sup>99</sup>Узоков X. Узбекистонда мустақиллик учун кураш тарихи (1900—1940 йиллар): Тарих фанлари доктори...

Qatag‘on balosi faqat ziyolilarnigina o‘z komiga tortmadi, istibdodning olovida barcha baravar yondi. 20-yillar oxiri — 30-yillar bosqlarida dehqonlarga nisbatan ham misli ko‘rilmagan qatag‘onlar amalga oshirildi. Qishloq xo‘jaligini jamoalashtirish davrida O‘zbekistonda 40 mingdan ortiq dehqon xo‘jaligi «qulqoq» qilinib, ulardan 31,7 mingi qatag‘on qilingan edi<sup>100</sup>.

Bolsheviklar tuzumining 30-yillar oxirida o‘z xalqiga nisbatan qilgan qatag‘onlari ayniqsa keng ko‘lamda avj oldi. Bir tuman yoki qishloq miqyosida birorta rahbar «xalq dushmani» ga aylantirilgan bo‘lsa, uning «dumi» sifatida yana 50—60 kishi o‘z yurtidan badarg‘a qilingan yoki qamalgan edi. Shuning uchun ham qatag‘onlar respublikaning ijtimoiy-siyosiy hayotini larzaga keltirdi, kishilarda doimiy qo‘rquv, ertangi kunga ishonchsizlik uyg‘otdi. 1936 yilning oxirida o‘z konstitutsiyasida keng huquqlar va erkinliklarni e’lon qilgan mustabid tuzum oradan bir necha oy o‘tgach ommaviy terrorni avj oldirdiki, u o‘zining qonli panjalari bilan O‘zbekistonni ham qamrab oldi. Ittifoqning jazo organlari va uning respublikadagi tuzilmalari hech bir aybsiz kishilar ustidan soxta «ishlar»ni to‘qib chiqdilar, ommaviy hibsga olishlar uyushtirildi, minglab jamoat arboblari, yirik olimlar, adabiyot va san’at arboblari, xo‘jalik kadrlari, ishchilar, dehqonlar, din vakillari va boshqalar sudsiz-so‘roqsiz qamoqqa tashlandilar. Kommunistik rejim shu yo‘l bilan mamlakatdagi har bir millatning eng ilg‘or ziyoli qismini, mustabid tuzum mohiyatini tushunib etadigan qismini yo‘qotishga harakat qildi. Bu qabihlikni amalga oshirar ekanlar, ular avval o‘z kabinetlarida o‘tirib o‘nlab soxta «aksilinqilobiy tashkilotlar»ni o‘ylab topdilar va ularni «fosh etish»ga kirishdilar, go‘yo ular imperialistik davlatlarning agentlari bo‘lgan emish. Jumladan, 1937—1938 yillarda markaziy hukumatning jazo organlari va uning respublikadagi “nazoratchilari” O‘zbekistondagi yirik aksilinqilobiy tuzilmalarni “fosh etdilar” va “tugatdilar”, bular: respublika rahbarlari Akmal Ikromov va Fayzulla Xo‘jaev boshchiligidagi “Burjua-millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”; Abdurauf Qoriev rahbarligidagi “Musulmon ruhoniylarning millatchi-isyonchilar tashkiloti”; “Aksilinqilobiy o‘ng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”; S.Xo‘janov

---

автореферата. Т-1996. 39—40-betlar.

<sup>100</sup> История коллективизации в союзных республиках. М-1969. С-25.

boshchiligidagi “Aksilinqilobiy millatchi qozoqlar tashkiloti”; “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli sovetlarga qarshi aksilinqilobiy tashkilot; respublika komsomoli MQ kotibi I.Ortiqov rahbarligida “Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”; “Uyg‘urlarning aksilinqilobiy josuslik-isyonchilik tashkiloti”; Mirzoyan, Amelyan va boshqalar rahbarligidagi “Aksilinqilobiy eserlar josuslik-qo‘poruvchilik tashkiloti”; “Ingliz josuslik rezidenturasi”; «Yapon josuslik-qo‘poruvchilik rezidenturasi» edi. Endilikda ma’lum bo‘lishicha, bularning hammasi tuzumning jazo organlari kabinetlarida ataylab to‘qib chiqarilgan bo‘lib, haqiqatda bunday “aksilinqilobiy tashkilotlar” respublikada mutlaqo bo‘lmagan ekan.

### **3.2.& Sovet hokimiyatining o’lkada yuritgan mustamlakachilik, shovinistik va imperiyachilik siyosatiga qarshi kurashgan shaxslar, siyosiy partiyalar va tashkilotlar (Nazir To’raqulov, Abdulla Rahimboev, Turar Risqulov, Fayzulla Xo’jayev, Sho’royi Islomiya, Ittihodi taraqqiy, Birlik uyushmasi, Milliy istiqlol, Turkiston milliy birligi» tashkiloti)**

O’rta Osiyo xalqlari 1917-yil, oktabr harbiy to’ntarishidan so’ng 1934-yilning o’rtalari va 1935-yilga qadar milliy istiqlol va ozodlik uchun sovetlar bosqiniga qarshi kurash olib bordilar. Ommaning, xalqning kuchi birlikda, yagona siyosiy kuch - tashkilotga uyushib dasturiy asosda kurash olib borishdilar. Buni jahonning ilg’or va rivojlangan mamlakatlarning tarixiy tajribasi allaqachon isbotlagan. Shu ma’noda “Uyushmagan millat inqirozga mahkum”<sup>101</sup> deganda Zakiy Validiy To’g’on ming marta haq edi. Bu oddiy hayot haqiqatini o’z vaqtida to’g’ri tushungan milliy istiqlol va ozodlik kurashining buyuk fidoyilari millami yagona maqsad yo’lida birlashtirib, yovuz va shafqatsiz mustamlakachi bolsheviklarga qarshi ongli, siyosiy kurashga boshlab borishga qodir tashkilotni tuzishga intildilar. Ular bu yo’lda ma’lum yutuq va muvaffaqiyatlarga erishdilar, izlandilar, qoqindilar, umid va ishonch bilan olg’a intildilar. Milliy istiqlol va ozodlik uchun dushmanlarga qarshi kurash olib borgan vatandoshlarimizning bosib o’tgan tarixiy yo’llari, ularning bu boradagi yutuqlari, muvaffaqiyatlari, yo’l qo’ygan xatolari va kamchiliklari kelajagi buyuk O’zbekistonning ravnaqi uchun ijodiy mehnat qilayotgan bugungi avlodlarga o’rnak, namuna, saboq va tarbiya maktabidir.

**Abdulla Rahimboev** (1896—1938) — davlat va jamoat arbobi. Abdulla Rahimboev 1896 yilda Xo’jand shahrining Razzoqi mahallasida savdogar oilasida dunyoga keldi. 1910—1912 yilda u Samarqanddagi erkaklar gimnaziyasida, so’ngra Toshkentdagи o’qituvchilar seminariyasida bilim oldi (1917). U 14 ta tilni bilgan. A.Rahimboev 1919 yildan boshlab sovet idoralarida xizmat qila boshladi. Turkiston ASSR MIQning raisi (1920—1922), Turkiston ASSR Maorif xalq komissari lavozimlarida ishladi. Uning ongiga “kommunistik g’oya”ni singdirish uchun 1922 yilda u Moskvaga chaqiriladi. Markaziy hukumat qoshidagi “tayyorlov”dan so’ng A.Rahimboev Buxoro Kompartiyasi va Turkiston KPning

<sup>101</sup> «Турон тарихи» тўплам. Т-1992. 21-бет.

Markaziy Qo‘mitasi kotibi lavozimlarida ishladi (1923—1924). O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazishda faol qatnashdi va bu tadbirni qo‘llab-quvvatladi.

A.Rahimboev 1925 yildan Moskvada yashay boshladi. SSSR xalqlari Markaziy nashriyoti boshqarmasi raisi lavozimida ishladi (1928). So‘ngra u Dushanbega yuborildi. Tojikiston SSR XKKning raisi (1934-1937) sifatida faoliyat ko‘rsatdi. A.Rahimboev 1937 yilda kamoqqa olindi va 1938 yil 7 mayda otib tashlandi.<sup>102</sup>

**Turar Risqulov** (1894—1938) — Turkiston xalqining taniqli davlat va jamoat arbobi. T.Risqulov 1894 yil Yettisuv viloyati Verniy uezdining SHarqiy To‘rg‘ay volostida kambag‘al qozoq chorvadori oilasida tug‘ildi. Uning otasi Risqul Jilhaydarov volost boshqaruvchisi Uchkempirovni o‘ldirgani uchun avval Verniy (hozirgi Olmaota) shahridagi qamoqxonaga tashlanadi, so‘ngra Sibirga surgun qilinadi (1904—1905). YOsh Turar otasining xohishi bilan qamoqxonaga ketadi. U ilk saboqni turmadagi savod chiqarish maktabida oladi. So‘ngra u Avliyoota uezdi Merki shahridagi rus-tuzem maktabi va Pishpek (hozirgi Bishkek)dagi qishloq xo‘jalik o‘quv yurtini tugatadi (1907—1914). T.Risqulov 1914 yili Toshkentga keladi va turli yumushlarni bajaradi. U 1916 yilda chor Rossiyasiga qarshi ko‘tarilgan milliy-ozodlik kurashida faol qatnashdi. 1916—1917 yilda Toshkent o‘qituvchilar institutida o‘qidi.

1918—1924 yillar T.Risqulov hayotida asosiy davr hisoblanadi. SHu yillarda u Turkiston Avtonom Respublikasida muhim vazifalarni bajaradi: Turkiston Sog‘liqni saqlash xalq komissari (1918—1919), Ocharchilikka qarshi kurash Markaziy Komissiyasi raisi (1918—1919), RKP(b) TKP Musulmonlar byurosi raisi (1919—1920), Turkiston ASSR MIQ raisi (1920 y. yanvar—iyul), Turkiston ASSR XKK raisi (1922 y. sentyabr — 1924 y. yanvar) lavozimlarida ishladi. T.Risqulov Turkistondagi ocharchilik va uning dahshatli oqibatlarini tugatish uchun kurashdi, bolsheviklarning mahalliy xalqlarning ochlikdan qirilishiga befarq, mensimaslik munosabatini ochiq tanqid qildi. T.Risqulov boshchiligidagi

<sup>102</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo’rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). Т. “Sharq”—2000. 76 – bet.

ayrim milliy communistlar Markazning shovinistik siyosatini, Turkbyuro va Turkkomissiyaning zo‘ravonlik kirdikorlarini, qizil askarlarning bosqinchilik va talonchiliklarini olib tashladilar. O‘lka Musulmonlari Byurosi raisi sifatida u “Turk Respublikasi” va “Turk Kompartiyasi” tuzish haqidagi masalani Markaz siyosiy rahbariyati oldiga ko‘yadi. Biroq Markazning topshirig‘i bilan Turkkomissiya Turkiston xalqlari birlashishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aksincha, ularni ajratish chora-tadbirlarini ko‘radi.

Turkiston xalqlarini birlashtirish tarafdori bo‘lgan T.Risqulov lavozimidan bo‘shatilib Markazga chaqirib olinadi. U Markazning nazoratida: RSFSR Millatlar ishi xalq komissarining ikkinchi o‘rinbosari, ushbu komissarlikning Ozarbayjondagi Muxtor vakili lavozimlarida ishladi (1920—1922). Biroq, Turkistonda istiqlolchilik harakati kuchayib, siyosiy vaziyat keskinlashgach, u Turkistonga yana qaytariladi. T.Risqulov istiqlolchilik harakatiga qarshi kurashga rahbarlik qilgan sovet davlat arboblaridan biri bo‘lishiga qaramasdan, u istiqlolchilar kurashining mohiyatini to‘g‘ri tushungan va ularga hayrihohlik bilan qaragan edi.

Markaz 1924 yil boshidan Turkiston xalqlarini bo‘lib tashlash maqsadida O‘rta Osiyoda milliy-hududiy chegaralash o‘tkazish uchun tayyorgarlik ishlarini boshlab yubordi. Turkiston xalqlarining birligi, Turk Respublikasi tashkil qilish tarafdori bo‘lgan T.Risqulov Turkistonda turishidan Markaz manfaatdor emas edi. Shuning uchun u 1924 yil fevralda Markazga yana chaqirib olinadi T.Risqulov Komintern Ijroiya Qo‘mitasining O‘rta SHarq bo‘limida ishladi, Mo‘g‘uliston Respublikasida o‘z tajribasini o‘rtoklashdi (1924—1926), RSFSR Xalq Komissarlari Kengashi raisining muovini (1926—1937) lavozimlarida faoliyat ko‘rsatdi. U qaysi lavozimda ishlamasin, har doim O‘rta Osiyo respublikalari, xususan, O‘zbekiston va Qozog‘iston manfaatlarini himoya qildi.

T.Risqulov Turkistondagi 1916 yil qo‘zg‘oloni va istiqlolchilik harakati to‘g‘risida va boshqa mavzularda bir qator maqolalar, asarlar yozdi. Jumladan, uning «Inqilob va Turkistonning tub aholisi» (1-qism, Toshkent, 1925) asari hozirgi kunda ham qimmatlidir.

T.Risqulov 1937 yilda Moskvada qamoqqa olinadi va mustabid sovet tuzumi tomonidan 1938 yilda otib tashlanadi.<sup>103</sup>

**Fayzulla Xo‘jaev** (1896 y., Buxoro — 1938 y., Moskva) — atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchilik harakatining taniqli namoyandasi, yosh buxoroliklar partiyasining asoschilaridan biri. F.Xo‘jaev 1896 yil Buxoro shahrida yirik savdogar Ubaydullaxo‘ja Qosimxo‘ja oilasida tug‘ildi. U Buxoro madrasalaridan birida ikki yil tahsil olgach, 1907—1912 yillarda Moskvada xususiy muallimlar qo‘lida o‘qidi. Buxoroga qaytgach, 1912 yil yosh buxoroliklar partiyasining, 1913 yildan partiya MQning azosi bo‘ldi. U otasidan qolgan boylikni jadid maktablari ochishga, yosh buxoroliklar faoliyatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlashga sarfladi.

1917 yildan boshlab F.Xo‘jaev va A.Fitrat yosh buxoroliklardan ajralib chiqqan “so‘l qanot”ga boshchilik qilishdi. Buxoroda, avval konstitutsion monarxiya, so‘ngra demokratik respublika tuzish uchun kurashdilar. 1918 yil martida Buxoro amiri tomonidan yosh buxoroliklar qirg‘in ostiga olinganidan so‘ng F.Xo‘jaev, uning safdoshlari Buxoroni tark etishga, Turkiston Respublikasida, Moskvada muhojir bo‘lib yurishga majbur bo‘ldilar. Rossiya bolsheviklari Buxoro amiriga muxolifatda bo‘lgan yosh buxoroliklar va uning rahbari F.Xo‘jaevdan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga, kelgusida yosh buxoroliklar negizida Buxoro kompartiyasini tuzish, amirga qarshi bo‘lgan, bolsheviklar ta’siridagi xukumatni Turkiston Respublikasida tashkil etishni maqsad qilib qo‘ydilar. Bolsheviklarning bu maqsadi uzoqni ko‘zlab qilingan strategik qadam edi. Uning zaminida Buxoro davlatini yo‘qotib, sekin-asta uni Sovet davlatiga qo‘shib olishdek makkorona reja yotardi. Bolsheviklar ta’sirida muhojirlilikda yurgan F.Xo‘jaev rahbarligidagi “so‘l qanot” yosh buxoroliklar orasida bo‘linish yuz berdi. 1918 yil yozida Toshkentda yosh buxoroliklardan bir qismi Buxoro kompartiyasini tuzdilar. Bolsheviklarning balandparvoz shiorlari va va’dalariga ishongan F.Xo‘jaev amirlikni ag‘darish uchun birdan-bir to‘g‘ri yo‘l M.Frunze qo‘mondonligidagi qizil ko‘shinlardan “yordam so‘rash”, deb bildi. U

<sup>103</sup>Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo‘rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). Т. “Sharq”-2000. 79 - bet.

1920 yil yanvarda Toshkentda tashkil topgan inqilobchi yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy byurosi raisi, “Uchqun” gazetasining muharriri (1920 yil aprel-sentyabr) bo‘ldi. Bolsheviklar tomonidan amirlik ag‘darilgach, 1920 yil 14 sentyabrdan F.Xo‘jaev boshchiligidagi Buxoro Xalq Nozirlar Kengashi tuzildi. F.Xo‘jaev BXSRning tashqi ishlari noziri (1920—24), harbiy ishlari noziri (1921—24) lavozimlarida ham ishladi. Buxoro Respublikasi hukumati boshlig‘i bo‘lgan F.Xo‘jaev birinchi kundanoq mustaqil siyosat yurgazishga, sovet Rossiysi va xorijiy davlatlar bilan teng huquqli aloqalar o‘rnatishga harakat qildi. 1922 yil u Germaniyaga chet el savdo kompaniyalari va banklari bilan mustaqil shartnomaga tuzishga bordi. F.Xo‘jaev Turkiston mintaqasidagi istiqlolchilik harakatiga hayrihohlik bilan qaradi. Turkiston, Buxoro, Xorazm respublikalarining iqtisodiy jihatdan birlashtirilishiga (1923 yil mart) qarshi fikr bildirdi. U 1925 yil fevraldan O‘zbekiston SSR Xalq Komissarlari Kengashiga raislik qildi. Markazning Turkbyuro, Turkkomissiya, RKP(b) MQ O‘rta Osiyo byurosi kabi tashkilotlar tazyiqlaridan cho‘chimadi. F.Xo‘jaev “o‘n sakkizlar” guruhining g‘oyaviy ilhomchisi edi. U Buxorodagi jadidlik tarixiga bag‘ishlangan “Buxoro inqilobining tarixiga materiallar” (1926 y.) asari uchun kompartiya tomonidan tanqidga uchradi. O‘zbekistonda yoppasiga paxta ekilishi — paxta yakkahokimligini yuzaga keltirishi mumkinligini ochiq aytgan edi. F.Xo‘jaev 1937 yil yozida O‘zSSR Xalq Komissarlari Kengashi raisi lavozimida turgan chog‘ida Moskvada qamoqqa olindi. U 1938 yil 13 martda Moskvada otib tashlandi.<sup>104</sup>

**Nazir To‘raqulov** (1892—1939) — davlat, siyosat arbobi, tilshunos olim va diplomat. N.To‘raqulov 1892 y. Qo‘qonning Boybo‘ta ko‘prik mahallasida o‘ziga to‘q qozoq oilasida tug‘ildi. Rus-tuzem maktabini tamomlagach, savdo bilim yurtiga o‘qishga kiradi. 1913 y.da u Moskvadagi savdo institutiga talabalikka qabul qilinadi. Talabalik yillarida 10 ga yaqin tillarni o‘rganadi. Birinchi jahon urushi yillarida u G‘arbiy frontga safarbar qilinadi va Belorussiyaga yuboriladi. Fevral inqilobidan keyin N.To‘rakulov Turkistonga qaytadi. Shu yillarda u eserlar partiyasiga kirgan edi.

<sup>104</sup> Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида(tuzuvchilar M.Jo‘rayev, R.Nurullin, S.Kamolov va boshqalar). Т. “Sharq”-2000. 128 – bet.

1918—1919 y.da u Qo‘qondagi sovet idoralarida turli lavozimlarda ishlaydi. U tez orada Toshkentga chaqirilib, unga masul lavozimlar topshiriladi: Turkiston ASSR MIQning hamraisi (1919), Turkiston ASSR Maorif xalq komissari (1920), Turkiston Kompartiyasi MQ mas’ul kotibi (1920—1922) bo‘lib ishladi. N.To‘raqulov bu lavozimlarda ishlash jarayonida sovet hokimiyatiga, bolsheviklar partiyasiga sadoqatini namoyish qildi. T.Risqulov va uning tarafdarlari bo‘lgan milliy communist rahbarlar fikrlariga qarshi turdi. Turkistondagi istiqlolchilik harakatiga to‘g‘ri baho bera olmadi, ularni “bosmachilar” sifatida qoraladi va ularni yo‘qotish tarafdori bo‘ldi. N.To‘raqulov 1922 yilda Moskvaga chaqiriladi va sovet xalqlari Markaziy nashriyoti raisi lavozimiga (1922—1928 y.) tayinlanadi. U mohir jurnalist va publisist ham edi. U o‘z maqolalarida asosan sovet turmush tarzining afzalliklarini ko‘rsatishga harakat qildi.

1928 yilda N.To‘raqulov elchilik ishiga jalb qilinadi va SSSRning Hijoz davlatidagi (hozirgi Saudiya Arabistoni) Bosh konsuli va Muxtor elchisi vazifalarida ishladi (1928—1936). U SHarq xalqlari tarixi va madaniyatini yaxshi bilganligi uchun islom olamida shuhrat qozondi.

1936 yilda SSSR ga qaytgach N.To‘raqulov Leningrad (hozirgi Sankt-Peterburg) va Moskva shaharlarida yashab, Sharq xalqlari tili va adabiyoti institutida ishladi. N.To‘raqulov qanchalik sovet hukumatiga, bolsheviklar partiyasiga qancha sodiq bo‘lmashin, mustabid tuzumning qonli qatag‘onidan qutulib qola olmadi. U 1939 yilda otib tashlandi.<sup>106</sup>

**“Sho’royi Islomiya”** (1917-1918) 1917-yilda Rossiyada amalga oshirilgan fevral inqilobining ta’sirida vujudga kelgan siyosiy tashkilotlarning dastlabkilaridan biri musulmon xalqlari Soveti -“Sho’royi Islomiya”dir. U hokimiyatning yangi shakli bo‘lib, milliy hokimiyat va istiqlol uchun tinch yo’l bilan demokratik kurash olib bordi, “Sho’royi Islomiya” hukumatini tashkil etdi. Ammo bu hukumat bolsheviklar tomonidan qonga botirildi, “Sho’royi Islomiya” millatchi va aksilinqilobiy tashkilot sifatida qoralandi va unga qarshi kurash olib

---

<sup>106</sup> O’sha joyda. 173 – bet.

borildi. “Sho’royi Islomiya”ning rahbarlari Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi sovetlar hukumatining doimiy ta’qibi va tazyiqi ostida bo’ldilar<sup>107</sup>.

1917-yil, 15-mart kuni Munavvarqori hovlisida “Sho’royi Islomiya”ning birinchi tashkiliy majlisi bo’lib o’tdi. Uning raisligiga Abduvohid Qori Abdurauf Qori o’g’li, muovinligiga esa Munavvarqori Abdurashidxonov saylandi. Keyinroq Abduvohid Qori Shayxontahur dahasiga qozi qilib saylangach, “Sho’royi Islomiya”ga rais bo’lib Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev saylandi. “Sho’royi Islomiya”ning tashkilotchisi va mafkuraviy asoschisi inqilobdan oldinoq “Toshkent jadidlarining otasi” deb nom qozongan shaharda katta obro’ga ega bo’lgan Munavvarqori edi. “Sho’royi Islomiya” umum-musulmon milliy umum demokratik va inqilobiy harakat markazi hamda mahalliy boshqaruv idorasi sifatida ish olib bordi. Turkistonning boshqa shaharlarida ham uning bo’lim va tarmoqlari tashkil topdi. “Sho’royi Islomiya” o’zining dasturiy maqsad va vazifalarini “Najot”, “Sho’royi Islomiya”, “Kengash”, “Hurriyat”, “E1 bayrog’I” gazetalari orqali xalqqa yetkazib turdi.<sup>108</sup>

“Sho’royi Islomiya” va uning namoyandalari jadidlar, sinfiy kurash va sotsializm tushunchalaridan yiroq bo’lganlar. Ular barcha tabaqa musulmon va boshqa millatlarni yagona milliy ozodlik va istiqlol yo’lida birlashtirib Turkistonda rus mustamlakasi boshqaruvi va mahalliy feodal munosabatlardan holi bo’lgan ijtimoiy-siyosiy boshqaruvni demokratik asosda tashkil etish tarafdoi bo’lganlar. Jadidlarda sinfiylik emas umumturkiy milliylik va umuminsoniy baynalmilallik tushunchalari kuchli bo’lgan. Ularning asosiy shiori va g’oyasi “Ozodlik, Tenglik va Adolat” bo’lib, ana shu harakat va maqsadni umumxalq manfaati, Vatan ozodligi manfaati yo’lida muqaddas bilganlar. “Sho’royi Islomiya” o’z dasturiy maqsadlarini amalga oshirish uchun kurashdi. Uning qurultoylarida dasturiy talablar asosida amaliy tadbirlar ishlab chiqildi va hayotga tatbiq etildi. “Soveti Islomiya”ning faollari o’z harakat dasturlari asosida Rossiya musulmonlarining qurultoyerida, 1917-yil, iyulda Toshkent shahar Dumasiga o’tkazilgan saylovlardan qatnashib kattagina muvaffaqiyatlarga erishdilar.

<sup>107</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob . Тошкент “Sharq” -2010. 211-bet.

<sup>108</sup>Аъзамхўжаев С. «Шўройи исломия» (аслида кандай эди). Фан ва турмуш. -1992, - № 5-6-сонлар, 19-bet..

**“Ittihodi taraqqiy”** Turkiston o’lkasi xalqlarining siyosiy uyg’onishi va demokratik hayotida muhim rol o’ynagan tashkilotlardan biri “Ittihodi taraqqiy” (“Taraqqiyparvarlar uyushmasi”)dir. U 1917-yil, avgustda Toshkentda tashkil topdi<sup>109</sup>. Unga rasman Turkiya muhojirlari Usmonbek bilan Haydar afandi rahbar bo’lsada, amalda Munavvarqori Abdurashidxonovning ta’siri kuchli edi. Jamiyatining dasturi turk tilida tuzildi. Munavvarqori esa uni o’zbek tiliga ag’dardi. Mazkur dastur avgust oyida Munavvarqorining uyida bo’lib o’tgan jamiyat a’zolarining yig’ilishida qabul qilindi va jamiyatning uch kishilik boshqaruvi organi-rayosati (prezidiumi) saylandi: Usmonbek rais, Haydar Afandi esa rahbar bo’ldi. Uchinchi kishi mahalliy taraqqiyparvar jadidlardan bo’lishi kerak edi. Uni tanlab, kooptatsiya qilish vakolati Usmonbek bilan Haydar afandiga berildi. Bu o’ringa Munavvarqori kooptatsiya qilingan bo’lsa kerak, degan taxminlar bor. Jamiyatning dasturi hozircha topilgan emas.

“Ittihodi taraqqiy” asosan siyosiy maqsadlar uchun kurashgan. U sovet hukumatiga muholifatlikda bo’lib, uning siyosatini tanqid qilgan, yoshlarni siyosiy faollashtirish, turk muhojirlariga yordam berish, maktab ishlarini isloh qilish kabi talablarni ilgari surgan. “Ittihodi taraqqiy» yosh turkiyalilar hukumatiga va “Ittihod va taraqqiy” partiyasi yordamiga katta umid bog’lagan edi. Munavvarqorining ko’rsatishicha dastlabki paytlarda jamiyat a’zolarining “soni 50 ga yetraagan bo’lsada, ularning xalq orasida obro’si juda yuqori darajada” bo’lgan.<sup>110</sup> “Ittihodi taraqqiy” (“Ittihod va taraqqiy”) ikki marta yordam so’rab, Turkiyaga maxsus vakillar yuborgan. Birinchi marta Sadirxon va Saidnosir Mirjalilovlardan iborat vakillar 1918-yilda Istanbulga borganda yosh turkiyaliklar hukumati ag’darilgan va xorijga qochib ketgan edi. Shuning uchun ham Sadirxon boshliq vakillar turkiya hukumati rahbarlari bilan uchrasha olmay orqaga qaytdilar. Bu vaqtda jamiyat raisi Usmonbek ham Toshkentda qamoqqa olinib, uning o’rniga Yusuf Ziyabek tayinlangan edi. Turkiyaga “Ittihodi taraqqiy” nomidan ikkinchi marta vakillar 1919-yilda Kamol Ota turk hokimiyati o’rnatilgach borgan edi. Bu safar vakillar tarkibiga Tosbkentdan Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev va Saidnosir Mirjalilov,

<sup>109</sup>Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob . Тошкент “Sharq” -2010. 213-bet.

<sup>110</sup>Турон тарихи. Тўплам. Т - 1992 йил, 18-bet.

Samarqanddan Mahmudxo'ja Behbudiy, Mardonqul va Muhammadqullar kiritilgan edi. Ikkinchisi safar ham samara bermadi. Chunki yashirin safardan sovet hukumatining ChK xodimlari xabardor bo'lganlar. Munavvarqori o'zining "Xotiralarimdan" asarida (qo'lyozma) ko'rsatishicha Mahmudxo'ja Behbudiy va uning sheriklari yo'lda ushlanib, qatl qilingan. Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev Moskvada, Saidnosir Mirjalilov esa Tbilisida yashirinishga majbur bo'ldi. M.Behbudiy va uning sheriklari Buxoro amiri Olimxon fatvosi bilan Shahrabsabzda ushlanib, Qarshida Tog'aybek tomonidan o'ldirilgan degan fikr tarqalgan. Bu haqiqatga uncha to'g'ri kelmasa kerak. Chunki bu paytda Buxoroda ichki siyosiy vaziyat juda taranglashgan. tashqaridan esa M.Frunze boshliq sovetlar bosqini kuchayib borayotgan edi. Shunday bir holatda amirning Behbudiyga nisbatan "e'tibor" qaratib, u bilan bevosita shug'ullanligi aqlga to'g'ri kelmaydi. Uning o'limi ChK xodimlari tomonidan uyushtirilgan bo'lishi esa haqiqatga yaqinroqdir. Bu paytda sovet hukumati Turkiston muxtoriyati hukumatini qonga botirib, milliy mustaqillikka qarshi bosqinchilik urushini avj oldirgan edi.

**"Birlik" uyushmasi.** Sovetlar hukumati o'lka xalqlarining ilg'or vakillariga ta'qib va tazyiqni borgan sayin kuchaytirdilar. Ayniqsa, jadidlar va ular bosh bo'lgan "Ittihodi taraqqiy"ga hujum avj oldi. Ana shunday sharoitda jadidchilar sovetlarga qarshi istiqlol uchun demokratik kurash usullarining turli yo'llaridan foydalandilar, o'zlarining kurash shakllarini o'zgartirib turdilar. 1919-yil, yanvarda Munavvarqori Abdurashidxonovning tashabbusi bilan "Birlik" uyushmasi tashkil etildi. Ammo "Ittihodi taraqqiy" ham o'z faoliyatini to'xtatgan emas, aksincha u yanada rivojlandi va keng tarmoq otdi. Bu davrga kelib, "Ittihodi taraqqiy" o'z nomini o'zgartirib, "Milliy ittihod" yoki "Ittihodi milliy" deb atala boshladi.

Kurashning o'zgargan bunday yangi taktik yo'lini yangi tarixiy vaziyat taqozo etardi. Yangi tarixiy vaziyatning mohiyati shundan iborat ediki, birinchidan jadidlar dastlabki paytda sovetlar hokimiysi Turkistonda uzoq yashab qola olmaydi, degan fikrda bo'lganlar. Shu bois ular sovetlarga qarshi to'g'ridan to'g'ri qurolli kurash yo'lini yoqladilar. Ammo hayot boshqacha yo'ldan rivojlandi. Bolsheviklar hukumati "Turkiston muxtoriyati"ni qonga botirdi, Osipov isyonini bostirdi va 1919-yilga kelib, u Turkistonda yagona qudratli kuchga aylandi. Bu

obyektiv vaziyatni hisobga olmaslik va ko'r-ko'rona faqat qurolli kurashga tayanish ayanchli oqibatlarga olib kelardi. Ikkinchidan bolsheviklar va sovetlar ilgari surayotgan dastur va shiorlar (og'izda bo'lsada) jadidlarning "Ozodlik, Tenglik va Adolat"dan iborat dasturiy shiorlariga hamohang edi. Bu hol jadidlarga davr bilan hisoblashish, bolshevistik sovetlar hukumatiga yaqinlashish, ular bilan hamkorlik qilish asosida strategik dasturiy maqsad uchun kurash olib borish kerakligi to'g'risida hayotiy saboq berdi..

"Birlik" jamiyatni 2-3-yil faoliyat ko'rsatdi. Chunki Munavvarqori Abdurashidxonovning ta'kid etgani singari "Yoshlarning ko'pchiligi firqaga (Kompartiya nazarda tutilmoqda - mualliflar) kirgandan keyin u o'z-o'zidan tugab ketdi"<sup>111</sup>.

**"Milliy istiqlol" tashkiloti.** 1925-yilda Munavvarqori tashabbusi bilan "Birlik ittihod", "Ittihodi milliy", "Milliy istiqloll" degan nom bilan qayta tashkil etiladi. Bu tashkilotning tuzilishiga O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining tashkil etilishi hamda Turkistonning parchalab tashlanishi, Turkiston birligi uchun kurashning o'ta mushkul bo'lib qolganligi sabab bo'ldi. O'zbekiston jadidlari endi o'z oldilariga asosiy vazifa qilib, mustaqil O'zbekiston uchun kurashni qo'ydilar. Lekin bu bilan ular umumturkiy olam birligi g'oyasi, Turkiston qadimiy ota va ona makon ekanligi, turkiy milliy madaniyat va qadriyatlar o'chog'i g'o-yasini inkor etmaganlar. "Ittihodi taraqqiy" va "Milliy ittihod" mustaqil Turkiston uchun kurashgan edi. "Milliy ittihod"ning tashkiliy tizimi, kurash usullari "Milliy istiqlol"da ham saqlanib qoldi. "Milliy istiqlol" Markaziy "uchlik" boshqaruvi Munavvarqorining ishongan shogirdlari Aziz Lazizzoda, Salimxon Tillaxonov va G'ofurjon Musaxonovlardan iborat bo'ldi.

Aziz Lazizzoda 1926-yil O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharq fakultetini ikki yilda tugatgan yosh zamonaviy ziylolilardan edi. Shu yilning oxirida Moskvadagi nokommunistik universitetga o'qituvchi qilib yuborildi va

---

<sup>111</sup> Мунавварқори Абдурашидхонов. Хотираларимдан. Т-2001... 74-bet.

auditoriyaga ma’ruza o’qish uchun kirgan kuniyoq qamoqqa olinib, uch yilga Qalmiqistonga surgun qilindi<sup>112</sup>.

Tashkilotning Namangan, Andijon, Samarqandda bo’limlari bor edi. Tashkilotga rahbarlikni maxfiy suratda Munavvarqori Toshkentda turib amalga oshirdi. Munavvarqori qamoqqa olinguniga qadar asosiy maqsadi O’zbekistonni mustaqil ko’rishdan iborat bo’lgan “Milliy istiqlol” tashkilotiga rahbarlik qildi. Uning haqida Salimxon Tillaxonov GPU tergovichisi so’rog’iga bergan javobida bunday degan edi: “Bizning tashkilotimizning (ya’ni “Miliy istiqlol”-ning - mualliflar) dasturi yo’q edi. Uning dasturi ham rahbari va ilhomchisi ham Munavvarqorining o’zi bo’lgan”<sup>113</sup>.

Aziz Lazizzoda ham o’z ustozining siyosiy faoliyati haqida quyidagini yozib qoldirgan: “U tashkilotning yakka-yu yagona rahbari, teran aqllik mafkurachisi, ilhomlantiruvchi strategi, usta diplomat va boshqa shu kabi juda ham ijobiy kishi hisoblanadi. Uning aql-zakovati har doim hissiyotdan ustun bo’lgan, shuning uchun ham o’z harakatida kamdan kam xatolikka yo’l qo’yadi. Agar Munavvarqori tashkilotga rahbar bo’lmaganida, bu qadar muvaffaqiyatlarga erishmas edi”<sup>114</sup>. “Milliy istiqlol” o’z yig’ilishlarini uning a’zolari xonadonlarida “gap” bazmi, har xil mehmondorchilik bahonasi ostida o’tkazgan. Tashkilot faollaridan biri Fatxiddin Maxsum Ismatullayevning guvohlik berishicha shunday “gap”lardan biri Munavvarqorining bog’ida o’tkazilgan.

**“Turkiston milliy birligi” tashkiloti.** Sovetlarning Turkistonda olib borgan bosqinchilik va mustamlakachilik siyosatiga qarshi faol kurash olib borgan tashkilotlardan yana bittasi “Turkiston milliy birligi”dir. U 1920-yilda Buxoroda tashkil etildi. Uning tashkilotchilari Ahmad Zaki Validiy To’g’on, Munavvarqori, F. Xo’jayev, Hoshim Shayx Qushbegiyev, A.Muhitdinov, S. Tursunxo’jayev va

---

<sup>112</sup>Жазо муддатини ўтаб бўлгач. Азиз Лазиззодага ўша ернинг ўзида яшаб қолишга рухсат этилди. Ётти йилдн сўнг у Тошкентга келди. 1949 йилда яна камокка олиниб, Сибирнинг Красноярск ўлкасида доимий яшаш учун сургун килинди. Ора-Дан беш йил ўтгач. 1954 йилда унга ўз Ватанига кайтишга рухсат берилди.

<sup>113</sup>СССР Халк комиссарлари қошидаги маҳсус Давлат сиёсий Бошкармасининг У рта Осиё (Тошкент)даги ваколатли вакиллиги архиви. ИИ 22291-иш, 3-ж., 15-в.

<sup>114</sup> 'O'sha joyda, 706-bet.

boshqalar bo'ldi. 1921-yil, avgustda «Markazlar markazi» «Turkiston milliy birligi» nomi bilan qayta tashkil etildi<sup>115</sup>.

Bu tashkilotning tashkil etilishida otashin turkparast A.Z.Validiyning xizmati katta bo'ldi. U Lenin boshliq rus sovet hukumatining turk-musulmon xalqlariga nisbatan olib borayotgan mustamlakachilik siyosati mohiyatini juda tez anglagan edi. 1917-yildayoq Oktabr harbiy to'ntarishidan 22 kun o'tgach Zaki Validiy Boshqirdistonda milliy muxtoriyat hukumati va milliy qo'shin tuzdi. Sovet hokimiyatiga qarshi bosh ko'targan Kolchak uni 1918-yil, 3-fevralda sovetlar tarafdori sifatida qamoqqa oldi. Aprel oyida Z.Validiy qamoqdan qochib chiqib, harbiy vazir va hukumat boshlig'i sifatida Boshqirdiston mustaqilligini himoya qildi. Nihoyat 1919-yil 18-fevralda A.Z.Validiy boshliq Muvaqqat hukumati RSFSR hukumatiga yordam berish va ittifoqdosh bo'lishni so'rab murojaat etdi. Tez orada "bitim" ham imzolandi. Shundan so'ng Lenin, Stalin va boshqa Kreml rahbarlari bilan 15 oy hamkorlikda ishladi. Lekin bu davrda Z.Validiyning milliy masalada markaz bilan kelishmovchiligi, jiddiy tus oldi. Nihoyat Bokuda ish olib borgan Sharq xalqlari qurultoyida yashirinchha borib qatnashadi va u yerda Turkiston vakillari (T.Risqulov, Munavvarqori, T.Norbo'tabekov, va boshqalar) bilan uchrashdi, o'zaro muloqot va suhbatlar chog'ida Sovetlarning hamma turk-musulmon muxtor hukumatlari va xalqlariga nisbatan bir xil mustamlakachilik siyosati olib borilayotganligi oshkor bo'ldi. Zaki Validiy 1920-yil, 12-sentabrda Lenin, Stalin, Trotskiy va Rikovga maxsus xatlar yozib, Turkistonning milliy birligi g'oyasi uchun ochiq kurashishga ahd qildi. Bu xatlarida A.Z.Validiy rus-sovet hukumatining Turkiston va Boshqirdistonga nisbatan ikkiyuzlamachilik siyosatini fosh etib bunday deb yozadi: "Markazqo'm bizga qarshi siyosat tuta boshlashidan anglashildiki, siz Preobrajenskiy, Artem va ular safdoshlarining, ya'ni haqiqiy millatchi rus shovinistlarining fikrlarini Sharq xalqlariga nisbatan olib boradigan siyosatingizning asosi qilib etibsiz. ...Turkkomissiyaning tepasida turgan Frunze va Kuybishev bu tashkilotning umumiyligiga yig'ilishida yerli Turkiston kommunistlariga qarshi olti oydan beri riyokor bir siyosat o'tkazib kelayotganini,

---

<sup>115</sup> Shamsutdinov R, Karimov Sh. Vatan tarixi. 3-kitob . Тошкент "Sharq" -2010. 231-bet.

Turk MIK bilan hamkorlikning yasamaligini va faqat Risqulov va uning do'stlari bu tashkilotdan chiqqanidan so'nggina bu siyosatning riyokorona ekanligini ochiq aytish imkonи hosil bo'lganini... gapirdilar. Ayni Turkkomissiya a'zolaridan biri esa bulardan ham o'tkazib, yerli Turkiston aholisida sinfiy kurashni atayin qizitmoqqa kelishilganini va millatchilar (millatparvarlar ma'nosida -mualliflar) mahalliy mehnatkash sinfning dushmani deb ko'rsatajklarini Risqulov va Validov sheriklarini o'sha sinfing dushmani qilib o'rta ga chiqarishlarini... bildirgan". U yana bu sinfiy kurash to'g'risidagi fikrni davom ettirib yozadi: "Markazqo'm bu xususda qay darajada xato yo'lga burilib ketganini yaqinda ko'rajak va "sinfiy kurash"ni faqat terror va sun'iy yaratmoq yo'liga kirajakdir..."

### **3.3.& III-bob bo'yicha xulosa**

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Turkiston o'lkasida sovet hukumatiga qarshi qurolli qarshilik harakati qatnashchilariga nisbatan olib borilgan ommaviy qatag'onlik siyosati o'lkamizning ijtimoiy iqtisodiy hayotini larzaga keltirdi. Ko'plab ilm fan fidoyilari va xalq vatanparvarlari qatag'on qurbanlariga aylandilar. Sovet mustabid hukumatining ikkiyuzlamachi siyosatiga ko'r ko'rona ishongan ba'zi milliy rahbarlarning fojiali qismati bu fikrni yaqqol tasdiqlaydi. Jumladan, Sovet hokimiyatining o'lkada yuritgan mustamlakachilik, shovinistik va imperiyachilik siyosatiga qarshi kurashgan shaxslardan Nazir To'raqulov, Abdulla Rahimboyev, Turar Risqulov, Fayzulla Xo'jayevlar shular jumlasidan edilar. Bundan tashqari, mustamlakachilikka qarshi kurash ishiga siyosiy partiyalar va tashkilotlar ham o'zlarining salmoqli hissasini qo'shgan edilar. Xusan, Sho'royi Islomiya, Ittihodi taraqqiy, Birlik uyushmasi, Milliy istiqlol, Turkiston milliy birligi» kabi tashkilotlar vatanimiz mustaqilligi uchun kurashdilar va O'zbekiston tarixidan o'chmas iz qoldirdilar.

## UMUMIY XULOSA

Millatimiz boshiga tushgan erk va ozodlik yo'lida shahid bo'lgan millionlar vatandoshlarimiz qismatidan, xalq taqdiri bilan o'ynashgan, uni manqurtga aylantirib, o'zgalar qo'liga qaytarishga uringan siyosiy va tarixiy vaziyatdan xabardor qilindi. Sovet hokimiyati qurolli qarshilik harakatini bostirish, harakat qatnashchilarini jismonan yo'q qilish borasida hech qanday qabixlikdan qaytmadi:

- ❖ Qurolli harakat qatnashchilariga qarshi kurash uchun dastlab alohida qo'mondonlik va front tashkil etilib qizil armiyaning sara kuchlari hamda zamonaviy qurol yarog'lardan keng foydalanildi;
- ❖ Qurolli harakat qatnashchilariga qarshi kurashda siyosiy o'yinlardan keng foydalanib, harakat qatnashchilari bo'lgan qo'rboshilar orasiga nizo urug'lari sochilib, bir-biriga gij-gijlab borildi;
- ❖ Qurolli harakat qatnashchilarini iqtisodiy jihatdan ham ta'minot zahiralaridan uzib qo'yish, oziq-ovqat, kiyim-kechak va dori-darmonlardan mahrum qilish maqsadida maxalliy axoli orasida ularga yordam berganlarga ta'qib va ta'ziqni kuchaytirdilar.
- ❖ Sovet hokimiyati qurolli harakat qatnashchilariga qarshi targ'ibot va tashviqotni kuchaytirib avflar e'lon qilish orqali ularni o'z tomoniga ag'darib keyin sekin astalik bilan ularni jismonan yo'q qilish siyosatini qo'lladilar.
- ❖ Qurolli harakat qatnashchilarini butunlay tashqi dunyodan uzib qo'yib ularga chetdan keladigan yordamni ham yo'q qildilar va ularga g'oyaviy ko'mak beruvchi ichki kuchlarni ham jismonan yo'q qildilar.

Prezidentimiz I.A.Karimov “Tabiatda ham jamiyatda ham vakum bo'shliq bo'lishi mumkin bo'lmasanidek, mafkura sohasida ham bo'shliq vujudga kelishiga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi”<sup>116</sup> deya yurtida tarixiy xotira va o'tmishni to'g'ri va to'la idrok etish esa, shubhasiz, milliy mafkuraning ajralmas eng

---

<sup>116</sup>Islom Karimov jamiyatimz mafkurasi xalqni-xalq millati-millatligi xizmat etsin. Toshkent “O'zbekiston”- 1998 yil. 7-bet

muhim olimlaridan biri hisoblanadi. Mana shu omilga tayanib biz o'zligimizni anglaymiz jahon halqlari orasida tutgan o'rnimizni belgilaymiz, bugungi kunimizni mazmunli qilishga va kelajagimiz tarixlarini chizishga harakat qilamiz.

Xulosa shuki har qanday mamlakat har bir millat faqat va faqat to'la ozodlik, sharoitida, siyosiy, iqtisodiy, manaviy va ruhiy mustaqillik muhitidagina taraqqiy etishi, dunyo ham jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida o'z mavqeiga ega bo'lisi, bugungi kuni va istiqbolini erkin belgilashi, haq-huquqlari va fuqoralarni himoya qilish, amalda, qonun ustivorligiga erishish ma'naviy kamolat sari qadam qo'yish ajdodlar yaratgan ma'naviy madaniy boyliklaridan g'ururlanishi yurt tabiatini va boyliklariga egalik qilishi ajdodlarining tarbiyachisi bo'lisi mumkin. Va aksincha imtibodning harqanday ko'rinishi mamlakat va millat hayotini shubhasiz izdan chiqaradi siyosiy va ijtimoiy muhitni barqarorlashtiradi, iqtisodiy munosabatlarni boshi berk ko'chaga olib kirib qo'yadi, fuqoralardagi milliy g'urur va hamiyatni yemiradi, kishilar ruhiyatida o'zining kuch qudratiga ko'rayotgan kuni va kelajagiga ishonchsizlik ohir oqibatda hayotga befarqlik kayfiyatini vujudga keltiradi. Millat or-nomussini toptaydi.

Men bu ilmiy dessertatsiyamda Turkistonda sho'rolar mustamlakachiligi istibdodining o'rnatilishi, Turkistoda sho'rolar istibdodining o'rnatilish arafasidagi tarixiy vaziyat, oktyabr to'ntarilishi. Turkiston o'lkasida sovetlar istibdodining yo'natilishi, Turkiston Muxtariyatining tashkil topishi, Turkiston muxtariyati omma tomonidan qo'llab- quvvatlanishi, Turkiston muxtariyatni qonga botirilishi va tugatilishi, Turkistonda ochorchilik, Turkistonda siyosiy bo'ron Turkiston muxtor sho'rolar sotsiolistik Respublikasi (TASSR)ning tashkil etilishi, Turkiston komfirkasining tashkil etilishi, Osipov isyonii, Turkistonda bolsheviklar yakka xokimlik tizimining o'rnatilishi haqida batassil ma'lumot berilib o'tildi.

“ Men fanni ilg'or, tarraqiyot, progres degan so'zlar bilan yonma-yon qabul qilaman. Fanning vazifasi kelajagimizning shakli-shamoilini yaratib berish

ertangi kunimizning yo'nalishlarini, tabiiy qonunniyatlarini, uning qanday bo'lishini ko'rsatib berishdan iborat, deb tushinaman. Odamlarga mustaqillikning afzalligini, mustaqil bo'limgan millatning kelajagi yo'qligini, bu tabiiy bir qonuniyat ekanini isbotlab, tushintirib berish kerak. Fan jamiyat taraqqiyotini olg'a siljituvcchi kuch, vosita bo'lmosh'i lozim".<sup>117</sup>

---

<sup>117</sup>I.Karimov "Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q". T: "Sharq"-1998 yil. 25- bet.

## **FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'yxati**

### **1.Prezident asarlari**

- 1.** Karimov.I.A Istiqlol va manaviyat-T.O`zbekiston,1995.
- 2.** Karimov.I.A. “O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. 1-jild. T. O`zbekiston. 1996.
- 3.** Karimov.I.A Barkamol avlod- O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyasida so`zlagan nutqi 1997. 24avgust Xalq so`zi.1997.
- 4.** Karimov.I.A Yangi fikirlash va ishlash- davr talabi. 5 tom-T O`zbekiston, 1997.
- 5.** Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:Muloqot. 1998.
- 6.** Karimov.I.A “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo`lida”. 6-jild.T. O`zbekiston. 1998 .
- 7.** Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz. 7- Jild Toshkent.1999
- 8.** Karimov.I.A.”Tanlagen yo`limizdan bizni hech kim qaytara olmaydi”; 7-jild.T.O`zbekiston.1999.
- 9.** Karimov.I.A.”Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz”.9-jild.T.O`zbekiston-2001.
- 10.12.**Karimov I.A.”Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas`ulmiz”.9-jild.T.O`zbekiston.2001 y.
- 11.**Karimov I.A. Yuksak manaviyat yengilmas kuch. Toshkent 2008 y
- 12.**Karimov I. A. Bu muqaddas vatanda azizdir inson Toshkent:-2010 y .
- 13.**Karimov I.A. O`zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.:O`zbekiston-2014.

## **2.Adabiyotlar**

1. Алихонтўра Соғуний. “Туркистон қайғуси”.-Т.: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati-2003.
2. Azamho’jayev S. Turkiston muhtoriyati.-T.: “Fan”- 1996 yil
3. Azamxo’jaev S Turkiston birligi uchun.-T.: “Fan” -1995 yil.
4. Ahmad Zaki Validiy. Xotiralar. “Sharq”. 1993 yil.7-8 sonlar.
5. Doniyorov Shoniyoz. Muxtoriyat qismati.- T.:“ Sharq yulduzi” 1991 yil 12- son
6. Eshov Bohodir. O’zbekistonda davlat va maxalliy boshqaruv tarixi. -T.: “Yangi asr avlodi”-2001.
7. “Fan va turmush” jurnali, 1991 yil 2- son
8. “Fan va turmush” jurnali, 1991 yil 11- son
9. Ҳасанов М. Фергана после Кокандских событий (февраль 1918 - март 1919 года). Т. Fan va turmush jurnali-1990.
10. ”Hurriyat” 1917 yil 15 avgust
11. Ibrohim Karim. Madaminbek. T.: “Yozuvchi”-1993.
12. Jo’rayev. N. O’zbekiston tarixi. -T.: “Sharq”nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh taxririyati-2011
13. Jo’rayev.N, R.Nurullin, S.Kamolov va bosh. O’zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida. -T.:“Sharq” -2000.
14. Karimov Sh. Qafasdagı qush orzusi.- T.: Fan-1991.
15. Karimov. N. Istiqlol uyg`otgan shoir -T.: Fan-2000 .
16. “Kengash” gazetasi, 1917 yil 9 iyundagi 3-son.
17. Moziydan sado. Jurnali sonlari.-Toshkent. 1999-2012.
18. “Мулоқот”, Т-1994 йил, 5-6-сонлар.
19. Munavvarqori Abdurashidxonov. Xotiralarimdan. Т-20001.
20. Mustafo Cho’qay o’g’li. Istiqlol jalloidlari. 1917yil.
21. Муравейский С. (Лопухов В.). Очерки по истории революционного движения в Средней Азии.
22. “Najot”gazetasi. 1917 yil 26 mart soni.
23. Qosimov Yo’lchi. Qora ko’zoynak bilan yozilgan tarix.-Namangan-1993 .
24. Rajabov Q. Farg‘ona vodiysidagi istiqlolchilik harakati: mohiyati va asosiy rivojlanish bosqichlari.-Toshkent.: “Yangi nashr”- 2015.

25. "Saodat" jurnali. Turor Risqulovning tarjimai holi.- 1992 yil 5-6 son
26. Samarqand gazetasi. 2010 . 2-son.
27. "Samarqand universiteti" gazeta. 2007. 7-son.
28. "Ulug' Turkiston"gazetasi 1917 yil 12 iyun soni.
29. Usmonov Q. "O'zbekiston tarixi milliy istiqlol davri". -T.: "O'qituvchi"- 2008 .
30. Usmanov K, A.Abdunabiev va boshq. O'zbekiston qaramliq va mustaqillik yillarida. t., "O'qituvchi", 1996.
31. Xalq so'zi. Gazeta.-T.: "Sharq"- 2001 yil 2 may. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 1 mayda qabul qilingan «Qatag'on qurbonlarini yod etish kunini belgilash to'g'risida»gi Farmoni .
32. Xalq so'zi. Gazeta- T.: "Sharq"- 2001 .
33. Xalq so'zi. Gazeta.-T.: "Sharq"- 2002 yil 9 noyabr. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002 yil 8 noyabrda qabul qilingan «Qatag'on qurbonlari xotirasi» muzeyi faoliyatini tashkil etish to'g'risida»gi qarori .
34. Xalq so'zi. Gazeta.-T.: "Sharq"- 2004 .
35. Xo'jayev Fayzulla. Tanlangan asarlar: 3-jiddlik, 2-jild-T.: "Fan"-1978 .
36. Xo'jayev Mansurxo'ja. "Shermuhammadbek qo'rboishi".-T.: "Sharq"-2008.
37. Ziyoyeva D. Turkiston milliy ozodlik harakati (mustabid tuzumga qarshi 1916 yil va 1918-1924 yillardagi xalq kurashlari tarixshunosligi).-T.: "G'afur G'ulom" nashriyot-2000 .
38. O'rta Osiyo komunistik tashkilotlarining tarixi.-T.: "O'zbekiston"-1969.
39. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.-T "O'zbekiston"-2003.
40. O'zbekiston tarixi (1917-1993 yillar) .-T: "O'qituvchi"-1994 yil.
41. O'zbekistonning yangi tarixi, Ikkinci kitob. O'zbekiston Sovet mustamlakachiligi davrida Toshkent, "Sharq"- 2000.
42. O'zbekiston SSR tarixi. 3-tom.- T.: "Fan"-1971.
43. Ўзбекистон ССР тарихи. 2-том, Т.: "Фан"-1971.
44. O'zbekiston tarixi va madaniyati.TAFAKKUR. Toshkent. 2011.
45. O'zbekiston Respublikasi.Ensiklopediyasi.-T: "Qomuslar bosh tahririyati"- 1997
46. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. –T.: "Davlat ilmiy nashriyoti"-2005.
47. "O'zbekiston ovozi" gazetasi,1996 yil 24 fevral
48. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. Jurnal. 1996 y. 7-10 sonlar.

- 49.** Shamsuddinov. R O`zbekistonda sovetlarni qulqlashtirish siyosati va uning fojiali oqibatlari.- T. 2001 y
- 50.** Shamsuddinov.R “Istiqlol yo`lida shahid ketganlar”. T -2001.
- 51.** Р.Шамсутдинов. “Коллективлаштириш ва «катта террор» даврида қатағон қилинган ватандошларимизнинг хотира китоби”Самарқанд вилояти (1929-1939 йиллар). Т.: “Янги аср авлоди”-2015.
- 52.** Shamsutdinov R., Karimov Sh. “Vatan tarixi” Toshkent.: “SHarq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi- 2010
- 53.** Shamsutdinov Rustam. Jasoratga to’la hayot sohibi. Andijon, 1991 y
- 54.** “Sharq yulduzi ”jurnali 1991 yil 12 son.
- 55.** “Sharq yulduzi” jurnali, Ahmad Zaki Validiy. Xotiralar. 1993 yil.7-8 sonlar.

### **3.Internet saytlari**

- 1.** [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
- 2.** [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
- 3.** [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)
- 4.** [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
- 5.** Internet [www.ref.uz](http://www.ref.uz)
- 6.** Internet [www.samarkand.uz](http://www.samarkand.uz)
- 7.** Madaniy merosimiz muhofazada./[www.region.uz](http://www.region.uz).